


ESHCHANOVA GAVHAR

**“OSHIQ G‘ARIB VA SHOHSANAM”
DOSTONING VARIANTLARI VA
BADIYYATI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ESHCHANOVA GAVHAR

**“OSHIQ G'ARIB VA SHOHSANAM”
DOSTONINING VARIANTLARI VA
BADIYYATI**

Monografiya

**Toshkent
"INNOVATSIYA ZIYO"
2024**

UDK: 821.512.133

KBK: 82.3(50')

E-91

Eshchanova Gavhar

"Oshiq G'arib va shohsanam" dostonining variantlari va badiiyati.
Monografiya. – Toshkent: "INNOVATSIYA ZIYO", 2024. – 104 b.

Monografiya o'zbek xalqining qadimiy va sevimli dostonlaridan biri – "Oshiq G'arib va Shohsanam"ning ilmiy tadqiqiga bag'ishlangan.

Unda Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalarida keng tarqalib xalq baxshilari, qiroatxon-qissaxonlar, xalfalar tomonidan asrlar mobaynida kuylanib kelinayotgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining og'zaki, qo'lyozma va toshbosma shaklda tarqalgan 15 ta varianti alohida-alohida tavsiflanadi, qiyosiy tekshiriladi, o'xshash va farqli lavhalar aniqlanib, ularning badiiyati atroflicha yoritiladi. Doston ijrochiligida xalfalarning o'rni, doston motivlarining qiyosiy tahlili, genezisi masalasi, kompozitsiyasi va obrzazlar tizimi, badiiy tili va ifoda vositalariga nazar solinib, muhim ilmiy xulosalarga kelingan.

Monografiya folklorshunos olimlar, oliy o'quv yurtlari filologiya fakulteti talabalari, akademik litsey, pedagogika kollejlari o'quvchilari va xalq og'zaki ijodiga qiziquvchi keng kitobxonlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Eshonqulov Jabbor

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sabirova Nasiba Ergashevna

filologiya fanlari doktori, professor

Raimova Nilufar Abdullayevna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ushbu monografiya Urganch Davlat Pedagogika instituti ilmiy-texnik Kengashi yig'ilishining 2024-yil 29-yanvardagi 3-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-745-64-5

© Eshchanova Gavhar, 2024.
© "INNOVATSIYA ZIYO", 2024.

KIRISH

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil odimlayotgan yurtimizda milliy qadriyatlar mohiyatini yanada teranroq anglash asosida ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, xususan, xalq dostonlarida o'z ifodasini topgan ezgu g'oyalarni hayotga keng tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Negaki, ma'naviyatimiz durdonalaridan sanalgan bu bebaho badiiy meros o'zbek folklorshunosligida ko'plab tadqiqotlarga manba bo'lishi bilan birga xalqimiz ma'naviy kamolotining muhim tayanchlaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF – 4947 – sonli, 2017-yil 13 - sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora – tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ – 3271- sonli, 2018 - yil 26 - apreldagi "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi BMQ – 304 – sonli, 2019 - yil 14- maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 4320 – sonli, qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi, shubhasiz.

Yurtboshimiz "Dostonchilik va baxshichilik – milliy g'ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim"¹deya ta'kidlaganlar.

Darhaqiqat, milliy g'ururimiz hisoblangan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni Xorazm vohasida keng yoyilgan, og'zaki tarzda kuylangan, qo'lyozma va litografik (toshbosma) usulda chop etilgan qadimiy epik asardir. Uning asosiy mohiyati, tarixiy asoslari va badiiyati borasida hozirgacha alohida maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Zero, taniqli folklorshunos, filologiya fanlari doktori,

¹Mirziyoyev Sh.Istiqbolli loyihalar xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda. // Xalq so'zi. – Toshkent, 2018-yil, 23 – yanvar.

professor M.Saidov: "Xorazm baxshilari repertuaridan o'rin egallagan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Oshiq Albani", "Oshiq Mahmud", "Sayyod va Hamro", "Asil va Karam", "Tulumbiy" kabi dostonlarning kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi biror manbaga ega emasmiz"¹-deb yozganida yuz karra haqli edi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining qo'lyozma nusxalari XIX asrning o'rtalarida dunyo yuzini ko'rgan. XX asrning boshlariga kelib, dostonning toshbosma (litografik) nusxalari ham ommalasha boshlagan. Chunonchi, 1906, 1907 - yillarda Buxoroda mulla Abdulmajid bin qori Abdulvos'e litografiyasida doston qayta - qayta chop etilgan.

Samarqand dostonchilik maktabining mashhur namoyandasi Fozil Yo'ldosh o'g'li mazkur dostonning ana shu toshbosma nusxalarini o'qitib (baxshi savodsiz bo'lgan - E.G.) o'rgangan va mahorat bilan kuylab yurgan. Bu hol folklor tarixida, albatta, ijobiy hodisa sifatida qayd qilinadi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining xalq baxshilari epik repertuaridagi namunalari folklorshunoslik mezonlari asosida yozib olish va nashr qilish ishlari, asosan, XX asrning I yarmida amalga oshirilgan. Doston 1930-yilda - professor G'ozil Olim Yunusov rahbarligida Xorazmda ish olib borgan etnofolkloristik ekspeditsiya a'zosi Buyuk Karimov tomonidan Bola baxshi - Qurbonnazar Abdullayev ijrosida, 1937-yilda esa ushbu doston M.Zarif tomonidan Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosida yozib olindi. O'tgan asrning 60 - yillarida folklorshunoslardan F.Sultonova, A.Soatovlar Xudoybergan baxshi O'taganov, Madrahim baxshi Matchonovdan, 1970-yillarda professor S.Ro'zimboyev Qodir sozchi Karimovdan, 80-yillarning oxirlarida S.Ro'zimboyev va G.Eshchanovlar Tursun baxshi Jumaniyozovdan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining og'zaki variantlarini yozib oldilar. Shuningdek, 1981 - yilda Ro'zimbek Murodov ham o'zi kuylab kelgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining matnini qog'ozga tushirib, O'zbekiston

fanlar akademiyasining (sobiq) qo'lyozmalar instituti Folklor xazinasini (fondi) ga topshirgan¹.

1956 - yilda taniqli folklorshunos olimi Zubayda Husainova "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining mavjud variantlari asosida tayyorlagani yig'ma variantini nashr ettirdi.² Dostonning ushbu nashrida Bola baxshi - Qurbonnazar Abdullayev, Fozil Yo'ldosh o'g'li va Ro'zimbek Murodov variantlari hamda "Oshiq G'arib va Hilola pari" dostonining (sobiq) Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor arxivida saqlanayotgan qo'lyozmasidan foydalanilgan. Holbuki, "Oshiq G'arib va Hilola pari" dostoni Xorazmda mustaqil epos sifatida keng tarqalgan. Uning qisqartirilgan holda yig'ma variantga kiritilishi matndagi ko'plab epizodlarning tushirib qoldirilishiga sabab bo'lgan.

Taniqli folklorshunos V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar o'zlarining "Узбекский народный героический эпос" nomli kitobida "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni syujetining o'zbek va ozarbayjon folkloridagi epik talqinlari bir-biriga juda yaqinligini qayd qilishgan.³

Xorazm vohasida keng tarqalgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi voqealar rivoji turkman va qoraqalpoq versiyalariga o'xshash kelishi haqidagi ayrim fikrlar B.O.Karriyev, X.G.Ko'ro'gli va Q.M.Maqsetev kabi folklorshunoslarning ilmiy tadqiqotlarida ham uchraydi.⁴

Ozarbayjon folklorshunosi S.Z.Yoqubova esa o'zining «Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб» nomli monografiyasida⁵ "Oshiq G'arib" dostonining turkman, o'zbek, qoraqalpoq, qorachoy va boshqa xalqlar versiyalarini o'zaro qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi A.Navoiy nomidagi (sobiq) til va adabiyot instituti huzuridagi H.Zarif nomli Folklor arxivi: Bola baxshi varianti, qo'lyozma, inv.№ 597; Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, qo'lyozma, inv. № 1497; Xudoybergan baxshi varianti, qo'lyozma, inv.№ 1501; Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, S.Ro'zimboyevning shaxsiy arxivida saqlanadi; Tursun baxshi varianti, qo'lyozma, G.Eshchanovning shaxsiy arxivida; Ro'zimbek Murodov varianti, qo'lyozma, H.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar institutida, inv.№ 7237.

² Husainova Z. Oshiq G'arib va Shohsanam. T., 1956.

³ Жирмунский В.М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947, С. - 447.

⁴ Maksetov K.M. Qoraqalpoq xalq qahramonlik dostonlarining poetikasi. Dok.diss. 1965;

Карриев Б.А. Эпические сказания о Корогли и тюркоязычных народов. М., 1967; Корогли Х.Г. Взаимосвязи эпосов народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. М., Корогли 1983.

⁵ Якубова С. Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб», Баку, 1968.

¹ Saidov M. O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat. T.1969, B. - 25.

O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat masalalarini keng ko'lamda tadqiq etgan M.Saidov qoraqalpoq baxshilari o'zlari kuylaydigan "G'arib Ashiq" dostonining matnini Xorazm baxshilaridan olgan, degan asosli fikrni bildirgan edi¹. Professor T. Mirzayev ham o'zining "Xalq baxshilarining epik repertuari" nomli monografiyasida². V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov va M. Saidovlarning Xorazm dostonlari, jumladan, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni xususidagi ilmiy-nazariy fikrlarini rivojlantirib, ularning mulohazalariga muayyan aniqliklar kiritadi. Monografiyada baxshi – shoirlar va qiroatxon-qissaxon xalfalarning ustoz-shogirdlik an'analari, ularning repertuarida boshqa dostonlar qatori tadqiq qilinayotgan ushbu dostonning ham mavjudligi haqida e'tiborga loyiq fikrlar bildiriladi. Olim Xorazm baxshilari repertuaridagi "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li repertuariga kirishini epos taraqqiyotidagi "yakka hodisa" sifatida qayd qiladi.³ Tilshunos olim A.Ishayev o'zining "Shohsanamning vatani qayer?" nomli maqolasida⁴ "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining syujet asoslari saljuqiylar davrida, ya'ni XI, XII asrlarda paydo bo'lganligiga e'tiborni jalb qiladi. Olim mazkur doston saljuqiylar davlati chegarasining g'arbiy hududlarida emas, balki uning sharqiy viloyatlarida yaratilganligi, keyinchalik Kavkaz va hozirgi Turkmaniston respublikasining Toshovuz viloyatidagi Ko'hna Urganch shahridan 90 kilometr janubiy – g'arbda joylashgan Shohsanam qal'asi doston syujeti bilan bog'liq, degan xulosaga kelgan va uni ilmiy asoslangan misollar bilan isbotlashga harakat qilgan. Bu asosli dalilga ishonmaslikning, fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q, albatta. Olim Xorazm vohasidagi baxshilar doston voqealarini: "Qadim zamonda, Xorazm tomonda, Amudaryo bo'yida ... sodir bo'lgan", - deya kuylaydilar, degan fikrni ta'kidlaydi. Shu o'rinda dostonning xorazmlik baxshilar kuylaydigan variantlarida emas, balki Toshkentda istiqomat qilib, ijod qilgan Ro'zimbek Murodov kuylaydigan variantda ham bunday boshlama mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak.

¹. Якубова С. Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб», Баку, 1968, с. 25.
². Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. T., 1979.

³. Ko'rsatilgan adabiyot, 14 – bet.

⁴. Ishayev A. Shohsanamning vatani qayer? // Fan va turmush, 1971, 2- son, B.- 25- 26.

Eposning voqelikni o'ziga xos tarzda aks ettirish mezonlari, shakliy xossalari mavjud. Bu o'z - o'zidan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni badiiyati masalasini kun tartibiga qo'yadi. Folklorshunos O.Madayevning "Xorazm dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi¹ bu boradagi ilk qadam bo'lgan. Tadqiqotchi boshqa dostonlar qatori "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining badiiy xususiyatlari yuzasidan ham yo'l – yo'lakay mulohazalar yuritgan, ayrim fikrlarini bildirgan. Ammo O.Madayevning "Dostonidagi G'arib obrazi hayotdagi turli – tuman qarama – qarshiliklar asosida tasvirlanmagan", degan fikriga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Negaki, uning bunday xulosasi dostonning 1956 – yilda yig'ma variant shaklida nashr qilingan matni asosida chiqarilgan bo'lib, doston badiiy xususiyatlari variantlararo tadqiq etilmagan. Bu esa doston badiiyatini atroflicha, mukammal tekshirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining (sobiq) Hamid Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar institutining katta ilmiy xodimi Safo Zufarovning "Shohsanam va G'arib" deb nomlangan maqolasida² ushbu institut xazinasida 1276-inventar raqami ostida saqlanayotgan doston qo'lyozmasi mazmuni, uning tili haqida ayrim mulohazalarni bilgiran. Ushbu maqolada doston leksik qatlamida eski o'zbek tili va qadimgi Xorazm lahjasining o'ziga xos xususiyatlari saqlanganligi to'g'ri e'tirof etilgan. Ammo dalil, misol tariqasida keltirilgan she'riy parchalarda tabiiylik saqlanmagan, ular ko'pgina imloviy xatolar bilan berilgan.

Safo Zufarovning "Shohsanam va G'arib" dostoni katta ilmiy tekshirish manbaidir" degan e'tirofi hamon e'tiborli bo'lsada, uning Z.Husainova tomonidan nashr qilingan "Shohsanam va G'arib" nomli yig'ma varianti, asosan, mashhur xalq baxshisi Islom shoir og'zidan yozib olingan material asosida dunyoga kelgan" degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi.³ Chunki, ushbu dostonni, asosan, Xorazm baxshilari hamda mashhur baxshi - Fozil Yo'ldosh o'g'li va Ro'zimbek Murodovlar kuylab kelishgan bo'lib, Islom shoir

¹ Madayev O. Xorazm dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nomzodlik diss. T., 1973.

² Zufarov S. Shohsanam va G'arib. // Adabiy meros. 1981, 2 (18) – son. B. - 67 – 68.

³ Ko'rsatilgan adabiyot. 67- bet

repertuarida esa "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni mavjud bo'lmagan.

Monografiyada S.Zufarov mazmunini qisqacha bayon qilgani 1276-inventar raqamli qo'lyozma variant, aniqlaganimiz 15 ta variant bilan alohida-alohida tavsiflanadi, qiyosiy tekshiriladi, o'xshash va farqli lavhalar aniqlanib, ularning badiiyati atroflicha yoritiladi.

Shularni nazarda tutib, ushbu monografiyada "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining shakllanish jarayoni, tarqalish usullari va asosiy variantlari aniqlangan bo'lib, doston syujetining boshqa turkiy xalqlar tomonidan ishlanishi, g'oyaviy - badiiy jihatdan o'ziga xosligi va umumiyliigi barcha variantlarni qiyosiy asnoda tekshirish orqali ko'rsatib beriladi. Mazkur masalalarni hal etish esa quyidagi vazifalarni yoritish orqali amalga oshiriladi:

- dostonning qo'lyozma, toshbosma va og'zaki variantlarini aniqlash hamda ularni tavsiflash;

- dostonning qiroatxon - qissaxon xalfalar repertuaridagi turli variantlariga munosabat bildirish, ularning ijrochiligiga xos xususiyatlarni aniqlash hamda ushbu dostonning xalfa ijrochiligiga kirish masalasini yoritish;

- doston syujetining genezisini aniqlash va dostondagi asosiy motivlarni qiyosiy tahlil qilish;

- doston kompozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ochish;

- dostondagi obrazlar tavsifi: bunda prototip masalasi, hayotiy haqiqat va badiiy to'qima nisbatlarini belgilash;

- doston voqealari bilan bog'liq toponimlarning mohiyatini oydinlashtirish;

- doston matnida o'g'uz lahjasi elementlarining saqlanish darajasini aniqlash.

I BOB. DOSTON VARIANTLARI TAVSIFI, YETAKCHI MOTIVLARI VA GENEZISI

1.1. Doston variantlari tasnifi

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, asosan, Xorazm viloyati, Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlari, Turkmaniston respublikasining Toshhovuz viloyati hamda Qoraqalpog'iston respublikasi hududida yashovchi o'zbeklar orasida keng tarqalgan.

Aniqlaganimiz o'n besh variantning hammasida ham dostonning asosiy syujeti (asarning bevosita mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi voqealar tizimi) saqlanadi, ularning umumiy g'oyaviy yo'nalishi ham bir xil. Farqlar u yoki bu motivning ishlanishi ayrim lavhalarning qo'shilishi yoki tushirib qoldirilishi, variantning badiiylilik darajasi bilan belgilanadi. Variantlar hajm jihatdan ham bir xil emas, albatta. Ular bir necha yuz misradan tortib, bir necha ming misragacha bo'lgan she'riy matnni o'z ichiga oladi. Qadimiy an'ana, baxshining ijodiy iqtidori va salohiyati asosida vujudga kelgan bu variantlarning har biri o'zicha mustaqil asarlardir. Ularning biriga asosiy, qolganlariga ikkinchi darajali o'rin belgilasga hech qanday asos yo'q. Lekin ulardan qay birining u yoki bu darajada qadimiy an'anaga yaqinligi, an'anaviy matnga ijodiy yondoshilganligi, matnning g'oyaviy-badiiy mukammalligi, syujetdagi poetik detallarning ishlanish darajasi jihatidan muayyan farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda dostonning 6408-inventar raqamli nusxasini namuna deb hisoblash mumkin. Shuning uchun ana shu variant mazkur tatqiqotda qiyosiy tahlil uchun yetuk-tayanch asos qilib olindi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining qo'lyozma holatida saqlangan variantlari

6408 - inventar raqamli variant. Bu variant O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nodir qo'lyozmalar xazinasida

saqlanmoqda. Variantning sifat xususiyatlari: qo'lyozma unchalik yaxshi saqlanmagan; varaqlari sarg'aygan, muqovasi ancha uringan, eski. Qo'lyozmaning 3,22,23,33,38-varaqlaridagi yozuvlar o'chib ketgan. Matn chiroyli nasta'liq xatida bitilgan. O'lchami 28x16 sm, hajmi 58 varaq (116 bet), har sahifada 14 qatordan yozuv bor. Ko'chirilgan joyi, yili ko'rsatilmagan. Ko'chirib yozgan xattot haqida ham ma'lumot berilmagan.

Doston voqealari xalq qissachiligining an'analariga ko'ra: "Bismillahir rohmanir rohim" kalimasi bilan boshlangan, keyin quyidagi ibora keltiriladi: "Ammo roviyoni axbor, noqiloni osor, muhadisoni dostoni bo'ston, ko'xan xo'sha chinoni xirman suxan, harki suxanro besuxan zam qul, porae az xun jigar ham kunad. Ammo roviylar andoq rivoyat qiladurlarkim, Diyorbakr degan bir shahar bor edi. Ul shaharning podshohini Shohabbosxon der edilar..." bilan boshlanadi. Tugallanma ham turg'un - kitobat etuvchi shaxsning o'quvchiga murojaati bilan yakunlangan. Qo'lyozmada 93ta she'riy parcha bo'lib, 2530 misrani tashkil etadi. Ulardan 4 tasi g'azal, 2tasi muxammas, qolganlari esa murabba'lardir.

1276 - Inventar raqamli variant. Qo'lyozma O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Hamid Sulaymonov nomli Qo'lyozmalar institutida bo'lib, ancha yaxshi saqlangan. Qalin muqovali, chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. O'lchami 25x14 sm, hajmi jami 89 varaq (178bet), har varaqda 28 qatordan (sahifada 14 qator) yozuv bor. Matn an'anaviy oq shildiroq qog'ozga yozilgan. Ko'chirilgan joyi, yili ko'rsatilmagan. Ko'chirib yozgan xattot haqida ham hech qanday ma'lumot berilmagan. Qo'lyozma variant voqealarning rivojlanishi jihatidan 6408-inventar raqamli qo'lyozma variantga yaqin turadi.

541 - inventar raqamli variant. Qo'lyozma O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Hamid Sulaymon nomidagi Qo'lyozmalar institutida mavjud bo'lib, yaxshi saqlangan. Unchalik chiroyli bo'lmagan nasta'liq xatida ko'chirilgan. Har bir she'riy parchaning 1-so'zi qizil rangli siyoh bilan yozilgan. O'lchami 25x15 sm, hajmi jami 78 varaq, har sahifada 13 qatordan yozuv bor. Matn an'anaviy oq shildiroq qog'ozga yozilgan. Ko'chirilgan joyi maskani, vaqti ko'rsatilmagan. Ko'chirib yozgan xattot haqida

ham hech qanday ma'lumot yo'q. Bu variant 1276-inventar variantga ham nazmiy, ham nasriy tomondan o'xshash. Shunga qaramay, mazmunida, ayrim voqealarning tasvirlanishida qisman farqlar seziladi.

695 -inventar raqamli variant. Mazkur qo'lyozma variant O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nodir qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda. Matn o'zbek tilida, chiroyli nasta'liq xatida, ayrim o'rinlariga qizil siyoh bilan bezak berilib, Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan. O'lchami: 26,5 x 15,5 santimetr, hajmi jami 56 varaq (112 bet) Har sahifada 11 qatorli yozuv bor. Ko'chirib yozgan shaxs, ko'chirilgan joyi va vaqti haqida ma'lumot berilmagan. Qo'lyozmaning matni to'liq emas, anchagina imlo xatolari ham mavjud.

Robiya xalfa Ollaberganova qo'lidagi variant. Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Chig'atoy qal'a qishlog'ida istiqomat qiluvchi Robiya xalfaning shaxsiy arxivida saqlanayotgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni qo'lyozmasi taxminan 1895 - yilda ko'chirilgan. Qo'lyozma arab alifbosidagi eski o'zbek yozuvida Xorazmda doston ko'chirish uchun qo'llaniladigan an'anaviy pishiq qog'ozga bitilgan. Ko'chirib yozgan xattot haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Qo'lyozmaning o'lchamlari: 25,5x 15,5 santimetr, hajmi ayni paytda 26 varaq (52 bet) dan iborat bo'lib, ayrim varaqlar yo'qolgan. Qo'lyozmada 42 ta she'riy parcha bo'lib, 724 misrani tashkil etadi. Shundan 4 tasi g'azal, 1 tasi muxammas, qolganlari murabbalardir.

Toshbosma variantlar

L.710 -inventar raqamli variant. Ushbu toshbosma variant O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nodir qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda. "Kitobi G'aribi-Shohsanam" hijriy 1324 - yil safar oyida, milodiy 1906 - yilda Buxoro shahrida mulla Saidmahmud bin qori Abdulvos'e litografiyasida chop etilgan. Qalin muqovali, juda yaxshi saqlangan, hajmi 84 varaq, (168 bet).

L.3686 - inventar raqamli variant. "Kitobi G'aribi - Shohsanam" toshbosma nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining(sobiq) Hamid Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti xazinasida saqlangan. Doston 1914 - yilda Toshkent shahrida G'ulom Hasan Orifjonov litografiyasida chop etilgan. Muqovasi tushgan, varaqlari sarg'aygan, yaxshi saqlanmagan. Jami hajmi 82 varaq (164 bet). Bu variant ham an'anaviy debocha bilan boshlangan. Matn tuzilishi jihatidan L.710 - inventar raqamli variantdan deyarli farq qilmaydi.

Miskin Sharif ibn Avduulaxon Sayyodiy varianti. Dostonning ushbu variant O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutidagi Hodi Zarif nomli Folklor arxivida 1449 - inventar raqami ostida saqlanmoqda. Doston taxminan XIX asrning oxirida ko'chirilgan, qissaxon Miskin Sharif ibn Obdullaxon Sayyodiy tomonidan qiroat bilan oqib kelingan qo'lyozma 1961 - yilda qayta ishlanib, she'riy matn shakliga keltirilgan. Hazorasplik Ro'zi Yoqub Hazoraspiy qayta ishlagani matn hajmi 158 bet bo'lib, 2094 she'riy misradan iborat.

Og'zaki variantlar

Bola baxshi - Qurbonazar Abdullyeva barianti. Bola baxshi repertuaridagi dostonning bitta qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutidagi Hodi Zarif nomli Folklor arxivida 597 - inventar raqami ostida saqlanyapti. Doston folklorshunos Buyuk Karimov tomonidan lotin alifbosidagi dastxatda, oddiy yozuv daftariga 1936 - yilda yozib olingan. Qo'lyozma 56 bet, she'riy qismi juda qisqa - 308 misradan iborat, nasriy qismi ham ixcham, lekin badiiy jihatdan ancha yetuk.

Doston 1981- yilda folklorshunos S.Ro'zimboyev tomonidan qayta yozib olingan. Dostonning bu qo'lyozmasi S.Ro'zimboyevning shaxsiy arxivida saqlanmoqda. Qayta yozib olinganda birinchi qo'lyozmadagi matn asos e'tibori bilan saqlangan. Bunda farqlar tasvirning kengayganligi, ayrim

misralarning, detallarning va motivlarning ko'payganligi bilan izohlanadi.

Qodir sozchi Karimov varianti. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining bu baxshidan yozib olingan qo'lyozmasi professor S.Ro'zimboyevning shaxsiy arxivida saqlanyapti. Doston 1970 - yilda folklorshunos S. Ro'zimboyev tomonidan Urganch shahrida yozib olingan. Qo'lyozmaning hajmi 32 varaqdan (64 bet) iborat. She'riy qismi 541 misrani tashkil etadi. Ushbu variant qadimiy dostonchilik an'analarini o'zida ancha muukammal saqlaganligi bilan ahamiyatlidir.

Xudoyberdi O'tagan o'gli varianti. Dostonning bu baxshi varianti qo'l yozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutidagi Hodi Zarif nomli Folklor arxivida 1479 - inventar raqami bo'yicha saqlanyapti. Doston folklorshunos Feruza Sultonova tomonidan kirill alifosiga asoslangan o'zbek tilida, umumiy daftarga 1960 - yilda Mang'it shahrida yozib olingan. Qo'lyozmaning hajmi 58 varaqdan (116 bet) iborat. Dostonning she'riy qismi 556 misrani tashkil etadi va nasriy qismidan bir yarim baravar ko'p.

Madraim Matchon o'gli varianti. Madraim Matchon o'g'lidan yozib olingan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutidagi Hodi Zarif nomli Folklor arxivida 1501 - inventar raqami ostida saqlanmoqda. Doston folklorshunos A.Soatov tomonidan o'zbek tilida, umumiy yozuv daftariga 1960 - yilda Qo'n - g'iro't shahrida yozib olingan. Qo'lyozmaning hajmi 76 bet, she'riy qismi 836 misra, nasriy qismi she'riy qismidan ancha ko'p.

Madraim baxshi variantining to'liq matniga ega emasmiz. Ammo mavjud matnga asoslanib, baxshi Shimoliy Xorazmdostonchilik an'analarini ancha mukammal o'rganganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Tursun baxshi Jumaniyozov varianti. Tursun baxshi og'zidan yozib olganimiz "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining qo'lyozmasi shaxsiy arxivimizda saqlanmoqda. Dostonni folklorshunos S. Ro'zimboyev bilan birgalikda 1991 -

yilda Urganch shahrida yozib olganmiz. Qo'lyozmaning hajmi 28 varaq (56 bet) dan iborat, she'riy qismi 312 misra, nasriy qismi she'riy qismidan bir yarim baravar ko'p.

Tursun baxshi varianti dostonchilikning qadimiy an'alarini o'zida nisbatan ko'p saqlaganligi, nasriy qismning ayrim o'rinlari she'riy qismiga nisbatan badiiy pishiq ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti. Dostonning Fozil shoir variantining qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutidagi Hodi Zarif nomli Folklor arxivida 116 - inventar raqami ostida saqlanmoqda. Doston folklorshunos M.Zarifiy tomonidan o'zbek tilida, lotin alifbosidagi dastxatda umumiy daftarga 1937-yilda Toshkent shahrida yozib olingan.

Qo'lyozma matni uchta daftarga yozilgan, hajmi 270 bet, she'riy qismi 1780 misrani tashkil etadi. Mazkur doston, asosan, Xorazm baxshilari epik repertuarida mavjud bo'lgan. Bu jihatdan Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti dostonning tarqalish doirasi va syujet migratsiyasini belgilashda muhim qimmatga ega. Ammo ushbu variant matnining badiiy jihatdan qanchalik pishiqligidan qat'iy nazar, Bulung'ur dostonchilik maktabi epik an'analari doirasida "qayta ishlovga" uchraganligini ham qayd qilib o'tish lozim.

Ro'zimbek Murodov-Murod baxshi varianti. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining Ro'zimbek baxshi varianti qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining(sobiq) Qo'lyozmalar instituti arxivida 7237-inventar raqam ostida 216-papkada saqlanmoqda. Doston baxshining o'z dastxatida yozuv mashinkasi uchun ishlatiladigan (A4 hajmdagi) oq qog'ozga 1981-yilda Toshkent shahrida yozilgan. Qo'lyozma matni 202 bet, she'riy qismi 3868 misradan iborat. Ro'zimbek baxshi varianti voqealarning rivojlanishi jihatidan 6408-inventar raqamli variantga yaqin turadi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlarini tahlil qilish tubandagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Yozma adabiyot ta'siri natijasida doston hajmi ixchamlashtirilgan. Dostonning 6408, 1276, 541, 695, 1449-inventar raqamli variantlari va Robiya xalfaning shaxsiy arxividagi

qo'lyozma nusxa hamda L.719, L.3686-inventar raqamli toshbosma namunalar matniga mumtoz adabiyotga xos an'anaviy boshlama, badiiy ifoda vositalari, she'riy janrlari va o'lcham shakllari ko'chgan. Variantlar orasida tasvirlarning boyligi, epik mazmunning to'laligi va nasriy qismning nisbatan ko'pligi jihatdan 6408 - inventar raqamli qo'lyozma ajralib turadi. Mazkur variant matni asos e'tibori bilan boshqa nusxalarda ham saqlangan. Variantlararo bunday mushtaraklikdan doston variantlari bir-biridan farq qilmas ekan-da, degan xulosaga kelmaslik kerak. Chunki baxshilar yoki xattotlar ayrim epizodlarga ijodiy yondoshganligi, ayrim o'zgartirishlar kiritganliklari, ba'zan diniy motivlar ham matnga kiritilganligini, tahlil davomida kuzatganimizcha, qayd etishga intildik.

Dostonning Robiya xalfa varianti va 695-inventar raqamli nusxalari ancha pala-partish, savodsizlarcha ko'chirilgan. Ko'rinadiki, dostonni ko'chirishda xattot saviyasi ham katta ahamiyatga ega.

Yuqorida nazardan o'tkazilgan Bola Baxshi-Qurbonnazar Abdullayev, Qodir sozchi Karimov, Xudoybergan O'tagan o'g'li, Madraim Matchon o'g'li, Tursun baxshi Jumaniyozov, Fozil Yo'ldosh o'g'li va Ro'zimbek Murodov variantlarida baxshining badihago'yliги yaqqol seziladi. Ya'ni matnga yangi she'riy parchalar kiritilgan, ifoda vositazlari yangilangan, badiiy talqinga yangi detallar qo'shilgan, biroq mazmun, asosan, saqlangan. Ayniqsa, bunday holatlar dostonning Xudoybergan O'tagan o'g'li, Madraim baxshi va Tursun baxshi kuylagan variantlari matnida ko'proq ko'rinadi. Darvoqe, mazkur variantlarning nasriy qismi matnning yarmidan ziyodini tashkil qiladi. Binobarin, baxshilarning barchasi epik an'ana doirasida ish ko'rganlar.

1.2. Doston ijrochiligida xalfalarning tutgan o'rni

Xorazm dostonchiligi xalq baxshilari va xalfalarining ijodkorligi hamda ijrochiligi bilan asrlar osha yashab kelmoqda. Doston kuylovchi baxshilarning ijodkorligi, mahorati masalasi xususida ko'plab fikrlar bildirilgan. Ammo vohada keng tarqalgan xalfachilik an'analari xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi

maxsus tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Faqat ayrim manbalarda ular haqida ba'zi bir ma'lumotlar qayd qilib ketildi. Jumladan, H.T.Zarifov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzayev va S.Ro'zimboyev kabi folklorshunoslar ayrim fikrlarni bildirganlar.¹ Shuningdek, yosh folklorshunos S. Ollaberganovanning "Xalfalar ijodining o'zbek folkloridagi o'rne" mavzusidagi fililogiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgani dissertatsiyasi xalfachilik an'analari va ularning dostonchilik rivojiga qo'shgan hissalar haqidagi² olg'a tashlangan katta qadam deb baholash mumkin. Lekin bularning birortasi ham "xalfa" so'zining o'ziga xos ijrochilik ma'nosini qanday va qachon paydo qilganligi va shu jarayonning tarixiga nazar solmaydilar. Masalaning bu tomonini oydinlashtirmay, doston ijrochiligini to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Mana shu mantiqdan kelib chiqib, dastlab "xalfa" so'zidagi ma'no tovlanishlari tarixidan so'z boshlagan ma'quldir.

"Xalfa" so'zining lug'aviy ma'nosi ergashmoq, o'rnini bosmoq, o'rinbosar, davomchi, noib demakdir.³ Kuzatishlardan ma'lumki, "xalfa" so'zining tarixiy ildizlari qadimiy zardushtiylik dini va shu bilan birga Movoraunnahr hududi xalqlari orasida islom dini yoyilgach tarixiy shaxslar hayoti va qahramonliklariga bag'ishlangan dostonlarning keng ko'lamda tarqalganligi bilan bog'liqdir. Jumladan, Muhammad sollallohu alayhi vassalamning amakisi Hamza ibn Abdul Mutallibning sarguzashtlari haqidagi "Qissai Amir Hamza" yoki "Kitobi ramuzi Hamza" dostonlari hozirgacha xorazmlik qiroatxon - qissaxon xalfalar repertuarida saqlangan. Shuningdek, professor M.Saidovning yozishicha, Hazrati Ali (choryorlarning biri, arab xalifasi, Muhammad sollallohu alayhi vassalamning kuyovining qahramonona sarguzashtlariga bag'ishlangan bir turkum dostonlar arab tilidan turkiy tillarga tarjima qilingan⁴. Bunday asarlar bizgacha bir

¹Qarang: Xorazm xalq qo'shiqlari. T., 1965, B.- 26; O'zbek folklori masalalari. T., 1970. B.- 60 - 70. 239; Mirzayev T., Xalq baxshilarining epik repertuari. T., ... B.- 12 -13; Ro'zimboyev S. Xorazm xalq dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi. Dokt.diss. T., 1990. B.54- 90.

² Ollaberganova S.H. Xalfalar ijodining o'zbek folkloridagi o'rne. F.f.n. ilmiy darajasini yozish uchun yozilgan diss. T., 2006. B.-135.

³Арабско - русский словарь, 1958; Узбек совет энциклопедияси, 12 жилд, Т., 1979, В.-230; Узбек тилининг изоҳли луғати. 1981, В.- 313.

⁴Saidov M.O 'zbek dostonchiligida badiiy mahorat. T., 1969. B.- 21

qancha variantlarda yetib kelgan.¹ Aftidan, arablar islom dinini targ'ib qilishda diniy ruhdagi dostonlardan ham foydalanishgan. Dastlab bunday dostonlar xalqning katta yig'inlarida arab tilida musulmon dini aqidalarini tarqatuvchilar tomonidan o'qilgan. Asta - sekinlik bilan ushbu dostonlarni o'qimishli ayollar ham xotin - qizlar yig'inlarida yoddan yoki kitobdan o'qiy boshlaganlar. Dostonlarning qiroatxon - qissaxon xalfalar tomonidan ijro etilishi an'anasi shu tariqa yuzaga kelgan bo'lsa, ajab emas. Holbuki, dostonlarning qiroatxon - qissaxonlar tomonidan ijro qilinishiga islomgacha bo'lgan davrlardayoq muayyan zamin tayyorlangan edi. Ya'ni zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ning duo va olqishlari otashkadalarda yoki maxsus marosimlar chog'ida teatrlashgan uslubda musiqa, qo'shiq va pantomima raqslar jo'rligida mayin, yoqimli ovozda yoddan aytilgan yoki o'qilgan. Shu tariqa, "Avesto" talqinlari bilan bog'liq marosimlarni o'tkazish va ijro qilishda qatnashgan ayollar ijrochiligi qiroatxon - qissaxon xalfa ijrochiligining shakllanishi va keyingi taraqqiyotini ta'minlagan asosiy epik omil vazifasini o'tagan, deyish mumkin.

Xalfalar faqat qadimiy marosim va ibodat aytimlarinigina emas, balki eng qadimiy "Lazgi" kuy va usullarini ham o'zlaridan keyingi avlodlarga yetkazishda katta rol o'ynaganlar. Qadimshunoslar qadimiy Tuproqqal'adagi xorazmshohlar saroyi devorlaridan raqsga tushayotgan yugit - qizlar va tomosha ko'rsatayotgan masxarabozlarning tasviri tushirilganligini aniqlashgan. Qal'ani tekshirgan musiqashunos R.Sadokovning yozishicha, "raqsga tushayotgan skulptura guruhlarida bir zamonlar yo'qolib ketgan an'anaviy "Lazgi" raqsining asosiy pozitsiyasi o'z ifodasini topgan.² Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq dostonlarining xalfalar tomonidan ijro etilishi, bunda xalfalarning ijrochilik va ijodkorlik iqtidorlarining o'zaro nisbatini aniqlash masalalari juda murakkabdir. Negaki, hozirga kelib, dostonlarning to'liq matnini yoddan biladigan va uni kuylari bilan ijro qila oladigan xalfalar juda kamayib ketgan. Tadqiqotchi N.Soburov xalfalarning ijrochilik san'atiga qarab, ikki guruhga: a)

¹Hazrati Ali haqida hikoyalar. T., 1992.

²Qarang: Sobirova S.Xorazmning "Lazgisi" // Yoshlik, 1990, 4 - son, B.- 66.

maxsus ansamblga uyushgan san'atkor- ashulachi xalfalar; b) biror dostonni musiqasiz, yoqimli ohanglarda o'qib eshittiruvchi xalfalarga ajratadi¹. Professor S. Ro'zimboyev esa ularni uch guruhga: a) ijodkor - dostonchi xalfalar; b) irochi - sozanda xalfalar ; d) dostonlarni soz va kuysiz qiroat bilan o'qib eshittiruvchi - qissaxon xalfalarga bo'ladi²

Ko'rinadiki, xalq dostonlarini avloddan - avlodga yetkazishda baxshilar bilan bir qatorda xalfalar ham katta rol o'ynaydilar. Bunday an'ana faqat Xorazm vohasigagina xos bo'lib, respublikamizning boshqa viloyatlarida uchramaydi. Buning sababi "... insonning yer yuzidagi hayotini yengillatishga, uni baxtiyor qilishga qaratilgan din - zardushtiylik³, uning muqaddas kitobi "Avesto"ning qadimiy Amudaryo sohillarida paydo bo'lganligidir, balki⁴.

Hozirgi kunda ijodkor - dostonchi xalfalar uchramaydi. Ikkinchi va uchinchi guruhlariga mansub xalfalar o'z faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. Qolaversa, ular ustoz - shogirdlik an'alarini davom ettirib, shogirdlar ham tayyorlamoqdalar. Xivalik Ullibibi Boyjonova, Aminaxon Quriyozova kabi ijrochi - sozanda xalfalar Sarvinov, Quriyozova, Imsinoy Rahimova, Xurshida Eshniyozova, Feruza Karimova, Dilafruz Bekmetova va Dilafruz Hayitmetova kabi yosh shogirdlarga ustozlik qilib qadimiy ayollar san'atining sir - asrorlarini ularga o'rgatmoqdalar. O'z navbatida ular badiiy havaskorlik guruh (ansambl) larini tashkil etilishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shmoqdalar. Ushbu ijrochi-sozanda xalfalar badiiy rahbar bo'lgan guruh qatnashchilari o'tgan asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan Ojiza va Anash xalfa kabi mashhur xalfalar repertuarida asrlar osha yashab, ayni paytda shogirdlarga meros qilib qoldirgani qadimiy Xorazm xalq qo'shiqlarini kuylash bilan bir qatorda "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyod va Hamro" dostonlari tarkibidagi o'nlab she'riy parchalarni ham garmon yoki akkorddeon jo'rligida mahorat bilan kuylab kelishmoqdalar.

¹ O'zbek sovet folklori masalalari. T., 1970, B.- 70 - 72.

² Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari. T., 1983. B.- 32.

³ Олденбург С.Ф. Предисловие к книге Арнольда «Свет Азии» СПб. 1906. С.20.

⁴ Бартольд В.В. Хорезм // Сочинения, Том III, 1965. С.- 544.

Binobarin, Xorazm vohasida keng tarqalgan xalfa ijrochiligining ildizlari ancha qadimiy bo'lib, "Avesto" talqinlari bilan aqidalarini tarqatuvchilar tomonidan diniy ruhdagi dostonlarning xalq orasida o'qilishi qiroatxon - qissaxonlar ijrochiligi an'anasini yuzaga keltirgan. Shu tariqa xalq dostonlarini avloddan - avlodga yetkazishda baxshilar kabi xalfalar ham barakali xizmat qilib kelishmoqda.

1.3. Doston motivlarining qiyosiy tahlili

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida monogom oilaviy munosabat - faqat bitta ayolni sevish va u bilan yashash bosh g'oyadir. Ma'lumki, eposda xalq ideyasi u yoki bu davrning idealini aks ettiradi. Shunga ko'ra dostonning asosiy g'oyasini belgilaganda ham u yaratilgan davr ijtimoiy munosabatlaridan kelib chiqish kerak bo'ladi. Dostonda qadimgi Xorazm zaminida matriarxatning so'nishi va patriarxat tuzumi ijtimoiy munosabatlarining paydo bo'lishi, ana shu jarayon bilan bog'liq holda yakka er - xotinlik asosidagi yangi turdagi oilaning paydo bo'lishi davri o'z badiiy ifodasini topgan.

Dostonning syujet tizimini atroflicha tahlil qilishda uning an'anaviy motivlari haqida fikr yuritish, ularning doston syujet to'qimasidagi poetik o'rni va ahamiyatini belgilash muhim rol o'ynaydi. Dostonning ko'pchilik variantlari Shohabbos bilan Hasan vazirning ovga chiqishlari va bo'g'oz quyonga (1276 - inventar raqamli va Ro'zimbek Murodov variantlarida - bug'oz kiyik) duch kelib, yaxshi niyat bilan uni otmasliklarini bayon qilishdan boshlanadi. 6408 - inventar raqamli nusxa va Qodir sozchi, Ro'zimbek baxshi variantlarida podshoh bilan vazir uylarida qolgan homilador zaifalarini - xotinlarini o'ylab quyonna (kiyikni) otmaydilar. 1276, 541 - inventar raqamli toshbosma nusxalarida, Xudoybergan O'tagan o'g'i, Madraim baxshi va Tursun baxshidan yozib olingan variantlarda esa ular rahm qilib, ovni qo'yib yuborganligi qayd qilinadi. Binobarin, 6408 - inventar raqamli variantdagi talqinda tarixiy ruh ifodasida muayyan o'ziga xoslik bor. Negaki, ov motivida magik tasavvurlarning izlari saqlangan. Shunisi xarakterliki, qahramonlarning otalari ovga

chiqqanida ularga bo'g'oz jonivor uchrashi va yaxshi niyat bilan uni otmasdan qo'yib yuborish motivi "Alpomish" dostonining variantlari va ba'zi ertaklarda ham uchraydi.

O'g'il va qiz bolaning bir - biriga atashtirilib, ular tug'ilgunga qadar "beshik kerti" yoki "beshik kiritti" qilib qo'yilishi motivi ushbu dostonida ham mavjuddir. Dostonning 695 - inventar raqamli variantidan boshqa hamma variantlarida Shohabbos bilan Hasan vazir farzandlari tug'ilmasidan oldinroq qudag'aylik xususida "muhrlil tilxat yozishib" ahdlashganliklari bayon qilingan. Bu motiv tasviri Xudoybergan baxshi, Madraim baxshi va Robiya xalfa variantlarida badiiy jihatdan bo'sh talqin etilgan. Qodir sozchi, Ro'zimbek baxshi variantlari va 1276, 541, 1449, L.3686 - inventar raqamli variantlarda esa ancha mukammal tasvirlangan. 6406 - inventar raqamli variantda bu motiv shunday tasvirlanadi: "... Podsho aytdiki, agar mening zaifam o'g'il, seniki qiz tug'sa, quda bo'laylik, ...bir - biriga berishaylik, - dedi. Anda vazir o'z kamligini pesha qildi. Podsho mirzo devonni chorlab, lug'ati ahdnomayi xat bitib, qasamyod qildi".¹ Keltirganimiz parchadan ko'rinadiki, baxshi motivni feodal tuzumiga asoslangan hayotiy voqealar ta'sirida ishlagan. Natijada boshqa variantlardan farqli ravishda bu nusxada motiv o'zining qadimiyligini saqlab qolgan.

Bola baxshi" ... podsho va vazir o'z a'yonlari bilan ziyofatda o'tirganlarida qudag'aylik xususida ahdu paymon qilishdi " qabilida talqin qiladi. Tasvir juda qisqa berilgan.

Farzandsizlikdan shikoyat motivi ham qadimiy bo'lib, O'rta Osiyo xalqlari epik ijodiyotida keng tarqalgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li variantiga ko'ra, Shohabbos bilan Shohasan birgalikda Xudodan o'zlariga farzand tilashadi. Hali dunyoga kelmagan, yo'q o'g'il va qizning taqdirlarini "yuzlariga fотиha tortishib" hal qilishadi. Ahdlashuv ov paytida emas, saroyda bo'ladi. Mazkur tasvirlar Fozil Yo'ldosh o'g'li bu motivni "Alpomish" eposi ta'sirida ishlaganligini ko'rsatadi. Ammo bu dostonga qahramonlar otalarining farzandsizliklaridan shikoyat qilishlari, Ollohdan

o'zlariga farzand tilashlari detallariga o'tgan. Dostonning 695-inventar raqamli variantda ham bu motiv tushurib qoldirilgan.

Epik an'anaga ko'ra, qahramon va uning oldindan "belgilangan" yori bir kun, bir soatda tug'ilishi lozim. Yigit bilan qizga ism qo'yish ham mazkur an'ananing bir bo'lakchasi hisoblanadi. Kuzatishlardan ma'lumki "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlarida bu motivning ayrim elementlarigina saqlangan, xolos. Qodir sozchi, Xudoybergan baxshi, Madraim baxshi, Tursun baxshi, Bola baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlarida va 1276, 541-inventar raqamli nusxalar, Robiya xalfa varianti hamda Buxoro, Toshkent toshbosma variantlarida ovdan qaytgandan so'ng podshohning qiz, vazirning esa o'g'ilfarzand ko'rganligi faqat bir o'rindagina ko'rsatiladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li talqiniga ko'ra, vazirning o'g'li podshohning qizidan bir kun keyin tug'iladi. Farzandlarining nomlanishi Qodir baxshi, Bola baxshi, Xudoybergan baxshi, Tursun baxshi, Fozil shoir, Ro'zimbek baxshidan yozib olingan variantlarda va 1276, 541, 1449, L.710, L.3686-inventar raqamli nusxalarda bir-biriga o'xshash. Ya'ni Shohabbos qiziga Shohsanam, Hasan vazir o'g'liga o'zi musofirlikda yurganligi sababli G'arib deb ism qo'yganliklarini ma'lum qilishdangina iborat. Madraim baxshi variantida bu mazkur motiv diniy aqidaga bog'langan.

Farzandlarga ismni ota -ona yoki urug' boshlig'i, ko'pni ko'rgan kekxa kishi, patriarx ("Bamsi Bayraq"da Ko'rquqt ota) qo'yishi nisbatan qadimiydir. Ism qo'yishning diniy tus olishi qadimiy tasavvurni keyingi o'ringa surgan. Foliklorshunos V.I.Jirmunskiy "Alpomish" dostonidagi Alpomish bilan Barchinning tug'ilmasdan bir-biriga atalishi, ularning nomlanishi motivlariga dinning ta'sirini yetarlicha baholab, shunday yozgan edi:

"...Qahramonlarni atashtirishning diniy e'tiqot asosida ko'rinish berishi qahramon va uning "belgilangan" yori bir kun, bir soatda tug'ilishi kerak, degan qadimiy tasavvurni keyingi o'ringa suradi".¹

¹. Oshiq G'arib va Shohsanam. 6408 - inventar raqamli qo'zyozma variant, 3 - bet.

¹. Жирмунский В.М.Тюркский героический эпос. Л., 1974. С. - 306.

Fozil Yo'ldosh o'g'li variantidagi o'zgarish ham bu fikrni tasdiqlaydi. Robiya xalfa variantida farzandlarga ism qo'yilishi motivlashtirilmagan. 695-inventar raqamli variantda voqea yarmidan boshlanganligi sababli ushbu motiv uchramaydi.

Mazkur motivning 6408-inventar raqamli variantidagi o'ziga xos badiiy talqini avvalo, vazirning o'g'liga yig'ilgan ulamolar ism qo'yishi an'anasiga ko'ra, Shohnazar ismini qo'yganligini, keyinchalik Hasan vazir dunyodan o'tgach, uning ismi G'arib deb o'zgartirilganligining ifodalanganligida ko'zga tashlanadi.

Bolalarni o'qitish motivi ham o'zbek xalq eposiga xos syujet elementlaridan biridir. O'zbek xalq dostonlaridagi qadimiy an'ana bo'lg'usi qahramonni tarbiyalash ishi ota - onaning bola savodini chiqarish uchun g'amxo'rlik qilishdan boshlanadi. Folklorshunos olim T.H.Zafirov bu motivning qadimiyligini ta'kidlab: "... Bolalarni 4-5 yoshdan o'qishga berishadi. Bu motiv O'rta Osiyo xalqlari hayotida o'zining real asosiga ega: tarixchilarning yozishlariga qaraganda, O'rta Osiyoni arablar bosib olgunlariga qadar qadimgi zamonlardayoq yozuv bo'lgan. Bolalarni 5 yoshdan savodga, hisobga o'rgatganlar".¹ degandi. Ana shu holat tekshirayotganimiz mazkur dostonda ham o'zining badiiy ifodasini topgan.

Qodir sozchi, Bola baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li variantlari va 1449-inventar raqamli nusxada G'arib bilan Shohsanamni besh yoshidan, Xudoybergan baxshi, Madraim baxshi, Tursin baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlari va L.710, L.3686-inventar raqamli nusxalarda yetti yoshidan maktabga berilganligi bayon qilinadi. 6408, 1276, 541-inventar raqamli va Robiya xalfa qo'lidagi variantlarda esa, G'arib bilan Shohsanamning necha yoshidan maktabga berilganligi tasvirlanmagan. Ular maktabda Qodir sozchi talqiniga ko'ra, o'n besh yoshigacha, L.3686-inventar raqamli variantga ko'ra o'n to'rt yoshigacha o'qishadi. Boshqa variantlarda ularning necha yoshigacha maktabda o'qiganliklari izohlanmagan. Motivning ishlanishi jihatidan Qodir sozchi, Bola baxshi va Fozil Yo'ldosh o'g'li variantlaridagi bolalarning besh

yoshidan maktabga berilishi epik an'anaga tamomila mos keladi. Ularning yetti yoshidan o'qishga berilishi esa keyingi o'zgarishdir.

Bolalarni o'qitish motivi 6408-inventar raqamli variantda nisbatan kengroq ishlangan. Bu variantda tasvirlanishicha, Shohsanam 15 yoshga to'lgan, "bo'yi yetib qolgan"di. Endi u hunar o'rganishi lozim edi. Shu sababli Shohabbos qizini maktabga yubormaslikni xotiniga qattiq tayinlaydi. Bu holat doston maydonga kelgan davr uchun xarakterli jihatdir.

Dostonning 1276, 541, 695-inventar raqamli nusxalaridan boshqa variantlarining barchasida G'aribning qul bozorida sotilishi lavhasi motivlashtirilgan. Variantlarning hammasida ham ushbu motiv bir-biriga o'xshash holda tasvirlangan. Tasvirda motivning qadimiy talqiniga xos elementlar saqlangan. Chunki motivdagi G'aribning qul bozoriga chiqarilishi, ma'lum narxda baholanishi, Shohsanam tomonidan uning sotib olinishi kabi epizodlarning tarixiy ildizlari "Injil", "Tavrot" va Qur'on" kabi muqaddas kitoblarga, "naql qilingan" Yusuf va Zulayho" qissasidagi voqealar tasviriga borib taqaladi. Baxshilar Yusufning bozorda sotilishi, Zulayhoning uni vazni barobar tilloga sotib olishi va saroyda qul - xizmatkor qilib qo'yishi tasviri ta'sirida bu motivni ishlagan bo'lishlari mumkin. Negaki, bu doston xorazmlik qiroatxon - qissaxon xalfalar repertuarida hozirgi kunda ham saqlangan.

Ehtimol, doston shakillangan davrlarda bu motiv bo'lgan-u, matnni ko'chirish jarayonida xattotning xatosi bilan tushirib qoldirilgandir. Shuningdek, ushbu motivda Ozarbayjon versiyasi syujetining bevosita O'rta Osiyo bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi dalilga ham duch kelamiz. Ya'ni "oshiq" so'zi kuylovchi, oshiq-baxshi ekanligi ayrim variantlarda yaqqol tasvirlangan. Chunonchi, Qodir sozchi variantida tasvirlanishicha, Shohsanam sotuvchi kampirdan qulining bahosi nima uchun bu qadar qimmat ekanligini, uning qanday hunarlari borligini so'raganida, u: "Qulim sozanda, go'yanda,"- deb javob beradi (Qo'lyozma, 9-bet). Fozil Yo'ldosh talqiniga ko'ra, kampir: "Bu qulim sozanda, o'zi suxangar",- deb (Qolyozma, 147-bet), Ro'zimbek baxshi variantida esa: "Mening qulim sozanda, baxshi, oshuqdir",- (Qo'lyozma, 21-bet) deb javob beradi. Keltirilgan misollardanko'rinadiki, sozanda

¹ Zarifov H.T. "Alpomish eposining asosiy motivlari // Sharq yulduzi. 1957. 1 - son, B.- 130- 131.

- baxshilik G'aribning asosiy mashg'uloti. Ammo davrlar o'tishi bilan o'zbek, turkman va qoraqalpoq baxshilarining dostonni qayta ishlashlari tufayli G'aribning "oshiqligi, sozandaligi ham "o'zgarishga" uchragan. Ya'ni "oshiq" so'zi o'zining asl ma'nosini yo'qotgan. Ozarbayjon baxshilari esa so'zning o'z ma'nosini hozirgacha saqlab kelganlar. Darvoqe, A.N.Samoylovich "oshiq" aslida umumturkiy so'z bo'lsa-da, O'rta Osiyo xalqlari orasida ozarbayjon, turk tillaridagi kabi keng ma'no ifodalanmasligini, uning o'rniga "baxshi", "oqin" so'zlari ko'proq ishlatilishini qayd qilgan edi.¹

Qahramonning yetti yil o'zga yurtlarda darbadar keziishi motivi ko'p xalqlarning eposida uchraydigan qadimiy motivdir.

6408-inventar raqamli variantga ko'ra, Suvchi (Larzon) kanizakning chaqimchiligi oqibatida G'aribga o'lim xavfi tug'iladi. Chorasiz qolgan G'arib qirq kunga Shomoq shahriga ketishga majbur bo'ladi. Aqcha kaniz yordamida chorboqqa qaytib, endi yetti yilga Halabga ketadi. Shohsanam bilan Shovaladning to'yi bo'layotganligi haqidagi xabarni unga Azbarxo'ja yetkazganidan keyin u Diyorbakirga qaytadi. Dostonning 1276,695, 541-inventar raqamli variantlari, Robiya xalfa nusxasi va Ro'zimbek baxshi variantida ham motiv ozmi-ko'pmi o'zgarishlar bilan 6408-inventar raqamli variantidagidek ishlangan. Lekin bu variantlardagi tasvirning badiiy jihatdan bo'shligi seziladi. Qodir sozchi, Bola baxshi, Xudoybergan baxshi, Madraim baxshi, Tursun baxshi variantlari va 1449, L.710, L.3686-inventar raqamli variantlar ham, asosan, mazmun saqlangan holda tasvir juda siqiq tarzda berilgan.

Ko'rinadiki, dostonlarning o'zbek variantlari hamda turkman, qoraqalpoq variantlaridagi asosiy motivlardan biri-sevishganlarning yetti yillik ayrilig'i yetakchi badiiy talqin sifatida motivlashtirilmagan. Chunki bu motivning yuqorida keltirilgan variantlardagi tasviri syujetning umumiy rivojlanishi va asosiy konflikt bilan mantiqan bog'lanmagan. Ya'ni doston variantlarida tasvirlanishicha Shohabbos yetim, kambag'al bo'lib qolgan G'aribga qizini bermaslikka qaror qiladi. Uning oldiga hech qanday

shart ham qo'ymaydi. Shuning uchun Shohsanam bilan G'aribning aynan yetti yilga shartlashib ajralishlari, G'aribning Diyorbakirdan chiqib ketib, faqat yetti yil to'lgandagina qaytib kelishi tinglovchiga tushunarli emas.

Chorasiz qolgan qahramonga Xizirning duch kelishi va uning mushkulini oson qilishi xalq dostonlariga xos an'anaviy motiv. Professor M.Saidov Xizr O'rta Osiyo xalqlarining islomdan avvalgi e'tiqodiy qarashlari asosida yaratilgan obraz ekanligini ko'rsatadi.¹ Folklorshunos S.Shodiyevaning ilmiy tadqiqotlarida ham shunga yaqin fikr uchraydi. Bu motiv dostonning 6408, 1.3686, 1.710-inventar raqamli nusxalari. Robiya xalfa qo'lidagi nusxada va Qodir sozchi, Ro'zimbek baxshi variantlarida mavjuddir. 6408-inventar raqamli variantda tasvirlanishicha, "G'arib yurib borur edi, Hazrati Xizr uchrab, otiga mindirib, ko'zingni yum- dedi. G'arib ko'zini yumdi. Ko'zingni och,- dedi, ko'zini ochdi, Shohsanamning ko'shagini ko'rdi. Duldulning izidan bir siqim tuproq ol,- dedi...." (Qo'lyozma, 56-bet). Robiya xalfa variantida: "Hazrati Xizr Shohsanamning to'yi bo'layotganini eshitgan edi. Shuning uchun u G'aribga o'zining Duldulini berdi. G'arib Duldul bilan bir zumda manzilga yetdi... Yo'lda Duldulning oyoq izidan tuproq oldi." (Qo'lyozma, 19-bet), tarzida tasvirlanadi.

Keltirilgan tasvir Robiya xalfa variantida an'anaviy motiv o'zgartirilib, qaytadan ishlanganligini ko'rsatadi. Qodir sozchi variantida Karbalo cho'lida "horib-charchab" kelayotgan G'aribga Xizrning yo'liqishi, uni otiga mindirib, bir zumda Diyorbakirga keltirib qo'yganligi talqin qilinadi. Ammo uning oti izidan G'aribga bir siqim shifobaxsh tuproq berishi detali tushurib qoldirilgan. L.3686, L.710-inventar raqamli toshbosma variantlar va Ro'zimbek baxshi variantida bir- biriga o'xshash: "...Qo'ng'ir o'tli izidan yetib: "Otga min-dedi... otdan tush,- dedi. G'arib otdan tushdi. - Ey G'arib, bilgil, men Shohimardon bo'larman. Yetti yildan beri onang va singling yig'lay-yig'lay ko'zlari ko'r bo'libdi... tuproqni onang va singling ko'zlariga surtsang, inshoolloh, ochilur,- dedi" (Qo'lyozma, 180-181- betlar) tarzida tasvirlangan. Bu variantlardagi tasvir ham keying davrlarda "yangi detallar"

¹ Самойлович А. Н. Очерки по истории туркменской литературы. Туркменистан, Том I. 1928. С.-131.

¹. Saidov M.O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat T., 1969.B.- 114.

bilan kengaytirilgan, albatta. Bu – qadimiy motivning boshqa variantlarga nisbatan 6408- inventar raqamli variantda ancha keng ishlanganligini ko'rsatadi.

Eposda muhim o'rinni G'aribning yetti yillik sargardonlikdan keyin o'z qiyofasini o'zgartirgan holda to'yxonada bo'lishi motivi tashkil etadi. V.M.Jirmunskiyning yozishicha, "Erning o'z xotini to'yi ustiga kelishi haqidagi syujetning fransuz, nemis, ingliz, ispan, italyan, skandinav, rus, slavyan, venger, rumin, grek kabi xalqlarda o'nlab mustaqil versiyalari ma'lumdir¹. Qahramonning o'z xotini to'yi ustiga kelishi haqidagi motiv "Ko'rquq ota kitobi"da hamuchraydi². V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar buning "Alpomish" eposidagi motivga o'xshaganligini ham qayd qiladilar.³Ularda qahramonlarning qo'shig'i uning o'zini tanitishda asosiy vosita hisoblanadi.Chunki qahramon ana shunday sir tutish orqali o'z atrofidagi kishilarni sinaydi.

G'aribning " kal-sozanda" qiyofasida to'yxonada paydo bo'lishi Bola baxshi talqinida o'ziga xos boy badiiylik kasb etgan; "...Yigitlar go'rishmakka qo'l uzatgan vaqtda G'aribning onasinnan olib galgan dutori qo'ltig'innan ko'rinib getdi. Yigitlarning vaxti xush bo'lib, darrov uning alinnan tutib, ko'shkning teyina olib chiqdilar... G'arib daryodin doshib, qaynab-jo'shib, bor kuchini bir atib, ko'shkka qarab yurdi..." (Qo'lyozma,10-bet).

Folklorshunos S.Z.Yoqubova bu baxshi repertuaridagi to'y tasvirini dostonning paydo bo'lish davri bilan bog'laydi.⁴ Darhaqiqat, Bola baxshi variantiva boshqa nusxalardagi shunday tasvirlar sozandalik-qo'shiqchilik G'aribning asosiy mashg'uloti bo'lganligini isbotlaydi. 6408-inventar raqamli variantda qadimiy motiv – G'aribning qo'shiq kuylashi voqealari muhim o'rin tutgan:

G'arib:

Necha yillar gazdim sargardon bo'lib,
Har marda, nomarda sirim bildirib.
Muroda yetganim dushimda ko'rib,
Mavlon qo'linnan tutdim-da, galdim...-
(Qo'lyozma, 57-bet)

¹ Жирмунский В.М. Сказание об Алпамыше и богатырская сказка. С. – 170.

² Книга моего деда Коркута. М.- Л. С.- 32 – 49.

³ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947, С.- 72.

⁴ Якубова С.Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб», Баку, 1968, С.-104.

deya kuylagach, Shohsanam uning G'arib ekanligini taniydi va ko'shkdan o'zini uning ustiga tashlaydi.

Ro'zimbek baxshi variantida ham bu motiv keng, badiiy jihatdan ancha mukammal ishlangan.

G'arib:

G'arib aytur, ishq o'tina yonmisham,
Azob-u, do'zaxi, dor manga naylar...

(Qo'lyozma, 200-bet) -

qo'shig'ini aytarkan, to'yxonadagi barcha mehnatkash xalq G'aribni o'rab oladi va uni osish uchun tayyorlangan dorni ag'darib yuborishadi. Xalq Shohsanamni G'aribga berishini Shohabbosdan qattiq turib talab qilishadi.

6408, 1276, 541, 1449, L.710, L.3686-inventar raqamli variantlar va Robiya xalfa hamda Qodir baxshi variantlarida ham G'aribning qo'shiq kuylashi motivi badiiy jihatdan pishiq, lekin ancha qisqa ishlangan, ayrim detallar tushurib qoldirilgan. Xudoybergan baxshi, Tursun baxshilardan yozib olingan variantlarda va 695-inventar raqamli nusxada voqea tugatilmaganligi sababli ushbu motiv ham ishlanmagan.

Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida bu motiv badiiy jihatdan qanchalik mukammal ishlanganligidan qat'iy nazar, baxshi mansub dostonchilik maktabi an'anasi ta'siri yaqqol seziladi. Folklorshunos T.Mirzayev dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li repertuariga kirib qolganligini Bulung'ur dostonchilik maktabi an'analari bo'lmagan yakka hodisa ekanligini ta'kidlab: "Oshiq G'arib" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li epik repertuariga kirishi uning ustozlari, ya'ni Bulung'ur dostonchilik maktabi an'analari bilan bog'liq emas. Har holda Fozil Yo'ldosh o'g'i uni inqilobgacha nashr qilingan variantlardan o'qitib o'rgangan bo'lishi kerak,¹- degan edi. Bu - to'g'ri fikr. Unga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, baxshi dostonni o'zi kuylab kelgan qahramonlik dostonlari ta'sirida qayta ishlagan, shubhasiz.

Doston matnlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ular epos syujetining tarkibiy qismi sifatida bir-birlari bilan mahkam bog'langan. Tarixiy- iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy munosabatlari

¹ Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. T., 1979.B.- 49.

natijasida doston syujetini tashkil etuvchi motivlar silsilasi hamisha rivojlanib, ba'zan esa ayrim uzvlarini yo'qotib, yangilanib boravergan. Bola baxshi va Fozil Yo'ldosh o'g'li variantlaridan boshqa hamma variantlarda mavjud hukmdorlarning oldidan bo'g'oz quyon yoki kiyikning chiqishi, 1276- inventar raqamli variantdagi Halabdan kelayotgan G'aribningg oldiga Shohsanam qiyofasidagi Shayton chiqishi kabi motivlar esa bevosita xalq ertaklaridan o'tgan. Dostonning barcha variantlarida uning asosiy motivlari xalqchil. Ular monogam oilaviy munosabat- bir ayolni sevish, birgina ayol bilan umrguzaronlik qilish g'oyasini har jihatdan sifatlab beradi. Doston variantlarida bir motivning turlicha shakllari aks etganligi va har xil talqin qilinganligiga qaramay, ularning mazmuni umumiy va yagonadir.

Demak, hozirgi kunga kelib epos variantlarida uning asosiy motivlari bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa-da, ular doston shakllangan dastlabki davrlarda bunchalik xilma-xil bo'lmagan. Balki mazkur motivlar bir-biriga juda yaqin bo'lgandir.

1.4. Doston genezisi masalasi

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoniga asos bo'lgan epik syujet juda qadimiy bo'lib, jahon xalqlari orasida nihoyatda keng tarqalgan. Hatto Homerning "Odissey" asaridagi Odisseyning uzoq muddatli darbadarlikdan keyin vataniga qaytishi, o'z xotining raqibi bilan bo'layotgan nikoh to'yiga qiyofasini o'zgartirgan holda kirib kelishi epizodlari ushbu dostondagidek tasvirlangan. Turkiy xalqlarning mushtarak merosi bo'lgan "Ko'rqu" ota kitobi¹da mavjud qahramonning o'z xotini to'yi ustiga kelishi motivining bu doston syujeti yaratilishida muhim rol o'ynaganligi shubhasizdir. Bunga Bamsi Bayraq va Bonucheckak sarguzashtlari bilan G'arib va Shohsanam sarguzashtlari qiyos qilinganda to'la ishonch hosil qilish mumkin¹

Bonucheckak Bamsi Bayraqqa beshikdaligidayoq unashtirilgan edi. G'aribning otasi Hasan vazir va Shohsanamning otasi Shohabboslar ham farzandlari tug'ilmasidanoq, ularning

bo'lajak to'ylari haqida o'zaro kelishib qo'yishadi. Bamsi Bayraq o'n oltiyil davomida o'z yoridan ayriliqda yuradi. G'arib ham yetti yil darbadarlikda kezadi. Bayraq o'z eliga qaytib singlisiga, ko'r bo'lib qolgan otasiga uchrashadi va o'zini tanitmay, Bonucheckakning to'yiga oshiqadi. To'yda turli musobaqalarda qatnashadi. G'arib faoliyatida ham xuddi shunday epizodlar uchraydi. Yalangchi Yartachuq Bayraqni o'ldi deb, uning qonga bo'yalgan ko'ylagini Bonucheckakka keltiradi. Bu epizod „Oshiq G'arib“ning ozarbayjon versiyasida mavjud. Har ikkala syujetda ham oshiq-ma'shuqlar bir-birining visoliga yetishadilar.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, dostonning turkman va qoraqalpoq versiyalari hajman hamda voqealarning rivojlanishi jihatdan bir-biriga o'xshash keladi. Turkman versiyasida fantastika ancha kuchli.¹ Qoraqalpoq versiyasida turkman versiyasida bo'lmagan "Nomard bo'lib quvaladi yor mani" (61-bet), "O'zin-o'zi ajab behol etibdur" (88-bet) kabi she'riy parchalar mavjud. Shuningdek, bu versiyadagi Shohsanamning kanizagi Oyjamol va uning sevgilisi Oybekning fojeali taqdirini tasvirlovchi epizod ham turkman versiyasida uchramaydi. O'zbek versiyasida esa bu epizoddan faqat bitta detal - Oyjamolning Shohsanamga "ko'ngil berish uchun" aytgan monologidagina mavjud.

Turkman versiyasining oxiri sahifalarida noma'lum qalandar obrazi tasvirlanadi. U G'aribning onasi - Ovodon kampirning ko'zini davolab, uni ochadi, ularga moddiy yordam beradi. G'aribga Hasan vazir shajarasi haqida so'zlab beradi. Bu epizod qoraqalpoq versiyasida yo'q, ammo o'zbek variantlaridan Robiya xalfa qo'lidagi nusxada juda siqiq holda, toshbosma variantlarida esa ancha keng tasvirlanadi. Qoraqalpoq versiyasi yakunida hamda M.Yu.Lermontovning "Oshiq G'arib" ertagida G'arib o'z singlisini Shovaladga baxsh etadi. Bu tasvir o'zbek versiyasining faqat 1276, L.719-inventar raqamli variantlaridagina mavjud bo'lib, turkman versiyasida esa uchramaydi.

Voqealarning rivoji, syujetning badiiy ko'lam va hajmi jihatidan ozarbayjon versiyasi turkman hamda qoraqalpoq

¹ Книга моего деда Коркута. М.- Л. С.- 32 - 49; Korqut ota kitobi. Koni Bo'ra bek o'g'li Bamsi Bayraq dastanini bayan etar, xonim ey hikoyati. // Yoshlik. 1988, 5 - son, B.- 47 - 53.

¹Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947, С.- 72

versiyalaridan ancha farq qiladi. Doston podshoh bilan vazirning ovga chiqishi epizodi tasviridan boshlanmaydi. Balki tabrizlik Mamad savdogarning o'g'illari Rasul, Haydar va qizi Nargizga yaxshi tarbiya berganligi, uning to'satdan kasallanishi va vafot qilishi tasviridan boshlanadi. Otasi vafotidan keyin Rasulning azamatam marosimlarini o'tkazishi, bir guruh qimorbozlarning uni aldab barcha puli, boyligini yutib olganligi, bir kechada ularningg'oyib bo'lishi, uning tirikchilik mashaqqatlariga duch kelishi, tushida tiflislik Xo'ja San'onning qizi Shohsanamni ko'rishi, uni topish uchun onasi, ukasi va singlisini olib, Tiflisga kelishi, bu yerda musofir, kambag'al bo'lganligi sababli uni G'arib deb atay boshlashlari epizodlari faqat ozarbayjon versiyasidagina mavjud. Tasvirlanishicha, G'arib Tiflisda Gulo'g'lon oshiq bilan musobaqalashib, uni yengadi. G'aribning jozibador qo'shig'idan ruhlangan qahvaxona egasi Dali Mahmud uni Xo'ja San'onning uyiga olib boradi. G'arib shu kechasi xo'ja San'onning mehmoni bo'ladi va Aqcha kaniz yordamida Shohsanam bilan uchrashadi. G'arib bilan Shohsanam shu yerda o'zaro ahdu paymon qilishadi. Ertasiga G'aribning onasi va Dali Mahmud sovchilikka borishganda esa, xo'ja San'on katta miqdorda qalin puli talab qiladi. Bir kuni G'arib Shohsanam bilan yashirincha uchrashib, yetti yilga Rum shahriga ketib, Xo'ja San'on talab qilgan pulni ishlab topib kelishini aytadi. Shohsanam uni kutishga va'da beradi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Shohsanam ammasining o'g'li Shovaladga unashtiriladi.

G'arib Tiflisdan chiqqach, Halab shahriga yetib keladi va u yerda qo'shiq kuylab yuradi. G'aribning Tiflisdan chiqib ketganligidan xabardor bo'lgan Shovalad Gulo'g'longa pul berib, uni o'ldirib, ko'ylagini olib kelishni buyuradi. Gulo'g'lon bir uloqning qulog'ini kesib, o'z ko'ylagini uning qoniga bulg'ab, G'aribning onasiga keltirib beradi. Shu paytda G'aribning ketganiga olti yarim yil to'lgan edi. Shovalad to'y taraddudini ko'ra boshlaydi. Shohsanam esa bu xabarni G'aribga yetkazish uchun Ahmad Bozirconni yuboradi. Bozirconning G'aribni topishi, Shohsanamning xabarini unga yetkazish epizodlari turkman va qoraqalpoq versiyalaridagidek tasvirlangan. G'aribning Halab podshosi baxshisini yengishi, podshohning unga pul, ot hadya

qilishi epizodlari 1276-inventar raqamli o'zbek qo'lyozma variantidagidek tasvirlangan. Lekin bu variantda podshohning ot sovg'a qilishi detailuchramaydi. Shohsanam oldiga shoshgan G'aribning oti o'lib, u cho'lu biyobonda yolgiz qoladi. Keyingi epizodlar turkman, o'zbek va qoraqalpoq versiyalaridagidek tasvirlangan.

Shunisi xarakterliki, Bola baxshi variantining nasriy qismi ham, she'riy qismi ham ozarbayjon versiyasiga, bu versiyada bosh qahramon faoliyatining ishlanishi esa N.Muravyev keltirgan afsonaga juda yaqin turadi. N.Muravyev afsonasi va ozarbayjon versiyasidagi tasvirga ko'ra G'arib-qo'shiq kuylovchi oshiq-baxshi.¹ Bola baxshi va boshqa o'zbek variantlarida bu ikkinchi o'ringa tushirilgan. G'aribning ijtimoiy kelib chiqishi afsona va versiyalarda o'zaro o'xshash tasvirlangan. Ya'ni u - kambag'al, moddiy tomondan ta'minlanmagan nochor shaxs. Shohsanam obrazining ijtimoiy mohiyati ham afsona va epos variantlarida mushtarak talqinga ega. Farq - Shohsanamning otasi ozarbayjon versiyasida xo'ja San'on deb tasvirlanishida, N.Muravyev afsonasiga ko'ra, G'aribni yetti yillik darbadarlikka sinov tariqasida Shohsanamning o'zi yuboradi. Ozarbayjon versiyasida ishlab pul topish maqsadida, Bola baxshi variantida Sovaladdan sovchi kelganligini eshitib, xafa bo'lganligi sababli, boshqa variantlarda podshohning tazyiqidan qochib ketadi. Afsonaga ko'ra, G'arib kelmasdan uch oy oldin Shohsanamni johil otasi uning roziligisiz qo'shni boyga xotinlikka beradi. G'arib yuzlariga qora chaplab, hech kim tanimaydigan qiyofada Shohsanamning chodiriga boradi va o'z sevgi qissasini kuylab beradi. Qo'shig'i mazmunidan tanib olgan Shohsanam uning bag'riga o'zini otadi. Shohsanamni G'aribga qaytarib berishga majbur bo'lishadi Dostonning hamma versiyalarida G'arib Shohsanamning to'yi ustiga keladi. Podshoh xalqning noroziligidan qo'rqib, qizini G'aribga xotinlikka berishga majbur bo'ladi.

Xalq dostonlari uzoq asrlar davomida yashab ijtimoiy muhit ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchrab boradi, albatta. Ana shu jihatdan qaraganda, turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan "Oshiq

¹ Муравьев Н.В. Путешествие в Туркмению и Хмву. М., 1822.С. - 99- 101.

G'arib va Shohsanam" dostoni mazmuni o'sha paytda sharqshunos N.Muravev keltirgan afsonadagidek, ya'ni G'aribni darbadarlikka sinov tariqasida Shohsanamning o'zi yuborgani va G'arib kelmasidan uch oy oldin Shohabbos qizini majburlab, qo'shnisi boy- badavlat kishiga xotinlikka berganligi, to'yga yetib kelgan G'aribning yuzlariga qora kuya chaplab, sevgilisi chodiriga borib, o'zini tanitish uchun qo'shiq kuylagani tarzida bo'lib, hozirgi mazmuni keyingi davrlar o'zgarishi bo'lishi mumkin. N.Muravev tasvirlagan syujet dostonning tarixan chuqur ildizga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ozarbayjon folklorshunosi S.Yoqubova dostonning ilk syujeti Markaziy Osiyoda emas, Kavkaz va Kichik Osiyoda paydo bo'lganligi haqidagi fikrni ilgari surar ekan, olim uni shunday dalillashga intiladi. Dostonning Stavropol turkmanlaridan yozib olingan varianti bosh qahramon tasviri va hajmi jihatidan Markaziy Osiyo turkman versiyasiga emas, balki ozarbayjon versiyasiga yaqin turishini ta'kidlaydi. Buni o'z fikrini isbotlovchi dalillardan biri, deb hisoblaydi. Shuningdek, Ozarbayjonda Shamoxa, Turkiyada Diyorbakir, Suriyada Halab singari joy nomlari uchrashi, G'aribning Halab shahridan o'z vataniga qaytishi tasvirlangan epizodlarni keltirish bilan dostonning asosiy mag'zi Kavkazda ekanligini isbotlashga urinadi¹. Holbuki, olim bu o'lkalarda tarqalgan "Oshiq G'arib" dostonida qayd qilingan joy nomlari bilan birgalikda, Tabriz, Tiflis, Arzurum kabi toponimlari mavjudligini esa nazardan soqit qiladi.

M.Yu.Lermontovning "Oshiq G'arib" ertagini ilmiy jihatdan o'rgangan S.A.Andreev-Krivich va "Shohsanam va G'arib" nomli turkman xalq dostonini ilmiy tadqiq etgan X.G.Ko'ro'g'li dostonning dastlabki ildizini O'rta Osiyo bilan aloqador deb hisoblaydilar.²

X.G.Ko'ro'g'lining ilmiy kuzatishlariga qaraganda, mazkur dostonning Kavkaz va Kichik Osiyoda tarqalgan variantlari o'zida turkman versiyasiga xos epik xususiyatlarni saqlagan. Tilshunos olim A.Ishaev ham "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining kelib

chiqishini Markaziy Osiyo etnik muhiti bilan bog'laydi³. Bu qarash va xulosalarning haqiqatga qay darajada yaqinligi uzoq o'tmishdagi tarixiy-ijtimoiy voqealar bag'ridadir.

Ma'lumki, Xorazm vohasi aholisining etnik tarkibi bir xil emas. Hudud aholisining uzoq migratsion jarayonni boshidan kechirganligi ko'plab manbalarda o'z ifodasini topgan⁴.

Darvoqe, N.V.Muravyev Xorazm aholisining etnik tarkibi haqida so'z yuritib: "Sartlar bu o'lkaning qadimiy istiqomat qiluvchilari"- deb yozadi⁵. "Sartlar - qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining yuksak dehqonchilik madaniyatini o'zida tashigan vohadagi eroniy tilli aholining qadimgi avlodlaridan iborat"⁶ - deya ta'kidlaydi K.L. Zadixina. Qadimshunos C.G. Tolstovning fikricha: "Xorazm tili so'g'd tiliga qarindosh bo'lib, hozirgi osetin tiliga juda yaqin"⁷.

Xorazm vohasiga turkiy xalqlarning kelib o'rnasha boshlashi milodning dastlabki yillariga to'g'ri kelsa-da, tub aholi bilan ularning faol aralashuvi jarayoni, asosan, X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Abu Rayxon Beruniyning ma'lumot berishicha, "Xorazm podshohlari o'z chegaralaridan o'g'uz turklarini quvar va mamlakatlari atrofini ulardan himoya qilar edilar.⁸ Eramizning XI asrida (1034-yilda) Xorazmshoh Xorun o'g'uzlarga Xorazmda o'rnashishga ijozat berganida, ularning yerlarini G'ovxura anhuri boylab belgilaydi⁹. O'g'uz turklarining eron tilli aholi bilan chatishuvining kuchayishi mahalliy aholi tilining turkiylashish

¹ Ishaev A. Shohsanamning vatani qayer? // Fanvaturmush, 1971, 2- son. B. 26-27.

² Qarag: Muravyev N.V. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 - 1820 годах. - М., 1822. С. 85; Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. СПб., 1887; Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. Л., 1925; Материалы по истории туркмен и Туркмени. Том II. М., 1938; Толстов С.П. Древний Хорезм. Изд. МГУ, 1948; уапа По следам древне хорезмской цивилизации. М.; - Л., 1948; Задыкина К.Л. Узбеки дельты Амудары. // Материалы Хорезмской археолого - этнографической экспедиции. М., 1952; Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верования и обрядов у узбеков Хорезма. - М., 1969; Еремеев Д.С. Этногенез турок. М., 1976; Сазонова В.М. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. Л., 1978; Толстова Л.С. Вопросы ранней этнической истории народов Приаралья. Нукус, 1984; Бунятон - В.М. Государство Хорезмшахов-ануштегинидов. М., 1986; Неразник Е.Е. Об этнических процессах. Т., 1986.

³ Muravyev N.V. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 - 1820 годах. - М., 1822. С. 85.

⁴ Задыкина К.Л. Узбеки дельты Амудары. // Материалы Хорезмской археолого - этнографической экспедиции. М., 1952. С. 147.

⁵ Толстов С.П. Материалы Хорезмской археолого - этнографической экспедиции. М., 1945 - 1948. 1952. С. 44.

⁶ Beruniy A. Tanlangan asarlar. I tom. 1968, B. 281.

⁷ Неразник Е.Е. Об этнических процессах в раннесредневековом и средневековом Хорезме. // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. Т.; 1986. С. 43

¹ Якубова С. Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб», Баку, 1968, С. 104

² Андреев - Кривич С.А. Лермонтов М.Ю. Вопросы творчества и биографии. М. 1955, с. 21; Куругли Х.Г. «Шахсенем и Гарип- народный дастан. К.Д., М. 1955, с. 120.

qaramay, bunday xulosa chiqarishga monelik qiladigan, S.Z.Yoqubovaning qarashlarini asoslashga xizmat qiladigan ayrim dalillar ham doston matnida mavjud. Dostonning mavjud qo'lyozma nusxalarida va Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov variantlarida to'yxonaga kirib kelgan G'arib tilidan kuylangan qo'shiqda:

Halabdan chiqmusham namozdin erta,

Karbalo cho'linnan kechdim gunorta...

(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 21 - bet, Ro'zimbek baxshi varianti, qo'lyozma, 191-bet) kabi misralar uchraydi. Bunda G'arib o'zining uzoq o'lkalardan, Karbalo cho'lidan qisqa vaqt ichida o'tib olganligini va to'yga yetib kelganligini bayon qiladi. Ma'lumki, Karbalo - joy nomi, Iroq hududiga tegishlidir. S.Yoqubova buni Bola baxshi variantida mavjud, deb noto'g'ri izoh bergan, aslida esa bu Ro'zimbek baxshi varianti va turkman versiyasida mavjud.

G'arib-ashiq ichib jami,

Gezdi Xalap, Rumi, Shami ¹.

Yuqorida keltirilgan she'riy parchada yetti yildan so'ng uyiga kirib kelgan G'arib o'zining ishq savdosida Halab, Rum va Shomni kezganligini bayon qilayotur. Matnda tilga olinayotgan joy nomlari Suriya va Kichik Osiyoga daxldordir.

Dostonning qo'lyozma va toshbosma variantlarida tasvirlanishicha, Boboxon shotir Shohsanamni Shirvonga deb, Ozarbayjon hududidagi Qozoq shahriga olib boradi. Haqiqatdan ham, Ozarbayjon hududidagi Qozoq shahriga qarama-qarshi yo'nalishda Shirvon shahri joylashgan. Bu xildagi joy nomlari doston mag'zini ozarbayjon, Suriya va Iroqqa aloqador qilib qo'yayotgandek tuyuladi. Zero, bunday toponimik o'zgarishlarning asl sababi migratsion jarayonlar bilan bog'liq voqealar bag'ridadir.

Keltirilgan dalillarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, doston syujetining mag'zi IX-X asrlarda Sirdaryo bo'ylarida yuzaga kelgan. O'g'uz turklarining Xorazm vohasiga kelib o'rnashishi natijasida doston syujeti ham ko'chgan va XIII asrning oxirlarida to'la-to'kis shakllangan. Yuqorida eslatganimiz, doston syujeti aynan ana shu etnogenetik jarayonlar natijasida,

¹. Shasanam - Garip .Ashgabat, 1955. B.- 172.

ya'ni XII asrda S.Z.Yoqubova ta'kidlagani Ozarbayjon hududida yuzaga kelgan. Bu allaqachonlar shakllanib ulgurgan dostonning genetik asoslanish vaqti bo'lmay, balki tayyor syujetning ko'chishi va mahalliy aholi turmush tarziga singishgan holda yangicha talqinlar hisobiga to'lishuvi hodisasidir.

Binobarin, murakkab etnogenetik jarayonlar mahsuli bo'lgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni uzoq asrlar davomida o'g'uz qabilalariga mansub xalq vakillari bilan birga yashagan, birga tarqalgan. Ular yashagan o'lkaning ijtimoiy - estetik mohiyatiga uzviy bog'liq holda sayqallanib, yangi-yangi variantlarda kuylanib kelingan.

Pirovardida, dostonda asrlar davomida erkin muhabbat, sofdillik, kuchli iroda, maqsad yo'lida har qanday to'siqdan chekinmaslik kabi insoniy fazilatlar madh qilib kelingan.

II BOB. "OSHIQ G'ARIBVA SHOHSANAM" DOSTONINING BADIYATI

Doston folklor janrlari orasida eng yirik va murakkab tuzilishga ega janr hisoblanadi. Ma'lumki, o'zbek xalqi epik ijodiyotining turli masalalariga oid qator tadqiqotlar yuzaga kelgan. Ushbu tadqiqotlarning bir qismi dostonlarning badiiy xususiyatlarini o'rganishga ba'g'ishlangan, ya'ni ularda kompozitsiya va syujet, obrazlar tizimi, badiiy tili, an'anaviy formulalar, badiiy tasvir vositalari, konflikt kabi masalalar tadqiq qilingan. Biroq, asosan, Xorazm viloyati, Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlari, Turkmaniston respublikasining Chorjo'y va Toshhovuz viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston respublikasi hududida yashovchi o'zbeklar orasida qo'lyozma, toshbosma usulida keng tarqalgan, baxshilar, sozanda - xalfalar, qissaxon - qiroatxon xalfalar repertuaridan joy olgan, qadimiy syujetga ega bo'lgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining badiiyati xususida esa O.Madaevning nomzodlik¹ va S.Ro'zimboevning doktorlik dissetasiyalarida² yo'l-yo'lakay aytilgan ayrim fikrlarni mustasno qilganda, keng ko'lamli biror tadqiqot amalga oshirilmagan.

Albatta, dostonidagi ixcham kompozitsiya va an'anaviy formulalarning umumo'zbek eposidan ma'lum darajada farqlanib, ozarbayjon va turkman dostonlariga yaqin kelishi, matnda mumtoz adabiyotga xos she'riy janrlarning ko'plab qo'llanilishi, she'riy parchalarning tuzilishidagi o'ziga xoslikning sabablarini aniqlash maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Ana shu xususiyatlarni ochishda badiiyatini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

2.1. Doston kompozitsiyasi va obrazlar tizimi

Badiiy asarning shakl va mazmun jihatdan mutanosib chiqishi uchun uning kompozitsiyasi ham maqsadga muvofiq holda ishlanishi lozim.

¹. Madaev O. Xorazm dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nomzodlikdiss.T., 1973.

². Ro'zimboev S. Xorazm xalq dostonlarining spetsifikatsiya, tipologiyasi va poetikasi. Dokt.diss. T., 1990. B.-289.

Asarning tili, obrazlar tizimi, kompozitsiyasi - bu shunchaki maqsad uchun xizmat qilmaydi. Bularning barchasi ma'lum mazmunni ifodalovchi shaklning elementlari bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, "... asar kompozitsiyasini hosil qiluvchi bir necha komponentlar (uzvlar) mavjud bo'lib, ular - obrazlar portreti, ichki kechinmalar xarakteristikasi, dialog, monolog, o'rin - joy tasviri kabilardan iborat"¹ Ammo bu uzvlarni shunchaki alohida - alohida tasavvur qilish mumkin emas. Ularning hammasi ma'lum bir maqsadga - qahramon xarakterini namoyon qilish maqsadiga qaratilgan bo'ladi. Bulardan tashqari, doston kompozitsiyasiga juda katta ta'sir ko'rsatadigan omillardan yana biri - she'riy va nasriy parchalarning o'zaro munosabati, doston boshlanmasi (zachin) va tugallanmasi masalasidir.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining asosiy mazmunini boshqa xalqlar epik ijodiyotidagi singari, asosan, sevgi - muhabbat sarguzashtlaridan iborat voqealar silsilasi tashkil etadi. Bu voqealar so'z san'atining barcha vositalari negizida, ixcham kompozitsiyada o'z ifodasini topadi. Professor S.Ro'zimboev ko'p yillik kuzatishlariga tayanib: "Nasriy qismning kamayishi hisobiga she'riy parchalarning salmog'i oshishi, she'riy parchalar musiqa taqozosi bilan qat'iy poetik shakllar asosiga qurilganligi, obrazlarning psixologik kechinmalari, asosan, voqealar so'z san'atining barcha vositalari negizida she'riy parchalarga singdirib yuborilganligi Xorazm dostonlari kompozitsiyasining soddalashuvi, ixchamlashuvi va hajman qisqarishiga olib kelgan²ligini uqtirib o'tadi. Chunki, Xorazm dostonlarini ilmiy tadqiq qilgan folklorshunos O.Madaev "dostonning hajm jihatdan torligi baxshini xalq ijodidagi improvizatsiyadan holi qilib qo'yishi"³ni ta'kidlab, buning asl sababini ochib bera olmagan edi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining ekspozitsiyasi boshqa o'zbek dostonlarinikidan ko'p farq qilmaydi. Bu doston ham voqelik vaqti ta'rifi va o'rni, qahramonlarning shajarasini ko'rsatishdan: "Qadimgi o'tgan zamonda...", "...Diyorbakir shahrida...", "...Shohabbos podsho bor edi. Uning vaziriga Hasan

¹. Ro'zimboev S. Специфика, типология и поэтика Хорезмских дастанов. АДД, Т., 1990. С.-19.

². Ro'zimboev S. Специфика, типология и поэтика Хорезмских дастанов. АДД. С.- 25.

³. Madaev O. Xorazm dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nomzodlik diss.T., 1973. B.-

deb ot berar edilar” deb boshlanadi. Qo’lyozma va toshbosma nusxalarda esa „Ammo roviylar andoq rivoyat qilurlarkim...“ deb boshlanadigan an’anaviy zachin ilova qilinadi. Doston kompozitsion tuzilishi jihatidan: 1) qahramonlar otalarining ovga chiqishlari; 2) qudag’aylik xususida ahdlashuv; 3) farzandlarning tug’ilishi; 4) yigit bilan qizning bir – biriga ko’ngil qo’yishi; 5) ona va singil bilan xayrlashuv; 6) etti yillik ayriliq; 7) qahramonlarning o’z yori to’yiga “kal – sozanda” qiyofasida kirib kelishi va oshiq – ma’shuqaning bir – biriga yetishuvi motivlaridan iborat.

Mazkur doston negizini, asosan, yuqorida qayd qilib o’tilganidek, sevgi sarguzashti tashkil etganligi sababli undagi konflikt maishiy ma’no kasb etadi. Ya’ni dostonning bosh qahramoni G’aribning sevgisiga xalaqit beruvchi sabab, uning mol – mulki yo’qligi – kambag’alligidir. Shu sababdan dostonda yuqori va quyi tabaqa vakillari o’rtasidagi konflikt namoyon bo’ladi. Folklorshunos olimlar S.Yoqubovaning tadqiqotida ham shunga yaqin e’tirof uchraydi.

“Oshiq G’arib va Shohsanam” dostonida nasr va nazm munosabati, ularning g’oyaviy mazmunni ochishdagi vazifasi va o’rniga ham alohida e’tibor beriladiki, bu asar kompozitsiyasida muhim rol o’ynaydi. Dostonda nasriy qism muayyan qisqalikka ega, she’riy qism esa salmoq jihatdan ancha katta. Taniqli folklorshunos olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar bu haqda o’z fikrlarini bildirib: “Dostonning asosini she’r tashkil etadi, proza esa qisqa, bog’lovchi qo’shimchadir”¹ – degan edilar. Darhaqiqat, dostonda nasriy parchalar asar fabulasini rivojlantirishda asosiy omil sifatida kamroq ishtirok qiladi. Voqealar bayoni ko’pincha siliqli tarzda bayon etiladi. Shu sababli obrazlar portreti kabi asar kompozitsiyasiga taalluqli uzvlar ko’p hollarda nazm orqali beriladi. Shunday bo’lsa-da, “prozaning murakkab shakli saj’ni Xorazm dostonlarida kam uchramiz”² – degan fikr u qadar asosli emas. Chunki “Oshiq G’arib va Shohsanam” dostonining 6508, 1276, 541, L.710, L.3686 – inventar raqamli qo’lyozma va toshbosma variantlari boshlamasi: “Ammo roviyoni axbor va

noqiloni osor muxadisonu dostonu bo’ston...”da bir o’rinda bo’lsa-da, to’liq saj’ – “roviyoni axbor va noqiloni osor” qo’llanilgan. Shunisi e’tiborliki, dostonning baxshilar og’zidan yozib olingan variantlarida ham oz bo’lsa – da, qisqa qofiyali nasr qo’llanilgan. Masalan, Fozil Yo’ldosh o’g’li variantida Shohsanamning kanizagi Aqcha shunday ta’riflanadi: “Bir oqqiz, o’rta bo’yli choqqiz, o’zi to’la sog’ qiz...” (Qo’lyozma, 202- bet). San’atning bu qadimiy turini dostonning Xudaybergan baxshi va Madraim baxshi variantlarida ham uchratish mumkin.

Dostonda she’riy parchalar, asosan, lirik xarakterga ega. Ularda qahramonning asar voqealariga munosabati bilan paydo bo’lgan ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, yuqorida aytib o’tilganidek, portretiga oid chizgilar tasvirlanadi. Shunisi xarakterliki, dostondagi aksari poetik parchalar orqali qahramonning lirik monologi yaratiladi. Masalan, G’arib bilan Shohsanam shunday ta’riflanadi:

Yuzlaring misli loladir,
Boqishing jonim oladir,
Og’zing oltin piyoladir,
Labingda xollaring bordir.
Ol yonog’ing tutgin oldin,
Tar xinoli qo’llaringdin...

(6408 – inventar raqamli variant, 11- bet).

Dostonning baxshilar og’zidan yozib olingan variantlaridagi nasriy parchalarda ham asar qahramonlarining portretiga oid chizgilar qisqa, lekin o’ziga xos lo’nda ifodalar orqali bayon qilingan. Masalan, Bola baxshi variantida G’aribning o’z qiyofasini o’zgartirib, Shohsanamning to’yiga otlangan holati tasviri shunday beriladi: “...boshina ko’na taxiyoni giyib, oyoqina bir choriqni ildirib, bir juldir po’stinni egniga tashlab, ustinnan bir chizim bilan bog’lab” ... boshiga bir qo’yning qornini ag’darib kiyib, yuziga qora kuya surtib, iyagiga qora soqol yopishtirib to’yxonaga keta boshladi” (Qo’lyozma, 198-bet) tarzida tasvirlanadi.

Dostonda xotin-qizlar, ma’shuqa obrazi tasvirida ularning nozikligi, yuzlarining beqiyos chiroyliligi, taqinchoqlar ularning ko’rinishlarini yanada go’zallashtirishi mubolag’alar, o’xshatishlar, sifatlashlar orqali tinglovchi ko’z oldida gavalantiriladi. Portretga

¹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947, с. 55.

² Madayev O. Xorazm dostonlari va ularning o’ziga xos xususiyatlari. Nomzodlik diss.T.. 1973. B.-

oid shunday chizg'ilar dostonning kompozitsion qurilishida asosiy o'rinni egallaydi.

Dostonning barcha variantlarida tabiat tasviriga ham alohida e'tibor berilgan bo'lib, ular personajlarning ma'naviy qiyofasini ochishga yo'naltirilgani holda xalq ijodkorlarining estetik qarashlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, Madraim baxshi variantida Shohsanamning bog'i shunday tasvirlanadi: "G'aribjon boqqa kirs, bog'da gullar ochilib, bulbullar sayrab, to'tilar nola qayirib, tovuqlar taranib, chaqchaqlar chaq-chaq urib, qumrilar dam chiqarib; olma anor, anjir pishib, po'rsillab yerga tushib yotibdi" (Qo'lyozma, 38-bet).

Fozil Yo'ldosh o'g'li esa, o'g'illik bo'lganligidan "boshi osmonga yetgan" vazirning shikorga chiqishini tasvirlar ekan, tog'ni shunday ta'riflaydi:

Turibdi rang-barang gullar ochilib,
Bulbullar bahorda ko'p sayrar turib.
Erkin shamollari ko'krakka urib,
Gurung qilsak, munda qumri kuylar.
Yovvoyi daraxtlar mevasi pishgan,
Olmalar to'pillab ostiga tushgan.
Daraxtlar kelib bir - biriga tutashgan,
Shunday joylari bordi tog'larning...
(Qo'lyozma, 35-bet).

Badiiy jihatdan ancha pishiq bunday tasvirlarni dostonning hamma og'zaki variantlari va 6408-inventar raqamli qo'lyozmadan ham topish mumkin.

Doston kompozitsiyasining yana bir uzviy-dialog ham asar qahramonlari xarakteri, ichki ruhiy kechinmalarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu dialoglarda dramatik holat badiiy jihatdan yuqori darajada ifodalangan. Doston variantlarida dialoglar ko'proq G'arib-Shohsanam, Shohsanam-Aqcha, Shohsanam-Azbarxo'ja, Aqcha-G'arib o'rtalarida kechadi. Ayniqsa, dostonning 15 ta variantida ham ozmi-ko'pmi o'zgarishlar bilan uchrovchi G'aribing Shirvonga ketishidan oldin Shohsanam bilan muloqoti xarakterlidir:

Shohsanam:
G'aribjon, yegil g'amingni,

Dushmanlar kor etmasdan burun.

Erta bilan otam tutib,

Zo'r farmon etmasdan burun.

G'aribjon:

Menga mundin ketmoq bo'lmas,

Otang tutib olmaguncha.

Xalil kabi man joy qarab,

Hajr o'tina solmaguncha...

(6408-inventar raqamli variant, 19-bet)

Bu dialogda johil ota - Shohabbos tomonidan bir - biridan ajralgan oshiq - mashuqalarning ichki kechinmalari o'z ifodasini topgan.

Dostonda dialoglarga nisbatan ancha salmoqli o'rinni egallaydigan monologlarning har biri ma'lum bir lirik holatni aks ettiruvchi "alohida asar" hisoblanadi. Masalan, Shohsanamning ayriliqda oh - faryod tortishini ifodalovchi:

Icholmadim yor vaslining mayidan,

Emdi yuragimga g'am ozor o'ldi.

Chora ketdi, hijron ila gard o'ldi,

Yorimni yo'lida ko'nglim dard o'ldi...

(6408-inventar raqamli variant, 38 - bet)

Yoki: G'aribning tushida Shohsanamni ko'rmaganligi armon bo'lib, ozor, jabr chekishini aks ettiruvchi :

Yor, sani deb kechdi emdi yoz ila qishim,

Sellar kabi oqar ko'zimdin yoshim.

Tangri xush raftorli yordin ayirdi.

Ishq mani nomusu ordin ayirdi ...

(6408-inventar raqamli variant, 36 - bet)

Shuningdek, G'aribning uzoq ayriliqdan so'ng ma'shuqasining visolidan bahramand bo'lgandagidek, ruhiy kechinmalarini ifoda etuvchi:

Mohitobon ichra mohlar mohidur,

Oy - yillar chekkanim shuning ohidur.

G'arib Shohsanamning qiblagohidur,

Tilinda sanosi bordur Sanamning.

(Qodir sozchi varianti, 32 - bet) -

kabi monologlarda ularning yuksak fazilatlari namoyon bo'ladi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlari aksariyat hollarda nasriy, ayrim hollardagina nazmiy yakun bilan xotimalanadi. Dostonning mavjud o'n beshta variantidan o'n to'rttasi nasriy: "Har kim yetar murodiga, dushman qolar uyatga", "Shohsanam bilan G'arib – ikki oshiq qo'shilib, yetdi murodga, hamma yoshlaram yetsin murodga..." yoki: "Shunday qilib, hamma oshiqlar murod – maqsadiga yetsinlar, hamma ham murodina yetsin", "Bu dostonni eshitgan, o'qigan hamma – hammalar murod – maqsadlarina yetsinlar" tarzida, faqat bittasigina she'riy shaklda:

"...Barcha avlod o'qib bahramand bo'lg'ay,

Oshiqlar ahlini eslab yod qilg'ay!...

(1449- inventar raqamli variant, 158- bet) -

tarzidagi baxshining tinglovchilarga va o'quvchilarga ezgu tilaklar izhor qilishi bilan yakunlanadi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining obrazlar tizimi murakkab bo'lmay, nisbatan sodda tuzilishga ega. Undagi obrazlar soni ham unchalik ko'p emas.

Barcha umumo'zbek dostonlaridagi kabi "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida ham voqea – hodisalar obrazlar, ularning o'zaro munosabatlari va xatti – harakatlari orqali ochib beriladi. Doston ishqiy – romanik asar bo'lganligi sababli undagi obrazlar tasviri qahramonlik dostonlarida tasvirlanadigan obrazlardan jiddiy farq qiladi. Ya'ni mazkur turkumdagi doston obrazlari ko'proq ishqiy – sarguzasht girdobi ichida yuradi. Ularning ana shu girdobda harakat qilishi dostonda tabiiydek tuyuladigan darajada tasvirlanadi. Balki "Romantik dostonlarda nikoh uchun safarga o'tlanish, qahramonlik ko'rsatib uylanish kabi qadimiy nikoh va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan urf – odatlar o'zining haqiqiy maishiy asosini tamomila yo'qotadi"¹, degan haqli fikr ham tahlil qilayotganimiz ushbu dostonga borib taqalar. Folklorshunoslar: O.Madaev va S.Ro'zimboevlarning bu boradagi xulosalari ham ushbu olimning fikrining davomidek ko'rinadi.

"Eposning ijobiy qahramonlari,- deb yozadi folklorshunos olim V.Chicherov, - har doim xalqning eng yuqori tuyg'ulari, fazilatlarining ifodalovchisi, uning eng yaxshi namoyandalaridir"¹. Darvoqe, G'arib va Shohsanam obrazlari orqali xalq o'zining sevgi, vafo va sadoqat haqidagi butun ijobiy fikrlarini, haqiqiy oshiq haqidagi tushunchalarini umumlashtirishga harakat qilgan.

Dostonning mavjud o'n beshta variantida ham G'arib va Shohsanam butun qalbi bilan bir – biriga sodiq, haqiqiy sofdil oshiq – ma'shuqa obrazlari sifatida gavdalanadi. Bu o'rinda O.Madaevning "G'arib obrazi hayotdagi turli – tuman qarama – qarshiliklar orasida tasvirlanmaydi"², degan fikri mantiqan asosli emas.

Negaki, dostonning 6408 – inventar raqamli variantida G'arib obraziga xos jizzakilik xususiyati ham atroflicha ochib berilgan. Bu hol dostonning boshqa qo'lyozma va og'zaki variantlarida uchramaydi.

Dostonning 6408, 1276, 541, L.3686 – inventar raqamli nusxalari va Ro'zimbek baxshi variantida Shohsanam sarguzashtlari turkman va qoraqalpoq versiyalaridagidek ko'plab epizodlar bilan bog'liq holda berilgan. Ayniqsa, 6408 – inventar raqamli variantda Shohsanamning G'aribni Aqcha kanizdan rashk qilishi, Boboxon shotirning "niyati buzilib" unga shilqimlik qilgan paytida uni zaharlab o'ldirishi epizodlari shular jumlasidandir. Ushbu epizodlar orqali Shohsanam obraziga xos chaqqonlik, o'ziga yomonlik qilgan odamlarga nisbatan shafqatsizligi ochib berilgan. Boshqa variantlarda bu xususiyatlar to'liq yoritilmagani holda, baxshilar og'zidan yozib olingan og'zaki variantlarda bunday epizodlar uchramaydi.

Folklorshunos O.Madayevo "Xorazm dostonlari qahramonlari portretidan ularning oshiq yoki ma'shuqabo'lishidan qat'iy nazar, ajoyib tashqi qiyofaga ega ekanliklari ko'rinadi"³- deb yozadi. Darhaqiqat, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlarida G'arib va Shohsanamning portretlari nafaqat tashqi qiyofalari,

¹ Чичерев В.В. Вопросы изучения эпоса народов СССР (В книге // Вопросы теории и истории народного творчества. М., 1959. С. 246.

² Madayev O. Xorazm dostonlarida obraz yaratishning ayrim xususiyatlari haqida. // Hayot va adabiyot. ToshDU ilmiy ishlari, 331 – chiqishi. T.; 1968. B. 64.

³ Madayev O. Ko'rsatilgan manba, B. 81.

kabi monologlarda ularning yuksak fazilatlarini namoyon bo'ladi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlari aksariyat hollarda nasriy, ayrim hollardagina nazmiy yakun bilan xotimalanadi. Dostonning mavjud o'n beshta variantidan o'n to'rttasi nasriy: "Har kim yetar murodiga, dushman qolar uyatga", "Shohsanam bilan G'arib - ikki oshiq qo'shilib, yetdi murodga, hamma yoshlaram yetsin murodga..." yoki: "Shunday qilib, hamma oshiqlar murod - maqsadiga yetsinlar, hamma ham murodina yetsin", "Bu dostonni eshitgan, o'qigan hamma - hammalar murod - maqsadlarina yetsinlar" tarzida, faqat bittasigina she'riy shaklda:

"...Barcha avlod o'qib bahramand bo'lg'ay,

Oshiqlar ahlini eslab yod qilg'ay!...

(1449- inventar raqamli variant, 158- bet) -

tarzidagi baxshining tinglovchilarga va o'quvchilarga ezgu tilaklar izhor qilishi bilan yakunlanadi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining obrazlar tizimi murakkab bo'lmay, nisbatan sodda tuzilishga ega. Undagi obrazlar soni ham unchalik ko'p emas.

Barcha umumo'zbek dostonlaridagi kabi "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida ham voqea - hodisalar obrazlar, ularning o'zaro munosabatlari va xatti - harakatlari orqali ochib beriladi. Doston ishqiy - romanik asar bo'lganligi sababli undagi obrazlar tasviri qahramonlik dostonlarida tasvirlanadigan obrazlardan jiddiy farq qiladi. Ya'ni mazkur turkumdagi doston obrazlari ko'proq ishqiy - sarguzasht girdobi ichida yuradi. Ularning ana shu girdobda harakat qilishi dostonida tabiiydek tuyuladigan darajada tasvirlanadi. Balki "Romantik dostonlarda nikoh uchun safarga o'tlanish, qahramonlik ko'rsatib uylanish kabi qadimiy nikoh va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan urf - odatlar o'zining haqiqiy maishiy asosini tamomila yo'qotadi"¹, degan haqli fikr ham tahlil qilayotganimiz ushbu dostonga borib taqalar. Folklorshunoslar: O.Madaev va S.Ro'zimboevlarning bu boradagi xulosalari ham ushbu olimning fikrining davomidek ko'rinadi.

"Eposning ijobiy qahramonlari, - deb yozadi folklorshunos olim V.Chicherov, - har doim xalqning eng yuqori tuyg'ulari, fazilatlarining ifodalovchisi, uning eng yaxshi namoyandalaridir"¹. Darvoqe, G'arib va Shohsanam obrazlari orqali xalq o'zining sevgi, vafo va sadoqat haqidagi butun ijobiy fikrlarini, haqiqiy oshiq haqidagi tushunchalarini umumlashtirishga harakat qilgan.

Dostonning mavjud o'n beshta variantida ham G'arib va Shohsanam butun qalbi bilan bir - biriga sodiq, haqiqiy sofdil oshiq - ma'shuqa obrazlari sifatida gavdalanadi. Bu o'rinda O.Madaevning "G'arib obrazi hayotdagi turli - tuman qarama - qarshiliklar orasida tasvirlanmaydi"², degan fikri mantiqan asosli emas.

Negaki, dostonning 6408 - inventar raqamli variantida G'arib obraziga xos jizzakilik xususiyati ham atroflicha ochib berilgan. Bu hol dostonning boshqa qo'lyozma va og'zaki variantlarida uchramaydi.

Dostonning 6408, 1276, 541, L.3686 - inventar raqamli nusxalari va Ro'zimbek baxshi variantida Shohsanam sarguzashtlari turkman va qoraqalpoq versiyalaridagidek ko'plab epizodlar bilan bog'liq holda berilgan. Ayniqsa, 6408 - inventar raqamli variantda Shohsanamning G'aribni Aqcha kanizdan rashk qilishi, Boboxon shotirning "niyati buzilib" unga shilqimlik qilgan paytida uni zaharlab o'ldirishi epizodlari shular jumlasidandir. Ushbu epizodlar orqali Shohsanam obraziga xos chaqqonlik, o'ziga yomonlik qilgan odamlarga nisbatan shafqatsizligi ochib berilgan. Boshqa variantlarda bu xususiyatlar to'liq yoritilmagani holda, baxshilar og'zidan yozib olingan og'zaki variantlarda bunday epizodlar uchramaydi.

Folklorshunos O.Madaev "Xorazm dostonlari qahramonlari portretidan ularning oshiq yoki ma'shuqabo'lishidan qat'iy nazar, ajoyib tashqi qiyofaga ega ekanliklari ko'rinadi"³, deb yozadi. Darhaqiqat, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlarida G'arib va Shohsanamning portretlari nafaqat tashqi qiyofalari,

¹ Чичерев В.В. Вопросы изучения эпоса народов СССР (В книге // Вопросы теории и истории народного творчества. М., 1959. С. 246.

² Мadaev O. Xorazm dostonlarida obraz yaratishning ayrim xususiyatlari haqida. // Hayot va adabiyot. ToshDU ilmiy ishlari, 331 - chiqishi. T., 1968. B. 64.

³ Madaev O. Ko'rsatilgan manba, B. 81.

balki ularning ichki dunyolari bilan hamohang yaratilgan. Portretga oid chizgilarning turli munosabatlar bilan turli o'rinlarda berilishi orqali ularning tashqi qiyofasi tadrijiy ravishda asta - sekinlik bilan tinglovchi ko'z oldida namoyon qilingan. Chunki, "... xalq eposida qahramonning portreti turlicha vaziyatda, harakatli, fikr - xayoli, amalga oshirayotgan ishlari jarayonida ochila boradi."¹Masalan:

Qoshi kamon, kipriklari ko'zlanmish,
Oshiqlarni o'ldirmakka yuzlanmish.
Qurbon o'ldim qoboqlaringga, ko'zingga,
Dol bo'yingga, qomatingga, oy yuzingga...
(6408-inventar raqamli variant, 55 - bet).

Bu xildagi ta'riflar ila Shohsanamning qiyofasini "chizish" bilan baxshi tinglovchi ko'z oldida ko'rinishi jihatdan eng nozik, muomalada eng latofatli, nazokatli qiz siymosini gavdalanitirgan. Ya'ni:

Surmali bul qaro ko'zlar,
Yuzinda xollari border Sanamning.
Sochlari chirmashgan nozik bellara,
O'n barmoqi uzuklidir Sanamning...
(6408-inventar raqamli variant, 56 - bet)

kabi chizgilardagi ayrim - ayrim detallar Shohsanamning tashqi ko'rinishi haqida tinglovchi tasavvurini kengaytiradi va aniqlashtiradi.

Dostonning barcha variantlaridagi tasvirlarda G'arib va Shohsanamning xalq idealidagi qahramonlar ekanligiga alohida e'tibor qilingan. Ammo qadimiy tasavvurlardan kelib chiqib, portret yaratish jihatidan 6408 - inventar raqamli variantdagi tasvirning boshqa variantlardagiga nisbatan mukammalligi seziladiki, bu sifat baxshi mahoratini belgilaydi.

Dostonning mavjud o'n beshta variantlarida ham qahramon xarakterini ifodalashda uning ichki kechinmalarini tasvirlash muhim o'rinni egallaydi. Bunday tasvirlar qahramon haqidagi tinglovchi tasavvurini kengaytiradi, mukammallashtiradi. Dostonning boshlanishidayoq, G'aribning Shohsanamdan ayriligi

natijasida uning qiyin ahvolda qolganligi baxshilar tomonidan quyidagicha tasvirlangan:

**Ikki yildir ayro tushdim yorimnan,
Iloji yo'q yora yeta bilmadim.
Hech kim xabar olmas mening holimnan,
Holim yo'q, yora bora bilmadim.**

(Qodir baxshi varianti, qo'lyozma ,7 - bet;
Tursun baxshi varianti, qo'lyozma ,11 - bet).

**Besh yil bo'ldi, ayro tushdim yorimnan,
Ilojim yo'q, yorg'a bora bilmadim.
Hech kelibam xabar olmas holimnan,
Ilojim yo'q, yorg'a yeta bilmadim.**

(Xudoybergan baxshi varianti, qo'lyozma ,16 - bet)

**Besh yildir siynamda ko'pdir armonim,
Kecha - kunduz fikrim - zikrim xayolim.
Tandin chig'or bo'ldi bu shirin lonim,
Ilojim yo'q, yora bora bilmadim.**

(Madraim baxshi varianti, qo'lyozma ,13 - bet)

**Sanam bo'lmasa maqsadim,
Ketmas boshimnan kulfatim.
Ko'p yugurib ado bo'ldim,
Sanam otli yor hasratim...**

(Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, qo'lyozma ,130 - bet)

**Besh yil bo'ldi ayrilmishman yorimnan,
Ilojim yo'q, yora bora bilmadim.
Hech kim xabar olmas mening holimnan,
Ilojim yo'q, yora bora bilmadim.**

(Ro'zimbek baxshi variant, qo'lyozma ,14 - bet).

**Man naylayin, oshno - yorim yot bo'ldi,
Bir so'z ila yondi bag'rim, nard bo'ldi,
Kecha - kunduz ishim oh - u dard bo'ldi,
Parvonadek yona - yona kelaman... ???**

(6498 - inventar raqamli variant, qo'lyozma ,21 - bet)

Dostonning 1275, 541, L.710, L.3686 - inventar raqamli variantlari va Robiya xalfa nusxasida ham bu tasvir ozmi - ko'pmi o'zgarishlar bilan 6408 - inventar raqamli variantdagidek berilgan.

¹Saidov M. O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat. T.; 1969. B.- 228.

Qon yig'ladim men hamona,
Men naylayin, oh zamona.
Qani ul ahdi paymona,
Sevar yordín judo bo'ldim.

(1449 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 9 - bet)

Yuqorida keltirilgan dalillardan ko'rinadiki, doston variantlarida G'aribning ichki dunyosini mahorat bilan ochishga harakat qilingan. Ammo 6408 - inventar raqamli variantda G'arib ruhida kuyunish, ma'shuqasidan ajralganiga ko'p vaqt bo'lsa - da, uni ko'rishga muyassar bo'la olmagan, ko'rish uchun uning iloji hamyoqligi, bu vaqt ichida "qon yig'lagani" va ma'shuqasining hajrida "yongani" badiiy jihatdan boshqa variantlarga nisbatan ancha mukammal ishlanganligi seziladi.

Baxshining mahorati shunda - ki, keltirilgan parchaning har bir misrasida G'arib ichki dunyosining har bir tomoni yoritilgan. Shuni ham alohida qayd qilib o'tish kerakki, asarning boshidagi bu psixologik tasvir voqelik davomida kengaytirilib, chuqurlashtirilib borilgan. Shuningdek, bu variantdagi:

Sanam aytur, ey mehribon,
Qayg'uli bo'ldi shirin jon.
Raqiblar kelib shu zamon,
Zindon bo'ldi jahon menga -

(6408 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 16 - bet)

she'riy parchasida Suvchi kanizning chaqimchiligidan noqulay ahvolga tushib qolgan Shohsanamning ichki dunyosi yorqin ifodalangan. Bunday tasvir boshqa variantlarda ham mavjud, lekin ularda badiiy jihatdan ancha bo'sh ishlangan. Ushbu variantdagi Shohsanamning uzoq muddatga ketgan G'aribni axtarib, u haqda biror xabarga zor ekanligini ifodalovchi:

Falak meni buyla nolon etmishdir,
Qayg'u bilan qalbimni qon etmishdir.
Ko'z o'ngimda yorim tirik ketmishdir,
Tirik ketib, o'lgan bormi, yoronlar ?!

(6408 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 41 - bet).

kabi ruhiy holatning yorqin tasviri bo'lgan misralar boshqa variantlarda uchramaydi.

Dostonning hamma variantlarida sodiq kanizak - Aqcha obrazi bir - biriga o'xshash tasvirlangan. U G'arib bilan Shohsanamning taqdirini qo'shishda faol rol o'ynaydigan obraz. Aqchaning asli ismi Gulnahor bo'lib, uning oq yuzli, ochiq chehraligiga nisbatan, Aqcha nomi berilgan. Aqcha o'sha davr ijtimoiy tuzumining qurboni bolgan xotin-qiz obrazi sifatida gavdalanadi. Chunki u podshoning nazariga tushib, o'z yori Azbarxo'jadan tortib olingan va saroydagi kanizaklar qatoriga tashlangan. Aqcha hayotning achchiq - chuchugini tatigan, aqlli va epchil ayol. U "Shohsanam o'z ixtiyorini Shovaladga berib, mamlakatdagi barcha ashulachi, sozandalarni keltirib, ko'shkning tagida etti oy kuy chaldirs, ashula aytirs, G'arib topilib qolishi" (Ro'zimbek baxshi varianti, qo'lyozma, 149 - 150 - betlar) fikri ham Aqchadan chiqadiki, bu to'g'i maslahat edi. Shohsanam ham unga kanizak sifatida emas, balki opasi yoki dugonasi sifatida muomala qiladi. Buni prof. X.G. Ko'ro'g'li ham o'z monografiyasida qayd qilib o'tadi¹ o'zining dono maslahatini beradi. Bu maslahatga amal qilgan Shohsanam, o'z G'aribiga shu tariqa erishadi.

Dostonning mavjud qo'lyozma va toshbosma variantlarida Aqcha obrazining faoliyat doirasi og'zaki variantlarga nisbatan kengroq tasvirlangan. Shunisi xarakterliki, 6408-inventar raqamli variantda bu obraz faoliyati turkman va qoraqalpoq versiyalaridagi tasvirga yaqin turadi. Ya'ni G'aribni Halabdan o'zi bilan birga olib kelib, Shohsanam bilan uchrashtiradi. Oradan olti oy o'tgach, otasining qahridan cho'chigan Shohsanam G'aribdan vaqtincha Shomoq shahriga ketib yashashini iltimos qiladi. O'zining taklifiga ko'nmagan G'aribga ataylab "qattiq" gapirgan Shohsanam uning dilini og'ritadi. G'arib achchiqlanib, Shomoqqa ketib qolgach, u qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'ladi. Aqchaga ko'z yoshi ham qiladi.

Turkman va qoraqalpoq versiyalariga ko'ra, Aqchaning bundan jahli chiqib, Shohsanamni koyiydi va unga do'q qiladi. Ushbu variantda tasvirlanishicha, Aqcha G'aribni ikki marta Shomoqdan emas, Halab shahridan topadi. Shohsanamning ishqida yongan G'arib yana chorboqqa keladi. Aqcha obrazi bilan

¹ Коголи Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. М., 1983. С. 280.

bog'liq bu epizod dostonning og'zaki variantlari va ozarbayjon versiyasida uchramaydi. Aftidan, turkman va qoraqalpoq versiyalaridagi hayotiylikka zid - kanizakning o'z malikasiga do'q urishi tasviri keyingi davrlarda qilingan o'zgarish natijasi bo'lishi mumkin. Folklorshunos S.Yoqubova "dostonning turkman versiyasida Aqcha obrazining epik biografiyasi yangi detallar qo'shilgan holda juda keng yoritilgan"ligini ta'kidlaydi¹. Ushbu fikrni professor S.Ruzimboev ham tasdiqlaydi². Haqiqatan ham turkman versiyasida Gulnahorning baxtli qizlik damlari, Shohabbosning uni bir ko'rishdayoq sevib qolishi, hiyla yo'li bilan qonuniy eri - Azbarxo'jadan ajratilishi va shoh qiziga kanizak bo'lishi epizodlari ozarbayjon, qoraqalpoq versiyalarida hamda o'zbek variantlarida mavjud emas.

Dostonning Bola baxshi, Qodir sozchi, Xudoybergan baxshi, Madraim baxshi, Tursun baxshi va Ro'zimbek baxshi variantlarida G'aribning safarga ketishi oldidan onasi bilan xayrlashuvi epizodi ancha keng ishlangan. Yolg'iz bo'lib qolishdan cho'chigan onaizorning oh-u, fig'oni uning o'z "aytimi" orqali mahorat bilan quyidagicha aks ettirilgan:

Ko'zimning ravshani, nurim sen eding,
Qalbimning madori, o'g'lim sen eding.

Baxtim, saodatim, borim sen eding,
Bolam, seni bir Ollohga torshirdim.

(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 18 - bet).

Keltirganimiz misralardan ko'rinadiki, Ovodon kampir o'z farzandini jonidan ham aziz ko'ruvchi, farzand dog'ida kuyishni istamaydigan ayol. Noilojlikdan o'g'lining safarga ketishiga ruxsat beradi, chunki farzandining sevgi dog'ida «kuyib» yurishini ko'rish uning uchun qiyin edi.

Dostonning 541, 695, 1276 va 6408- inventar raqamli qo'lyozma variantlarida G'aribning onasiga uning o'g'li o'lganligi haqidagi xabarining yetkazilishi epizodi tasvirlangan. Jumladan, 6408-inventar raqamli variantda farzand dog'ida alam chekkan, uni o'lgan deb eshitgan va dard-hasrat bilan ado bo'lgan onaning

ruhiy olami o'z nolishi orqali boshqa variantlardagiga nisbatan ancha keng tasvirlangan:

Dod - faryod! Shohabbosning qo'lidan,
Gulshanim xazona do'ndi, naylayin?
O'g'lim o'lgan bo'lsa, o'chdi chirog'im,
Umrinni chirog'i so'ndi, naylayin?
(6408- inventar raqamli variant, qo'lyozma, 41-bet).

Yoki, uyiga kirib kelib, o'zini tanitmagan G'aribni o'g'liga o'xshatib, kuylagani quyidagi:

Horib- charchab kelgan, aziz mehmonim,
Bolama mengzaydi, ovozing saning.
Tez xabarin bergil, chiqmasdan jonim.
Bolama mengzaydi, ovozing saning -
(6408- inventar raqamli variant, qo'lyozma, 57 - bet)

kabi dard-u, fig'onga limmo-lim satrlar orqali tinglovchikelgan yigitning: "Onajon, men o'g'lingizman" - deyishini butun vujudi bilan istayotgan onani ko'z oldiga keltiradi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylab kelgan doston variantida tasvirlanishicha, G'aribning onasi o'g'li uchun alam chekmaydi. Shu boisdan uning ko'zlari ko'r bo'lib qolmaydi. Negadir, bu variantda ona obrazi ikkinchi o'ringa tushirilgan, hattoki, nomlanmagan ham.

Dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li variantidan boshqa o'n to'rtta variantida G'aribning singlisi - Guljamila obrazi mukammal tasvirlangan. Dostonning Qodir baxshi, Madraim baxshi, Xudoybergan baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlari, shuningdek, qo'lyozma va toshbosma nusxalarida bu obraz G'aribni safarga kuzatish va etti yildan keyin uyiga qaytib kelishi epizodlari tasvirida ishtirok etadi. Ushbu variantlarning hammasida ham singilning akasi qalbinning nozik torlariga ta'sir etib, uni safardan qaytarmoqchi bo'lganligi quyidagi ta'sirchan nutqidan ham sezilib turadi:

Kafan to'nim g'amin emayin,
Qo'ling bilan go'rga solmayin.
Jon og'am, qayga borarsan?
Baxtima qora boylatib,
Yuragim o'tqa dog'latib,

¹. Якубова С. Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб», Баку, 1968, С.-65.
². Ro'zimbeyev S. Xorazm dostonlari. T.; 1985. B.- 74.

Guljamilani qon yiglatib,
Og'ajon, qayga borarsan?

(Xudoybergan baxshi varianti, qo'lyozma, 32-bet.)

Keltirganimiz, ushbu nolada akasiga muhabbati ulug',
kuyunchak va mehribon singil siymosi nurlanib turadi.

Bola baxshi variantida Guljamila obrazi faqat G'aribning safardan qaytishi epizodidagina ko'rinadi. Ammo uning akasiga g'amxo'rliqi, mehribonligi boshqa variantlarga nisbatan bu baxshi variantida to'laroq aks ettirilganligini quyidagi qisqagina nasriy parchadan bilib olish mumkin: "Ona, bu yigitning ovozlari mening og'amning ovozlari o'xshab ketar ekan. Mening og'am ham bir yerlarda zorlanib yurgandir..." (Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 8-bet). 6408, 1276, 541, 695, 1449, L.710, L.3686-inventar raqamli va Robiya xalfa qo'lidagi variantlarda ham bu obraz faoliyat doirasi keng yoritilgan. Ayniqsa, 6408-inventar raqamli variantda Guljamila obrazining o'sha davr ijtimoiy tuzumining barcha xorliklariga zo'r bardosh bilan chidashga majbur, mushtipar va munis ayol obrazi ekanligi mahorat bilan tasvirlangan. Masalan, akasi o'lganligi haqidagi shum xabarni eshitgan singilning hasrati shunday tasvirlangan:

Kunda yuz yig'ladim, umrim kechirdim,
Ko'z yoshimni qo'shub daryo belina;

Og'ajon, deb chor tarafga boqmadim,
Jafo chekib tilla "haykal"¹ taqmadim.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 42 - bet.)

Dostonning qo'lyozma, toshbosma va og'zaki variantlarida tasvirlangan singil - Guljamila obrazi "Alpomish" dostonidagi Qaldirg'och, "Bozirgon" dostonidagi Oysulton obrazlaridan butunlay farq qiladi. Ya'ni Guljamila faoliyatida kurashchanlik xususiyati ko'rinmaydi.

Singil obrazi ozarbayjon versiyasida Nargisxonim, turkman va qoraqalpoq versiyalarida Guljamol tarzida nomlangan. Bu versiyalardagi singil obrazida ham o'zbek variantlarida mavjud Guljamila obrazidagi xususiyatlar mujassamlashgan. Lekin

¹Qimmatbaho toshlar va rangli shaklli shishalarni ipga tizib hosil qilingan, 44 sm. dan kam bo'lgan zanjirsimon munchoqning o'rtasiga tqiladigan, oltin yoki kumushdan ishlangan yopiq silindrsimon "aqiq" - bo'yin tumori. Qarang: Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.Й., Этнографические очерки материалы культуры узбеков. Т.; 1983. С. 103.

Ozarbayjon versiyasidagi singil obrazining ko'p hollarda Guljamol, Shohsanam bilan birga faoliyat ko'rsatganligini ko'rish mumkin. Bu hol boshqa versiyalar va o'zbekcha variantlarda ko'rinmaydi. Professor S.Ro'zimboyev xotin - qizlar obrazlarining bu tarzda alamkash va passiv tasvirlanishining asosiy sababini asar ishqiy - sarguzasht asosiga qurilganligida, deb ko'rsatadi¹. Haqiqatan ham bu hodisa qahramonlik dostonlaridan keyin yaratilgan romantik eposga xos xususiyat bo'lganligi bilan izohlanadi.

Dostonning Bola baxshi, Qodir baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlarida, 6408, 1276, 541, 695 - inventar raqamli nusxalari, Robiya xalfa varianti va L.710, L.3686-inventar raqamli variantlarida G'arib va Shohsanam orzularining ushalishida o'zining beminnat xizmatini ayamagan, kuchli iroda egasi bo'lgan savdogar - Azbarxo'ja obrazi tasvirlangan. Aftidan, asarda mavjud bu obraz doston paydo bo'lgan davr - Xorazmshohlar davridan asarda mavjud, deyishga asos bor.

Negaki, VII - IX asrlarda karvon savdosi janubiy - sharqiy Yevropa, shuningdek, Eron va Kavkazni O'rta Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoy bilan bog'lab turgan. Xalifa Muqtadirdan (908 - 932 - yillar) Bulg'or podshosiga yuborilgan elchilikning va savdo karvonining (922- yil) qatnashchisi, kotibi bo'lgan ibn Fadlaning ma'lumot berishicha: "Ular Buxorodan Jayxun (Amudaryo) tomon yurib, so'ngra daryo bilan Xorazmga (Katga) Janubiy Xorazm poytaxtiga, undan keyin Urganchga (Jurjoniya), bu yerdan turklar mamlakatining darvozasi hisoblangan Zamjanga borganlar, so'ngra Elba, Yoyiq (Urol), Samara, Cheremshan daryolaridan o'tib, Bulg'orga yetib borganlar².

N.V.Muravyevning yozishicha, Kavkaz bilan Xorazm o'rtasidagi savdo aloqalari XIX asrda ham faol davom etgan. Ko'plab kishilar savdo bahonasida Astrobod, G'ilon, Astraxan kabi shaharlarga borib, shu shaharlarda otroqlashib qolgan va

¹ Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari. T.; 1985. B.- 75

² O'zbekiston tarixi, I tom. T.; 1979. B.- 315.

ayrimlari keyin qaytib kelganlar¹. Shunday ekan, folklor asarlarida savdogar obrazining keltirilishi tabiiydir.

Dostonning Bola baxshi va Qodir baxshi variantlarida Azbarxo'ja obrazi o'ziga yuklatilgan badiiy vazifani bajargan, ya'ni Shohsanamning omonatini Halabdagi G'aribga topshirib, to'y haqidagi xabarni yetkazgan bo'lsa-da, faqat bitta epizoddagina ishtirok qiladi. Ro'zimbek baxshi varianti, qo'lyozma va toshbosma variantlarda, ayniqsa, 6408 - inventar raqamli variantda Azbarxo'ja faoliyati ancha keng tasvirlangan. U yori dardida karvon bilan Shohsanam bog'- saroyiga tushib, Gulnavor(Aqcha)ni topadi. Uning "ishqi o'tida yonib yurganligini" bilgan Shohsanam unga yorini qaytarib beradi." Azbarxo'ja obrazi bilan bog'liq bu epizod og'zaki variantlarda uchramaydi. Shohsanamning iltimosiga ko'ra, Halabdagi barcha sozandalarni yig'ib yetti kecha-kunduz to'y bergan Azbarxo'janing G'arib bilan muloqoti ham bu variantda birmuncha to'liq tasvirlangan. Natijada mazkur obraz faoliyatining yangi qirralari ochilgan. Albatta, bu baxshi mahoratining boshqalarga nisbatan ustunligini ko'rsatadi.

Dostonning turkman va qoraqalpoq versiyalarida Azbarxo'ja faoliyatiga ko'proq o'rin ajratilgan. Uning Gulnavor bilan ilk uchrashuvi, qizning otasi Mansurboy bilan munosabati, singlisi bilan kechirgan qisqa, lekin baxtli damlari va Gulnavoridan ajralishiga dahldor voqealar tasviri tinglovchilarga ushbu obraz xususida keng ma'lumot beradi. Ozarbayjon versiyasida unga yuklatilgan vazifani Ahmad bozirgon bajaradi. Lekin bu versiyada Aqcha kanizning Ahmad bozirgonga aloqadorligi to'g'risida biror qayd uchramaydi. S.Yoqubova "Oshiq G'arib" dostonida sevishtanlarning bir-biriga yetishuvida savdogar obrazi yetakchi figura bo'lganligini ta'kidlaydi, xolos².

Dostonning barcha variantlarida Shovaladning epik biografiyasi haqida juda kam ma'lumot beriladi. U Qodir sozchi, Bola baxshi variantlarida qo'shni davlat podshosi, 6408, 1276, 695, 541, 1449, L.710, L.3686-inventar raqamli nusxalar, Robiya xalfa va Ro'zimbek baxshi variantlarida esa lashkarboshi, Fozil

Yo'ldosh o'g'li variantida Sargirxon nomli badavlat kishi sifatida talqin qilinadi.

Xudoybergan baxshi variantida to'y motivi mavjud emasligi, Madraim baxshi va Tursun baxshi variantlarida voqealar rivoji nihoyalanmay qolganligi sababli bu obraz tasvirlanmagan. Turkman va qoraqalpoq versiyalarida esa Shohsanamning amakisining o'g'li tarzida berilgan. Dostonning barcha variantlarida Shovalad obrazi o'zining nojo'ya xatti-harakatlari va ma'naviy tubanligi bilan namoyon bo'ladi. Uning sevgi-muhabbat bilan hisoblashmasligi, qo'polligi va shafqatsizligi voqealar davomida yaqqol ochila boradi. U Shohsanamni qo'lga kiritish maqsadida har qanday qabihliklardan qaytmaydi. Biroq dostonning final qismida ikki oshiqning ayanchli taqdiridan junbushga kelgan xalqning talabi qarshisida u o'z hukmini o'tkaza olmay qoladi: noiloj G'arib bilan Shohsanamning qo'shilishiga rozi bo'ladi. Bola baxshi qisqagina: "Ko'zi bilan ko'rib, G'aribning so'zini to'g'ri, deb topib, podshoning to'yini odini o'zgartirib, G'aribning odini jar qichqirtirib, to'yni qaytadan boshlatib, yuboraverdilar." (Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 24-bet), Yoki, Qodir sozchi: "...O'rtadan bir jarchi chiqib, bu to'y Shovaladniki emas, G'arib bilan Shohsanamniki, deb jar qichqirdi". (Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 29-bet), tarzida talqin qiladilar.

6408 - inventar raqamli variantda : " ...Darqahr bo'lgan Shovalad xanjarini qo'lga olib, boshini kesay deb yoniga borib, bularning holini ko'rib: "Bular haqiqiy oshiq ekan!" deb, o'z davosidan kechadi. Shohsanamni G'aribga bag'ishlaydi". (6408 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 57 - bet). Shovalad obraziga xos bunday xususiyatlar ushbu qo'lyozma variantda yaqqolroq ko'rinadi. Dostonning boshqa variantlarida esa bu obraz faqat to'y epizodlaridagina voqealar rivojiga olib kiriladi. Shu bois uning xarakter xususiyati yetarlicha ochilmaydi. Dostonning turkman va qoraqalpoq versiyalaridagi Shovalad obrazining talqini o'zbekcha variantlardagi obrazdan deyarli farq qilmaydi. Ozarbayjon versiyasida Shovaladning qabih ishlardan qaytmasligi o'zbekcha variantlarda bo'lmagan - G'aribning izidan borib, uni o'ldirib, qonli ko'ylagini olib kelish uchun Gulo'g'lonni yuborishi epizodida yorqinroq tasvirlangan.

¹. Муравьев Н.В. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 - 1820 годах. - М., 1822. С. 170.
² Якубова С. Азербайджанское народное сказание «Ашиг Гариб». Баку, 1968. С.54.

Dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan variantidan boshqa barcha variantlarida Shohabbos folklor asarlarida qadimdan tasvirlanib kelinayotgan berahm, beburd podshohlar obrazidan farq qilmaydigan darajada tasvirlangan.

Ma'lumki, epos xalq tarixining badiiy in'ikosidir. Ishqiy-romanik dostonlarda voqealar epik saroylar, go'zal bog'lar, qo'rg'onlarda kechsa-da, ammo ana shu voqealarda ifodalangan umuminsoniy g'oyalar bevosita tarixiy ahamiyat kasb etadi va masalaning bu jihati folklorshunoslar tomonidan juda to'g'ri ko'rsatilgan¹.

Tarixiylik nuqtayi nazaridan qaralsa, dostonda tasvirlangan Shohabbos obrazining prototipi o'limidan keyin afsonalashtirilgan mashur podsho - Shohabbos I (1587-1629- yillar) deyish mumkin. Darvoqe, X.G. Ko'ro'g'lining ta'kidlashicha dostonning o'zbek va turkman versiyalaridagi Shohabbos obrazi Diyorbakir hukmdori-Safaviylar sulolasi vakili Shohabbos I ning badiiy tasviridir.² S.Z. Yoqubova ham dostonning O'rta Osiyo versiyalarida real tarixiy voqealar tasvirlanganligini ta'kidlaydi.³ Zero, Shohabbosning dostonda Diyorbakir podshosi - davlat boshlig'i sifatida talqin etilishi ham muayyan tarixiy faktlarga asoslanadi. "Ma'lumki, faqat Shohabbosgina Diyorbakirni turklardan tortib olishga muvaffaq bo'la olgan hukmdordir."⁴ Xorazmni 20 yil davomida idora qilgan Abulgo'ziy Bahodirxon (1644-1664- yillar)ning "Shajarai turk" asarida Shohabbos I Marvni 40 kunlik qamaldan keyin qo'lga kiritganligini, keyin qisqa vaqt ichida Obivard, Nisoy, Durun viloyatlarini ham o'ziga bo'ysundirganligini yozgan.⁵ Shohabbos I o'zining uzluksiz harbiy yurishlari va qonli urushlari bilan Markaziy Osiyo xalqlariga ham ko'plab qayg'u-kulfatlar olib kelgan. Shafqatsizlik, qonxo'rlik va johillik bilan xalqni o'ziga bo'ysundirgan vao'z maqsadiga erishgan. Shundan bo'lsa kerak, xalq Shohabbosni dostonda johil, beburd, adolatsiz podsho sifatida tasvirlagan.

Shohabbos I hukmronligi davrida Safaviylar davlati tasarrufidagi barcha mamlakatlarda savdo-sotiqning rivojlanishiga asos solinadi.

¹ Mirzayev T., Sarimsoqov B. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti. // O'zbek folklorining epik janrlari. T., 1981, B.- 22.

² Корогди Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. М., 1983. С.- 179.

³ Якубова С.З. Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб», Баку, 1968, С.- 105.

⁴ Иванов М.С. Очерки истории Ирана. М., 1952. С.- 20.

⁵ Abulgo'ziy B. Shajarai turk. B. - 142.

O'sha davrda Safaviylar davlati G'arb va Sharqning ko'plab mamlakatlari bilan savdo aloqalarini mustahkamladi. Bular esa, xalq orasida Shohabbos podshoga nisbatan ijobiy fikrlar tug'ilishiga, buning ertak va dostonlarda o'z in'ikosini topishiga sabab bo'lgan. Jumladan, dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li variantidagi tasvirni bu fikrning isboti deyish mumkin.

Dostonning 6408, 1276, 541, 695, L.710, L.3686-inventar raqamli variantlari hamda Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ro'zimbek baxshi variantlarida Shohabbos obrazi faoliyatiga yangi sarguzashtlar qo'shilgan. Masalan, u shikorga chiqqan paytda G'arib bilan o'zga ellarga qochmoqchi bo'lgan, lekin noilojlikdan Diyorbek tepaligida ketmasdan qolgan qiziga duch keladi. O'z qizini tanimasdan, unga "oshiq" bo'lib qoladi, hushidan ketib yiqiladi. Shohabbos shu tarzda oshiqlik jabrini totib ko'rgach, G'aribga Shohsanamni berishga rozi ekanligini aytadi. Dostonga bu epizod podshoning G'arib bilan Shohsanamga rahm-shafqat qilganligini ko'rsatish uchun emas, balki muhabbat dardini bo'rttirish maqsadida kiritilgan. Shunisi borki, Shohabbos o'zining bu va'dasidan ham tonadi.

Dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida tasvirlangan Shohabbos obrazi uchun johillik, shafqatsizlik xususiyatlari yotdir. G'arib bilan Shohsanamning 7 yillik ayriligida ham podshoh aybdor emas. Aybdor Shohsanamning onasidir. To'y kuni kirib kelgan G'aribni tanigan Shohsanamning ko'shkdan turib o'zini sevgilisi ustiga tashlaganligidan xabar topganda ham otasi unga shafqatsizlik qilmaydi. Ya'ni boshqa variantlarda tasvirlanganidek, G'aribni dorga osishni yoki qilich bilan chopib tashlashni buyurmaydi. Balki, qachon G'arib Shohsanam uchun hashamatli saroy qurib bitkazsa, o'shanda qizini unga berishini aytadi. Shart bajarilgach, o'zi to'y boshida turib qizi bilan G'aribga oq fotiha beradiki, tinglovchi ko'z oldida g'amxo'r ota-podsho gavdalanadi. Demak, xalq real tarixiy shaxs Shohabbosning salbiy xususiyatlarinigina emas, balki uning ijobiy tomonlarini ham haqqoniy baholagan. Dostondagi Shohabbos obraziga berilgan qarama-qarshi xarakteristika ham xalqning bu tarixiy shaxsga munosabatining yorqin ifodasidir.

Dostonda tasvirlangan Shovalad-G'aribning raqibi ham aslida real tarixiy shaxs bo'lib, Ozarbayjon va Armaniston hududida yashagan Oq qo'yli sulolasidan chiqqan so'nggi hukmdor sulton Alvand bu obrazning prototipidir. Ma'lumotlarga ko'ra, Eron shohi Ismoil I ning "qizilboshlar" nomini olgan qo'shini Ozarbayjon va Armanistonni qo'lga kiritgach

(1501-1502-yillar), sulton Alvand hukmronligi ham barham topadi¹. E'tiborli tomoni shundaki, dostonning qorachoy versiyasida G'aribning raqibi Shovalad yoki Shohvalad emas, balki Shohlavand deb nomlangan. Ehtimol, bu so'z boshidagi "a" tovushi ikkinchi tovush "l" bilan o'rin almashib qolgandir. Negaki, so'zdagi tovushlarning o'rin almashinishi hodisasi (metateza) turkiy tillarning fonetik xususiyatlariga to'la mos keladi. Aftidan, obraz dostonga kiritilgan paytda Shohlavand tarzida bo'lgan-u, davrlar o'tishi bilan dostonni kuylash davomida "Shovalad"ga o'zgargan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, doston syujetining shakllanishi milodning XIV asrida to'la-to'kis tugallangan. XVI asrda esa tayyor syujet Kavkaz hududiga ko'chgan va yangi talqinlar hisobiga boyitilgan. Aftidan, Shohabbos I, Sulton Alvand kabi tarixiy shaxslar o'sha syujet ko'chishi davrida doston obrazlariga aylanganlar. Shungacha N.Muravyev ommalashtirgan o'zbek afsonasida tasvirlanganidek, "Shohsanamning hukmdor otasi", qizi "Shohsanamni majburan xotinlikka bergani – uning "badavlat qo'shnisi" obrazlari boshqa nomlar bilan dostonda mavjud bo'lgandir.

Turkman va qoraqalpoq versiyalaridagi Shohabbos obrazi o'zbek qo'lyozma va toshbosma variantlarida tasvirlangan podsho obrazidan u qadarli farq qilmaydi. Ya'ni turkman versiyasiga ko'ra, podsho xalqning g'azabidan qo'rqib emas, balki Shovalad Shohsanamni G'aribga "bag'ishlagandan" keyingina, noilojlikdan, ularning qovushishiga rozilik beradi. Bundan, uning shafqatsizligi yanada bo'rttirib tasvirlanganligini bilish mumkin. Ozarbayjon versiyasida Shohabbos obrazi tasvirlanmagan.

Dostonning Bola baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li variantlari va ozarbayjon versiyasidan boshqa hamma variantlari va versiyalarida Xo'ja bog'bon obrazi mavjud. 6408, 1276, 541, 1449, L.710, L.3686-inventar raqamli nusxalar va Robiya xalfa qo'lidagi variantda hamda Qodir sozchi, Xudoybergan baxshi variantlarida u G'aribga mehribonlik qiluvchi, kambag'alparvar mehnatkash chol sifatida tasvirlanadi. Madraim baxshi, Tursun baxshi va Ro'zimbek baxshi variantlarida hamda turkman, qoraqalpoq versiyalarida oddiy mehnatkash, ammo yengiltak, shilqim bog'bon obrazi sifatida ko'zga tashlanadi. Chunonchi, Shohsanamga u olib kelgan guldastalar o'ziga yoqqanligini aytganida,

¹ . Abulgo'ziy B.Shajaraiturk. 143 – bet.

malika meni sevib qoldi, deb o'ylaydi. Uning o'sha paytdagi ruhiy holatini o'z tilidan Madrayim baxshi shunday ifodalasa:

Ko'ring, quloq soling yorning o'yina,
Dur – u, marjon tog'ilmishdir mo'ynina.
Xo'ja bog'bon Sanamjonning qo'ynina,
Kirsam o'ldirarlar, kirmasam o'lam...
(Madraim baxshi vaianti, qo'lyozma, 33 – bet.)
Tursun baxshi shunday ta'riflaydi:
Bog'bon bobongni shod ayla,
O'tganlarni obod ayla,
Raqib konglini o't ayla,
Kirsang bobongning qo'ynina
(Tursun baxshi varianti, qo'lyozma, 23 – bet.)
Ro'zimbek baxshi esa quyidagicha aks ettirgan:
Men sevmisham zebo Sanam otingni,
Sevsam o'ldirarlar, sevmasamarmon.
Elga mashhur bo'lgan asli zotingni,
Desam o'ldirarlar, demasam armon.
(Ro'zimbek baxshi variant, qo'lyozma, 32 – bet.)

Yuqorida ko'rib o'tganimiz, uchala baxshi variantlarida ham bog'bonning kulgili ahvolga tushganligi o'z ifodasini topgan. Keksa bog'bonning bunday muomalasidan jahli chiqqan Shohsanam kanizaklariga uni kaltaklab, haydab yuborishlarini buyuradi.

Dostonning o'n uchta variantlaridagi bog'bon obraziga bog'liq epizodda o'sha davr ijtimoiy muhiti o'z ifodasini topgan. Turkman va qoraqalpoq versiyalarida tasvirlangan Xo'ja bog'bon obrazi ham o'zbekcha variantlardagi bog'bon obrazidan farq qilmaydi.

6408, 1276, 541, 1449, L.710, L.3686 – inventar raqamli variantlarda hamda Qodir baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlarida Xizr obrazi tasvirlanadi. Turkiston folklorida qadimgi davrlardan beri qahramon faoliyatida ma'lum darajada rol o'ynaydigan, uni turli mushkul vaziyatlardan xalos qiluvchi homiy sifatida, Xizr obrazi keng tarqalgan. Dostonning 1276, 541 – inventar raqamli nusxalarida hamda Qodir sozchi, Ro'zimbek baxshi variantlaridan boshqa barcha variantlarda Xizr G'aribga Karbalo cho'lida yakka qolib, halokat yoqasida qolganida duch keladi: "ko'z ochib

yumguncha" uni Diyorbakirga eltib qo'yadi. Ro'zimbek baxshi variantida u G'aribga Halabdan chiqqan zahoti G'aribga duch keladi. 1276, 541 - inventar raqamli variantlarga ko'ra Qozoq viloyatidan o'z vataniga qaytayotgan Shohsanamga Xizr rahnamolik qiladi: "uni bir zumda o'z ko'shkiga keltirib qo'yadi". 6408, L.710 -inventar - inventar raqamli variantlarda hazrati Xizrning G'aribga rahnamoligi boshqa variantlardagiga nisbatan kengroq tasvirlangan. Ya'ni u G'aribga otning oyog'i izidan olingan tuproqni onasi va singlisining ko'zlariga surtsa, ularning ko'zlari ochilishini ham aytadi. Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, M.Y. Lermontovning "Oshiq G'arib" nomli ertagi va turkman, qoraqalpoq versiyasidagi homiy obrazi faoliyati tasviri ham shu variantdagi tasvirga o'xshash keladi. Ozarbayjon versiyasidagi Xizr obrazining faoliyati o'zbek variantlari va turkman versiyasidagi tasvirga nisbatan qisqaroq berilgan. 695 - inventar raqamli variantda voqea oxirigacha yetkazilmaganligi sababli bu obrazga aloqadoq epizod uchramaydi.

Dostonning 6408, 1276, 541, 695, L.710, L.3886 - inventar raqamli variantlari, Robiya xalfa nusxasi hamda Qodir baxshi va Ro'zimbek Murodov variantlarida chaqimchi kanizak obrazi tasvirlangan. Shohsanamning kanizi bo'lgan bu qizning ismi 6408 - inventar raqamli variantda qo'shaloq: Suvchi-Larzon; 1276, 541, 695, L.710, L.3686 - inventar raqamli variantlar, Qodir sozchi varianti va turkman versiyasida Suvchi, qoraqalpoqchada Sovchidir. Robiya xalfa va Ro'zimbek baxshi variantida bu obrazga oid epizod juda siqiq holda berilganligi sababli ismi yo'q. 6408 - inventar raqamli variantda Suvchi-Larzon kanizning chaqimchiligi, yengil tabiatli qiz ekanligi ancha keng yoritilgan. U G'aribning kelishgan qaddi-qomati, odobliligini ko'rib, uni sevib qoladi. Hattoki, G'aribga G'aribga o'zining dil so'zlarini izhor qiladi. Rad javobini olgach esa, Shohsanamning G'arib bilan birgaligi haqidagi xabarni uning otasi - Shohabbosga yetkazadi. Oqibatda G'arib va Shohsanam uchun ayriliq damlari boshlanadi. 1276, 541, 695, L.710, L.3686 - inventar raqamli nusxalarda, Qodir sozchi va Ro'zimbek baxshi variantida ham bu obrazga xos ayrim xususiyatlar yoritilgan. Bola baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li

variantlarida va 1449 - inventar raqamli nusxada, ozarbayjon versiyasida bu obraz uchramaydi.

Binobarin, dostonning barcha variantlari va versiyalarida G'arib, Shohsanam, Aqcha kaniz, ona, singil, Azbarxo'ja, Shovalad, Shohabbos, Xo'ja bog'bon, Xizr va chaqimchi kaniz obrazlari o'z zimmalaridagi faoliyatini bir xilda bajaradilar. Epos - tarixning badiiy ifodasi bo'lganligi sababli Shohabbos va Shovalad obrazlari ham yuqorida eslatganimizdek, real tarixiy shaxslardir. Bu obrazlar syujet ko'chishi davri mahsuli hisoblanadi. Har bir baxshi ijodida dostondagi obrazlar ma'lum darajada qayta ishlovlarga uchragan, albatta. Chunonchi, qo'lyozma va toshbosma variantlar hamda Ro'zimbek baxshi variantida ko'pgina obrazlar faoliyati keng tasvirlangan.

2.2. Dostonning badiiy vositlari va tili

Yozma adabiyotdagi kabi og'zaki adabiyotda ham badiiy asarning ta'sir kuchi, emotsional quvvati, ifodaviyligi uning til xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Xalq dostonlaridagi badiiy til uning "badiiy mahorat darajasini belgilashda mezon bo'la oladi"¹.

Binobarin, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlari va versiyalaridagi epik qarashlar, an'anaviy formulalar va stereotiplar (turg'un iboralar) asrlar osha o'g'uz qabilalari tili negizida shakllangan. Shu sababli bo'lsa kerak, dostonda mavjud ifoda vositalariga turkman va ozarbayjon versiyalaridagi bunday ifoda vositalari ko'p hollarda o'xshash keladi.

Ana shunday ifoda vositalaridan biri - parallelizmdir. Doston tarkibida obrazli parallelizm turlari anchagina:

Yuz tumanli tog'lar oshib,

Ohu ko'zli maral keldi.

Ishqning daryosiga tushib,

Sanam otli maram keldi.

(6408-inventar raqamli variant, 12-bet.)

Yoki:

¹. Saidov M.O'zbekdostonchiligida badiiy mahorat.T.: 1969.B.- 232.

Boz dumanli dog'laroship.
Ohu go'zli maral galdi.
Ishqni savdasig'a dushup,
Ohu go'zli maral galdi.
("Shohsanam - G'arib", 49-bet.)

Kuzatishlardan ma'lumki, dostonda parallelizm yaratish uchun qiyosiy manba sifatida hayvonlar tanlanishining asosi ibtidoiy odamlarning ilk tasavvurlariga borib taqaladi. Ibtidoiy odamlarda hayvonlarni kuzatish, sinash odati kuchli bo'lgan. Ba'zi hayvonlarning qochib qutilishi, bir-biriga suyanishi, "o'yin tushib" sakrashi ibtidoiy odam diqqatini o'ziga tortmay qolmas edi. Buning sababini izlash va bu haqda fikr qilish o'sha davrdagi odamlar ongida hayvonot olamida insonlarga xos belgi-xususiyatlar mavjud, degan sodda xulosalarni yuzaga keltirgan. Bunday kuzatish jarayonida totemistik tushunchalar vujudga kelgan. Ya'ni ibtidoiy odam sezgir va zo'r kuchga ega ba'zi hayvonlarni go'yo o'z ajdodi deb, muqaddas sanab, unga sig'ingan. Shu e'tiqoddan kelib chiqib, ma'shuqa sezgir, chiroyli, chaqqon maral-jayronga qiyos qilingan. Yuqoridagi she'riy parchada maral-jayronning tuman bilan qoplangan baland tog'lar osha kelishi real ma'shuqa - Shohsanamning ishq "o'tida yonib", G'aribni ko'rish, uning ishqiy qo'shiqlaridan bahramand bo'lish uchun boqqa kirib kelishi holatiga teng qo'yiladi. Natijada she'rda obrazli parallelizm yuzaga keladi.

Dostonda o'rdak, g'oz parallelizm uchun qiyosiy manba holida ko'p uchraydi. Folklorshunos Sh.Turdimovning yozishicha, qo'shiqlarda g'oz ijobiy ma'noda, o'rdak esa salbiy ma'noda beriladi. G'oz obrazining ijobiy ma'noda berilishiga sabab, qadimda, u osmondagi ezgu xudo va ruhlarning yerdagi elchisi sifatida e'tirof etilib, e'zozlangan. O'rdak esa yomon xudolarning, yovuz ruhlarning yerdagi elchisi sifatida qaralib, unga nisbatan salbiy urg'u berilgan¹. Biroq, Xorazm dostonlarida o'rdak (so'na) obrazi ham ijobiy ma'noda qo'llanilib kelingan. Masalan:

O'rdak uchar havo bilan,
Bulbul sayrar navo bilan.

Ostagina ibo bilan,
Yurishing bolama mangzar.
(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 5-bet.)

To'rtlikning 1-va 2-misralarida o'rdak, bulbul obrazlari - "ma'shuqa", "oshiq" yonma-yon keltirililadi. Ayni paytda keyingi misralarda ularga mohiyatan yaqin real oshiq G'arib obrazi keltiriladi. Shu asosda obrazli parallelizm hosil qilinishi orqali asosiy g'oyani badiiy ifodalashga erishilgan:

Bir nomardning pandin olib,
Ketar bo'lding boshing olib.
Bizni bu yerda o'tga solib
Og'ajon, qayga borursan?
(6408-inventar raqamli variant, 14-bet.)

Bir garrining pandin alip,
Geder bo'lding bashing alip.
Bizni yanar o'tg'a salip,
Ag'ajan, qayg'a barir san?
(Shohsanam - G'arib, 34-bet.)

Keltirilgan to'rtliklardagi "olib" so'zi ravishdosh bir xil pozitsiyada to'liq mos kelgan. Ya'ni misralar chegarasini aniqlab ko'rsatishi, 3-misraning qofiyadosh bo'lib kelishiga zamin tayyorlashi natijasida leksik-morfologik parallelizm yuzaga kelgan.

Turmam judolik dardina,
Ketaram Bog'dod shahrina.
Ko'z yumib g'amning bahrina,
Dur uchun boqmali bo'ldim.
(6408-inventar raqamli variant, 15-bet.)
Dushman ayriliq zahrine,
Giterman Bagdat shahrine.
Go'z yumup g'amning bahrina,
Dur uchun getmali bo'ldim.
(Shohsanam - G'arib, 32-bet.)

Yuqorida keltirganimiz, to'rtlikda uchta motiv mavjud: 1-Diyorbakrda turib Shohsanamni ko'rmay yashay olmaslik; 2-Bog'dod shahriga ketish; 3-hamma g'am-g'ussalardan ko'z yumish, qutilish, ularni esdan chiqarish. Ana shu uchta motivni teng va

¹. Turdimov Sh. O'rdagimiz qos o'ldi. // O'zbekisto adabiyoti va san'ati. 19 - iyul, 1985 28- son, 3 - bet.

o'xshash sintaktik birliklar orqali ifodalashdan ritmik-sintaktik parallelizm yuzaga keltirilgan.

Parallelizmning yuqorida qayd qilingan turlari, ayniqsa, *ritmik-sintaktik* turini dostonning har bir variantidan istagancha topish mumkin. Binobarin, bu o'rinda rus folklorshunosi V.M.Jirmunskiy va o'zbek olimi B.Sarimsoqovlarning ritmik - *sintaktik parallelizm* epik xalq she'rining yuzaga kelishi va *taraqqiyotidagi* eng umumiy, yagona yo'l ekanligi haqidagi fikrlarining to'g'riligiga ishonch hosil qilish mumkin¹.

Doston variantlari matnidagi "Saringga do'nayin", "Do'lansin, do'l do'lansin", "Man do'narman, ko'nglim do'nmas", "Oshiq'larga do'nmoq ordir"... kabi Xorazm dostonlariga xos, ayni paytda turkman va ozarbayjon variantlarida bir xilda ishlatilgan stereotiplar borki, ularni boshqa dostonlarda ham uchratish mumkin.

Dostonlarda asrlar davomida takror-takror ishlatilib kelinayotgan poetik vositalardan biri - ramzlardir.

Ma'lumki, ramz nafaqat xalq ijodi va yozma adabiyotda, balki, turmushning barcha jabhalarida keng qo'llaniladi. Ularni "ramz" nomi ostida bir - biriga birlashtirib turuvchi xossa - ularning har qaysisidagi ramz tarzida kelayotgan, tushunilayotgan narsa turg'un assotsatsiya uyg'otishidir².

Ramzlar, aslida, qadimgi odamlarning tabiat hodisalarining *sodir bo'lishi* sabablarini tushunmay, ularni ilohiylashtirilib, o'z nomi bilan atashdan qo'rqib, o'zga nomlar-ramziy atamalar vositasida atay boshlagan davrlarda paydo bo'lgan. Biroq o'sha paytda ular hali badiiy mazmun tashiydigan ramzlar emas, balki, hayotiy ehtiyojlar tufayli hosil qilingan zo'raki, oddiy ramzlar bo'lgan. Ammo keyinchalik ijtimoiy hayot o'zgarib, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi odamlarni o'z his-tuyg'ulari, fikr-kechunmalarini, holatlarini, turli qarashlarining ma'lum predmetga bog'lab, muayyan qadimiy tasavvurlarining izlari sifatida saqlanib qolgan daraxt, o'simlik, hayvon, qushlarni o'ziga qiyoslash obrazlashtirib olib, ramziy ifodalashga o'tganlar.

Shu tariqa ramzlar "tayyor tushuncha"ni namoyon etib, an'anaviylik kasb etdi va turg'unlashdi. Dostonda oshiq va ma'shuqaning ruhiy kechinmalariga mohiyatan yaqin bo'lgan tabiat hodisalari ramzga aylanib keladi.

Folklorshunos Sh.Turdimov xalq og'zaki ijodidagi ramzlarni o'zak ramzlar va vaziyat ramzlar tarzida bo'lib tadqiq qiladi¹. O'zak ramzlar an'anaviy va umuminsoniy ramzlarga, vaziyat ramzlar individual ramzlarga to'g'ri keladi. Xalq og'zaki ijodida asosan o'zak (an'anaviy) ramzlardan foydalaniladi, vaziyat (individual) ramz yaratish yozuvchilarga xos bo'lib, davrlar o'tishi bilan ular xalq orasida ommalashib an'anaviy, ya'ni o'zak ramzga aylanishi mumkin. O'zak ramzlar barqaror shakl va mazmunga egaligi, poetik ma'nosi obraz ichida yashirin kelishi, bu yashirin ma'no xalqning ushbu obraz haqidagi tasavvur, tushunchalari asosida anglashilishi, obraz bilan bog'liq tasavvur unutilsa, ramziy ma'no anglashilmay qolishi, o'zak ramzlar turli shakllar olib, yangi poetik ma'no hosil qila olishi asosiy xususiyatlardan hisoblanadi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida qo'llanilgan ramzlar respublikamizning boshqa joylaruda tarqalgan dostonlardagi ramzlar tizimidan unchalik farq qilmaydi. Chunki ramz, yuqorida aytib o'tganimizdek, qadimiy tasavvurlar bilan aloqador bo'lib, jahondagi barcha xalqlar ijodida umumiylik kasb etadi. Doston variantlarida ramzlar bilan aloqador, shuningdek, qushlar, hayvonlar olamiga dahldor "o'zak" ramzlar ko'proq uchraydi.

Qadimgi odamlar olam yorug'lik va qorong'ulikning, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat: yorug'lik va yaxshilik-oq, yorqin ranglarda; qorong'ulik va yomonlik - qora, xira rangda deb tushunganlar. Baxshi poklik, musaffolik, yaxshilik, ravshanlik, yuksalish, baxt, tinchlik va ezgulik ramzi hisoblangan oq rangning maftuni:

Yorim bergan oq ro'molim,

Sani qayda qo'yayin man. ...

(6408-inventar raqamli variant, 57-bet.)

"Oq ro'mol" - sifatlovchili ramziy ibora. Aslida ro'molning o'zi oila timsoli. Ikkala so'z birikkan holda baxtli turmush, oila

¹Turdimov Sh. Xalq qo'shiqlarida ramz. - T.: "Fan", 2020. - 192 b

¹Жирмунский В.М. Ритмико - Ритмико - синтаксический параллелизм как основа древнетюркского эпического стиха// Вопросы языкознания. М., 1964, № 4 С. 3 - 24.; Саримсоков В.О 'zbek adabiyotida sajl.T., 1978, 29 - bet.

² . Ulug'bek H. Abdulla Qodiriy va yangi o'zbek adabiyoti. - T.: Yangi asr avlodi, 2022. - 208 bet.

ma'nosini anglatyapti. Shohsanam ko'shkdan turib ro'mol tashlaganda G'arib bilan baxtli bo'lishini o'ylab ish tutgan. Bunday xususiyatni quyidagi misolda ham ko'rish mumkin:

Ajib tomoshali oq o'tog'ali,

Bog'i, bo'stonlari bordur Sanamning.

(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 31-bet.)

Yoki:

Yorim bilan oq o'tovga,

Kirgali joylarga keldim.

(Ro'zimbek baxshi variant, qo'lyozma, 89-bet.)

G'arib tilidan aytilgan bu misralardagi "oq o'tog'a", "oq o'tov" birikmalari ham osoyishta oila ramzi sifatida keltirilgan.

Qora rang - baxtsizlik, omadsizlik, qayg'u - musibat, yomonlik, o'lim ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, Guljamila Bog'dodga ketayotgan akasi bilan xayrlashar ekan, "qora" so'zini o'zining baxtsizligi ma'nosida ishlatadi:

Baxtima qora boylatib,

Og'ajon, qayga borursan?

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 7-bet.)

Iqbolima qora bog'lab,

Jon og'am, qayda borarsan?

(Qodir sozchi variant, qo'lyozma, 19-bet.)

Baqtim qarag'a baylatib,

Ag'ajan, qayda barirsan?

(Xudoybergan baxshi variant, qo'lyozma, 32-bet.)

Qadimgi odamlar inson dunyodan o'tgach, uning joni tanidan ayrilib chiqib, qushga aylanadi va uchib o'liklar mulkiga ketadi, deb tasavvur qilganlar. Bulbul odatda chamanzorlarda, gulzorlarda kezib, "navo bilan sayraydi"gan qush bo'lganligi, qizil gul shaydosi ekanligi tufayli dostonida oshiq obrazini ifodalab keladi. Bulbulni shaydo qiluvchi gul ma'shuqa ramzida beriladi.

G'arib bilan Shohsanamning xursandliklarini ko'rgan Aqcha kaniz Halabda qolgan sevgilisi Azbarxo'jani sog'inib, uni "bulbul" deb ataydi:

San oson aylama, mushkulim,

Uchmoding, shaydo bulbulim.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 10-bet.)

Shunqor, lochin - mardlikning ramziy obrazi. Shohsanam axtargani - G'aribni bog'dan topolmay, ishq dardida qiynalib aytgan monologida uni "shunqor" deb nomlaydi:

Yeti yildir shunqorimni uchirdim,

Borib tushdi Halab Shirvon elina.

(6408-inventarraqamli variant, qo'lyozma, 42-bet.)

Zog', qarg'a kabi qushlar, asosan, qabristonda, xarobalarda makon qurishi va rangi qora tusda bo'lishi, buning ustiga tovushining yoqimsizligi bu zotlarning dostonida yolg'izlik, tushkunlik, sovuq xabar ma'nolarini anglatuvchi ramzga aylanishiga asos bo'lgan. Darbadarlikda yurgan G'aribni ko'rolmay, hijron azobida qiynalgan Shohsanamning holatini tasvirlashda baxshi "zog'" salbiy ramzidan foydalangan:

Oyga tutashdi dog'lar,

Bulbulning o'rniga zog'lar,

Yorinnan ayrilgan yig'lar.

(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 18-bet.)

Keltirilgan parchadan ko'rinadiki, Shohsanam yetti yil davomida quvonch, kulgi, tabassum nimaligini bilmagan. Qayg'u-alam va chiqqisiz dard uzoq vaqtdan buyon uning hamrohi:

Bulbul uchib, zog'lar qo'ndi gulshanga...

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 26-bet.)

G'aribning "o'lgan"ligi haqidagi xabarni eshitgan Shohsanam "ko'ngil bog'ining vayron bo'lganligi", uning yolg'izlanib qolganligi tasvirlanadi.

Gul - o'zbek xalq dostonlarida "ma'shuqa" obrazini ifodalovchi, tugal badiiy obraz darajasiga yetgan ramz. Shuningdek, u sof muhabbat timsoli, oshiq uchun dil izhorining vositasi hamdir.

Gulning ramziy obraz sifatida epik she'rga kirib kelishi ham qadimgi davr odamlarining e'tiqodlari, tasavvurlari bilan bog'liq. Ibtidoiy odamlar gullarning yoqimli, xushbo'y va yoqimsiz hidli bo'lishini aniqlagach, yoqimli hidli gullarda yaxshi ruhlar yashaydi, deb hisoblab, ularga yaxshi munosabatda bo'lganlar... G'aribni tushida ko'rolmay, umidsizlangan Shohsanam tilidan aytilgan she'riy parchada bu ramz shunday ishlatiladi:

Bir toza gul edim, emdi men so'ldim,

Goh yig'latib, goh kuldirding,

Qizil gulni so'ldirding. ...

(Madraim baxshi varianti, qo'lyozma, 60 - bet.)

So'ldi bu oshiqning guli. ...

(Ro'zimbek baxshi varianti, qo'lyozma, 108-bet.)

Turli xil predmetlar va maishiy buyumlar ham doston personajlari ruhiy holati, kayfiyati, ularning o'zgalarga munosabatini badiiy ochib berishda ramziy-estetik vazifani bajaradi. Chunonchi, kundalik turmushda keng qo'llanib kelingan chiroq - xonadon boshlig'i, xo'jayini ramzidir. G'aribning Halab shahrida "o'lgan" - ligidan xabar topgan Ovodon kampir yakka-yu yagona suyanchig'i-o'g'lidan ayrilganini bayon qilib, aytgani she'riy parchada mazkur ramz qo'llanilgan:

G'arib o'lgan, o'chdi chirog'im,

Umrinning chirog'i o'chdi, naylayin.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 42-bet.)

O'g'lim o'lgan bo'lsa, so'ndi chirog'im,

Umrinning chirog'i so'ndi, naylayin. ...

(Ro'zimbek baxshi varianti, qo'lyozma, 131-bet)

Yuqorida keltirilgan misolda "chiroqning o'chishi" - oila boshlig'ining o'limi, onaning g'am-g'ussaga botib qolishi ma'nolarida qo'llanilgan. Bulardan tashqari, doston variantlarida oila belgisi bo'lgan - "imorat" - "chorbog'" ramzi ham uchraydi. G'aribning yeti yildan keyin Diyorbakirga qaytishidan umidini uzgan Shohsanam va o'g'lining darbadarligi, baxtsizligidan "kuygan" ona tilidan "chorbog'" ramzi ishlatilgan:

Xazon bo'lgan bu guliston chorbog'im.

(Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, qo'lyozma, 218-bet.)

G'am ila buzildi qurgan chorbog'im.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 41-bet.)

G'am yeli quritdi solgan chorbog'im.

(Ro'zimbek baxshi varianti, qo'lyozma, 131-bet.)

Dostonda boshqa o'zbek dostonlarida ko'plab qo'llaniladigan "tol", "tom", "terak" kabi ramziy obrazlar ishlatilmagan. Darvoqe, Xorazmda "qoromon" ramzi ko'p qo'llanilgani holda, Samarqand regionida bu ramz ishlatilmaydi. Chunki metafora konkret faktga nisbat berilganligi sababli ramz shakllangan makonda, avvalo,

unga haqiqiy material-manba vazifasini o'tovchi narsa-predmetning o'zi mashhur bo'lmog'i darkor. Shundagina u xalqning poetik tafakkuridan o'rin ola biladi. Holbuki, Xorazmda "tol" (majnuntol) o'smagan, "tom" so'zining o'rniga "uchak" so'zi qo'llaniladi. Bu mantiq nuqtayi nazaridan qaralsa, masala mohiyati yaqqol anglashiladi.

Umuman, doston variantlarida, ayniqsa, 6408-inventar raqamli variantda qo'llanilgan ramzlarda xalq psixologiyasining oddiy qirralaridan tortib, murakkab falsafiy qarashlarga barcha-barchasigacha o'zining jozibali ifodasini topa olgan.

Dostonning barcha mavjud variantlari matnlarida ham umumxalq tilida ko'p, faol qo'llaniladigan hikmatlar, maqollar, iboralar anchagina. Bularni o'rinli qo'llash va maqsadga muvofiq ishlatilishi tufayli doston tilining boy, obrazli va badiiy yuksak bo'lishiga erishilgan. Chunki, "maqol va matallar, purhikmat iboralar epos strukturasida badiiylik komponentlarining eng muhimlaridan biri sifatida yashaydi"¹. Dostonning qo'lyozma variantlari yozma manbalar bilan uzviy bog'langanligi tufayli she'riy misralar silliqanib, ularda qo'llanilgan hikmatli so'zlar maqollar darajasiga yaqinlashgan. Chunonchi, 6408-inventar raqamli variantdagi:

Dardli qul istar tabibin,

Har kim so'roqlar habibin -.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 4-bet.)

hikmati ertalab maktabga kelmagan Shohsanamning yo'lini poylab o'tirib, sabog'ini bilmaganligidan "jazolangan" G'arib tilidan ishlatiladi. G'aribga o'sha paytda saboq emas, Shohsanamning diydori g'animatligi ma'nolari hikmatga mohirlik bilan singdirilgan. Shuningdek, "manmanga zavol, kamtarga kamol" xalq maqoli she'riy vazn talabiga muvofiq:

Manmanlikning bir kun zavoli bordur,

Bu kamlikning axir kamoli bordur.-

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 5-bet.)

shaklida qayta ishlangan va G'aribning so'zlarini bo'rttirishga, hukmatning qudratini oshirishga xizmat qildirilgan. Hunar

¹Кидырбаева Р.З. Генезис эпоса "Манас", Фрунзе, 1980, с. 262.

o'rganishi zarurligi bahonasida Shohsanam maktabdan olinadi. Aslida Shohabbos qizini G'aribdan uzoqlashtirishni niyat qilgan edi. Chunki, G'aribning otasi o'lib, u yetim qolgan edi. Podshohning bunday manmalik qilishi oqibati yaxshilik bilan tugamasligi, sabr-toqatli, kamtar kishining qachon bo'lmasin, kamolotga erisha olishi muqarrarlighi ma'nolarini ifodalashda mazkur maqol qo'l kelgan.

Doston variantlarining nasriy qismlarida ham bunday ifoda va iboralar ko'p uchraydi. Masalan, mullaning G'aribni hujraga qamab, ustidan eshikni qulflab qo'yishi tasvirida; „xudo qarg'agan qulni payg'ambar asolari bilar urar" (6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 4-bet) maqoli o'rinli qo'llanilgan. Bu hikmat va maqollarni G'arib tilidan ishlatilishi uning o'sha paytdagi holatini ko'rsatishga aynan mos kelgan.

Shuningdek, ovga chiqqan Shohabbos bilan Hasan vazirning o'zaro qudag'aylik xususida ahdlashuvi tasvirida vazir tomonidan: „qopdagini qodiri bilar" (Qodir baxshi variant, qo'lyozma, 2-bet) maqoli qo'llanilgan. Ya'ni ona qornidagi homilaning o'g'ilmi, qizmi ekanligini bandasi emas, faqat qodir-xudoning o'zigina biladi, ma'nosi anglashilgan. Ushbu maqoldostonda vazirning donoligini donishmandligini ko'rsatishga xizmat qilgan.

Ro'zimbek baxshi variantidagi "oyni etak bilan yoqib bo'lmas", (Ro'zimbek baxshi variant, qo'lyozma, 65-bet) hikmati G'aribning bog'da ekanligi sirini kanizaklarga ma'lum qilish lozim, degan ma'noni anglatadi. Dostonning 1276, 541, 695, L.710, L.3686-inventar raqamli variantlarining she'riy qismida uchraydigan ayrim maqollar 6408-inventar raqamli variantda mavjud maqollarning qayta ishlangan shakillaridir. Bu doston nasriy qismida esa maqol va hikmatli so'zlar juda kam qo'llanilgan.

Dostonning 6408-inventar raqamli variantining she'riy qismida qo'llanilgan hikmatli so'zlar qadimiy bo'lganligi sababli ular asarda an'anaviy formulalar darajasiga yaqinlashgan. Shu bols ular dostonning turkman va ozarbayjon versiyalarining she'riy parchalardagi hikmatli so'zlarga juda o'xshab keladi. „Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni variantlarning she'riy

qismida improvizatsiya ma'lum darajada kamroq, nasriy qismlar esa bundan mustasno. Zotan, dostonning nasriy qismini har bir baxshi o'zining iqtidoriga yarasha har xil ijro jarayonida umumiy mazmuni saqlangan holda qaytadan hikoya qiladi. Shu sababli variantlar nasriy matnlarida ishlatiladigan hikmatli so'zlar, maqollar tom ma'noda improvizatsion xarakterga ega bo'ladi.

Doston variantlari matnidagi ifoda vositalaridan epitet va o'xshatishlar an'anaviylik bilan chambarchas bog'langandir. Negaki, bu badiiy elementlar stereotip (turg'un ibora) xarakterida bo'lib, barcha o'zbek dostonlarida bir xil qo'llaniladi. O'z navbatida, doston variantlari matnidagi bunday ifoda vositalariga ham o'xshab ketadi.

Epitetlar-asosan, yor go'zalligini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Yuzi gul, sochi sunbulim,

Dol bo'yinli nigorim.

Labi shakar, qalamqosh yorim,

Quchsam nozik bellaringdan.

(6408 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 7 - bet.)

Gul yuzli, sarv bo'yi nigorim.

(Madraim baxshi varianti, qo'lyozma, 21-bet.)

Gul yuzli, sarv qadli nigorim.

(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 10-bet.)

Dostonning 6408 - inventar raqamli varianti matnidagi „murcha miyon", „malak" kabi stereotip epitetlarni mavjud qo'lyozma, toshbosma va og'zaki variantlarning hammasida hamda turkman, ozarbayjon versiyalarida uchratish mumkun. Shuningdek, Bola baxshi va Qodir baxshi Shohsanamning portretini tinglovchi ko'z oldida gavdalantirishda, xulq-atvori, holatini tasvirlashda "simin saqoq", „shirin dudoq", „oy yuzli, jodu ko'zli", „kipriklari o'q", „g'amzasijon olg'uvchi", „o'zi xush qiliqli" „qo'li sozli", „yuzi holli" kabi o'zbek xalq dostonlarida necha asrlardan beri ishlatilib kelinayotgan epitetlardan foydalanganlar. Shu sababli bo'lsa kerak, Shohsanam obrazi asrlar osha „suluvlar saltanati sohibasi" sifatida yashab kelmoqda.

Doston variantlarida qo'llanilgan o'xshatishlar asarning badiiy-estetik quvvatini oshirishda muhim vosita bo'lgan. Bu

tasvir vositasi qahramon va predmetlarga nisbatan qo'llanilib, fikrga aniqlik kiritadi:

Yuzingni o'xshatdim bayram oyina,
Qoshingni o'xshatdim kamon yoyina.
(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 14-bet.)

O'zingni o'xshatdim eram oyina,
Qoshingni megzadim kamon yoyina.
(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 10-bet.)

Husni to'lgan oyday bo'lib,
Qoshi yoyilgan yoyday bo'lib.
Ho'p dunyodor boyday bo'lib,
Shohsanam borar yonida.
(Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, qo'lyozma, 135-bet.)

Parvonadek o'zim o'ta,
Otdig'im joylarga galdim.
(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 14-bet.)

Keltirilgan she'riy parchalarda, yuz-chehrani oyga, qoshni yoyga o'xshatish, qiyoslash asosiy o'rinni egallaydi. Buning ildizlari insoniyatning ibtidoiy tasavvurlariga borib taqaladi. Jumladan, inson dastlab „dunyo yetti sayyoraning o'rtasida, dunyoning atrofi yetti qavat osmon bo'lib, osmonlarning har birida yetti sayyoraning biri joylashgan. Haftaning har bir kunida dunyoning ishlarini bu sayyoralardan biri idora etadi“, deb tushungan¹. Bu sayyora - yulduzlarning biri oydir. Oyning birinchi yulduz ekanligi haqidagi tushuncha va qarashlar matriarxat davrida tug'ilgan. Oy ham ayol, yerdagi odamlarning homiysi - onasi sifatida qaralgan. Shu boisdan bo'lsa kerak, oy hozirda „Oymomo“ deb e'zozlanadi. (Oyni o'g'il bola sifatida tasvirlanadigan afsonalar ham borligini unutmashimiz lozim.) Dostonlarda go'zal, chiroyli yuzli qizlarni „eram oyi“ „bayram oyi“ga o'xshatish ham o'sha qarashlarning natijasi o'laroq, hanuzgacha saqlanib qolgan.

Darvoqe, qoshni kamonga qiyoslash ham shu qarashlar mahsulidir. Doston variantlaridagi o'xshatishlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek voqea - hodisalarni, asosan, tabiat jismlari,

hodisalari bilan qiyoslash natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, gul bilan bog'liq tasvir vositasi ko'p uchraydi:

Har sabo qizil gulday ochilib,
Bilmadim, na bo'ldi kelmas G'aribim.
(6408- inventar raqamli variant, qo'lyozma, 33-bet.)

Hijron kunlarida Shohsanam tilidan aytilgan mazkur she'riy misralarda oshiq va mashuqlarning bir - biriga yetisha olmasligi gulning ochilmayotganligiga o'xshatilgan. G'arib tilidan aytilgan:

Gulday ochilmayin so'lgan G'aribman -
(6408- inventarraqamli variant, qo'lyozma, 37-bet.)

misrasidao'zining Shohsanamga yetisha olmay darbadarlikda yurishi, umidsizlanishini hali ochilib ulgurmagan gulning uzib olinib, so'ldirib tashlanishiga qiyoslanadi.

Ko'p hollarda oshiq ovozi bulbul navosiga, biyronligi to'tiga, chehra oftobga, oyga, qomat sarvga, shamshodga yoki alifga, yanoq olmaga nisbat beriladi. G'arib uchun sevgan yorining har bir gapi yoqimli bir kuy, navo hisoblanadi.

Ovozing mengzar bulbula,
Ishqingdan tushdim bu yo'la.
(Xudoybergan baxshi varianti, qo'lyozma, 53-bet.)

She'riyatda (epik she'r) qizlar qomatini sarv daraxtiga nisbatlash bejiz emas. Chunonchi, odamzod qadim o'tmishda o'z ajdodlarini ayrim o'simlik va daraxtlardan keyinchalik, ba'zi hayvonlardan tarqalgan, -deya tasavvur qilgan va muqaddaslashtirgan¹. Sarv daraxtining tanasi to'g'ri, uzun, chiroyli ko'rinishli va tikka o'sadi.

Bunday shakl mag'rurlikni ham ifodalaydi. Shundan bo'lsa kerak, uzun bo'yli, chiroyli qomatli qizlarda mag'rurlik ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, „alif“ harfidek tik qomatlilar ham suluv ko'rinadi. G'aribga Aqcha orqali salom yo'llagan Shohsanam ham „alif qomatli“ qiz:

Salomina yubordi ul go'zal dilbar,
Alifdek qomati sarv, sanobar.

Yeti yil kutib „ko'zlari to'rt bo'lgan“ yori G'aribning biyron-biyron gapirishlarni eslaydi va qo'msaydi. Shuningdek, uzoq

¹Murot O'roz. Turk asotirlari. "Sirli olam" jurnali, 1991 yil, 3 - son, B.- 18 - 19.

¹Веселовский А.И. Историческая поэтика. Москва, Высшая школа. 1989, С.- 114 - 117.

ayriliqdan so'ng mashuqasi bilan uchrashgan G'arib tilidan Shohsanamning qizilga moyil yanog'i ol, ya'ni qizil olmaga nisbat qilinadi:

Ol yonog'ing tutgin oldim,

Tar xinoli qo'llaringdin .

(6408 – inventar raqamli variant, qo'lyozma, 7-bet.)

Qahramonning portretini chizishda asosiy rolni o'ynagan, qahromon haqida tinglovchi tasavvuriga aniqlik kiritgan yuqoridagidek qadimiy an'anaviy o'xshatishlarni 6408-inventar raqamli nusxadan boshqa variantlarda kam uchramiz. Bu albatta, baxshining mahorat darajasini ko'rsatadi.

Tasvirning bu vositasi doston variantlarning nasriy qismlarida ham ko'p uchraydi. Chunonchi, „Shohsanam tovsday tovlanib, ohuday qadam tashlab G'aribga yaqin keldi“, singari o'xshatishi 6408-inventar raqamli variant, Qodir sozchi, Tursin baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlarida aynan bir xil ishlatilganligini ko'rish mumkin. Bu Shohsanamning G'arib bilan uchrashuvi oldidagi holatini ifodalashdan iborat. O'xshatishni barcha baxshilar izchil ravishda ko'zlagan maqsadlariga muvofiq qo'llashga harakat qilishgan.

Dostonda voqea mazmunidan tushuniladigan **metaforalar** ham uchraydi. Bunda o'xshatilayotgan narsa - predmetning nomi keltirilmagan holda tinglovchi fikrning qanday mazmunga ega ekanligini tushunib yetadi. Narsa - predmetlarning nomi ularning xususiyatlari bilan o'xshatilayotgan predmet o'rtasidagi umumiylikda yaqqol ko'zga tashlanadi:

Munda tursang ko'rmish raqiblar sani,

Zog'lar kelib buzar toza gulshanni.

Kel, bir yot o'lkaga olib ket meni,

Bu yerlarda suhbat baror kelturma.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 29-bet.)

Shohsanam G'arib bilan o'rtasidagi sevgiga rahna soluvchilarni „zog'lar“ deb ataydi. Ayni chog'da uning sevgisi „toza gulshan“dan iborat. Shuning uchun ham Shohsanam „zog'lar kelib toza gulshan“ni buzishlarini istamaydi. Yuqorida ketirilgan she'riy parchalar ozmi - ko'pmi o'zgarishlar bilan 1276, L.3686-inventar raqamli nusxa, Qodir sozchi, Xudoybergan baxshi, Madraim

baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlarida han uchraydi. Ammo bu variantlarda voqea 6408 – inventar raqamli variantdagi darajada ifodaviylik olmagan.

Doston variantlarining matnida mubolag'alarning o'ziga xos o'rni bor. Buni bo'layotgan to'ying Shovalatniki emas, G'arib bilan Shohsanamniki ekanligi jarchi tomonidan e'lon qilinishi epizotida yaqqol ko'rish mumkin:

Namak kabi har qozonda qaynarman,

Tushib ishqing daryosinda bo'ylarman.

(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 6-bet.)

Namak kabi har qozonda qaynadim,

Dushib ishqing daryosinda bo'yladim.

(Bola baxshivarianti, qo'lyozma, 23-bet.)

Baxshi birinchidan, G'aribning Shohsanamni butun vujudi bilan sevlashini, sevgilisi uchun har qanday to'siqlarni yengishga tayyor ekanligi, ikkinchidan, yetti yillik darbadarlikdan so'ng murodiga yetganligiga xursandligini o'z tilidan shu zaylda mubolag'ali tarzda bayon qilgan. G'aribning qoshig'idan tanigan Shohsanamning yuzidagi pardani ochib, to'yxona ahlini lol qoldirishi epizodini ishlashda „yetti qavat pardani ochib, G'arib tomonga yurayotgan paytda Shohsanam husnining shu'lası jahonni tutib ketdi“. (Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 29-bet.) kabi mubolag'a qo'llanilgan. Aynan shu mubolag'a 6408 – inventar raqamli variantda ham uchraydi. Qizig'i shundaki, xuddi shunday mubolag'ali tasvir „Yusuf va Zulayho“ dostonida Yusufning o'z yuzidagi pardani olgan paytini ifodalovchi motivda ham qo'llanilgan¹. Demak, baxshilar bu dostonga mubolag'ani „Yusuf va Zulayho“ dostonidagi shu tasvir ta'sirida kiritgan, deyishga asos bor. Yusuf kabi Shohsanamning ham xalq idealidagi qahramon, jismiga monand ma'naviy kamolotga erishgan sohibjamol ekanligini bo'rttirganlar. Shuningdek, dostonidagi qush ovlab yurgan podshohning o'z qizini tanimasdan, „parizod“ deb o'ylab, unga „oshiq bo'lib qolishi“ epizodi tasviri ham mubolag'ali: „Shohabbos Shohsanamni ko'rib, bu parizod ekan, deb o'ylab, behush bo'lib yiqiladi“ (6408 – inventar raqamli variant,

¹.Ro'zimboyevS ning „shaxsiy arxivida dostonning 1899-yilda ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi saqlanmoqda. Юсуп и Зулейха. Москва. Наука, 1991, С.- 339.

qo'lyozma, 33- bet) tarzida beriladi. Binobarin, folklorshunos O.Madayevning " Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida aksari qo'llaniladigan mubolag'a oshiq – ma'shuqani yoki ma'shuqa oshiqni ko'rganda jamolining go'zalligidan behush bo'lib yiqilishidadir"¹.degan fikriga shu o'rindagina qo'shilish mumkin. Obraz xarakterini ochuvchi "Bir oh ursam, olam yonar o'tima" an'anaviy mubolag'asini ko'proq 6408 – inventar raqamli nusxada va og'zaki variantlarda bir necha o'rinlarda uchratish mumkin. Lekin shunisi qiziqqi, dostonning Bola baxshi variantida xuddi o'sha kayfiyatni ifodalash maqsadida shu mubolag'aning teskarisi qo'llanilgan: "Ohlar ursam, g'arqob ko'llar muz bo'lar...(Bola baxshi varianti qo'lyozma, 34 – bet). Albatta, bu ibora ham xalq tilida mavjud, ammo Bola baxshi talqinida u sovuq tin olish ma'nosida qo'llanilgan. 6408 – inventar raqamli variantdagi:

Shohanam qiz derlar mani otimi,

Bir oh ursam, olam yonar o'tima.

(6408 – inventar raqamli variant , qo'lyozma, 7 – bet.)

Bir oh ursam, olam yonar o'tima,

Yaratgan xudoyim, yetish doimo.

(Xudoybergan baxshi varianti, qo'lyozma, 45 – bet)

Shohsanam qiz derlar mani otimi,

Bir oh ursam, olam yonar o'tima.

(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma,12 – bet)

Tursun baxshi, Madraim baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlarida ham mavjud mubolag'ada esa Shohsanamning ham faxr, ham erki bo'g'iq sanamligidan nolishi bo'rttirilgan. Dostonning 6408 – inventar raqamli variantda mubolag'a go'zallik ta'rifida, hijron va visol onlari bayonida ham qo'llanilgan:

Alifdek qomatli sarvi sanobar,

Oh, mening og'zimdan chiqdi tutunlar.

(6408 – inventar raqamli variant , qo'lyozma, 5, 8,23 – betlar.)

Asrlar osha "asarning badiiy ziynatini oshirib kelayotgan" yuqoridagiday mubolag'alarni dostonning boshqa variantlaridan ham xohlagancha topish mumkin.

Dostonning o'zbek variantlarida ham ozarbayjon, turkman va qoraqalpoq versiyalarida ham asarning badiiy bo'yoqdorligiga alohida e'tibor berilgan. Poetik fikrning yorqin ifodasiga erishish maqsadida she'rlarda anafora va alleteratsiyalarga ko'proq o'rin beriladi. Natijada har bir band yaxlit poetik jamlanmaga aylangan, uning zamirida o'ziga xos fonetik uyg'unlik yuzaga kelgan:

Yo birovning pandin oldi,

Yo bir g'ayri bilan bo'ldi.

Yo bir yomon darda qoldi,

Na bo'ldi, yorim galmadi.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 5-bet)

Majolim ketubdur, holim ketibdur,

Davlatim ketibdur, molim ketibdur.

Nomusim ketubdur, orim ketubdur,

Qatordin ayrilib, norim ketibdur.

(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 8 – bet)

Dostonning L.710, L.3686 - inventar raqami nusxalari va Qodir sozchi, Xudoybergan baxshi, Madraim baxshi, Tursun baxshi, Ro'zimbek baxshi variantlarida ham anafora hamda alleteratsiyalar serobdir.

She'riy misralarda radif qo'llash voha dostonchiligiga xos an'anaviy xususiyatlardandir. Ayniqsa, dostonning qo'lyozama variantlarida radif og 'zaki variantlarga qaraganda ko'proq uchraydi.

Radif – arabcha so'z bo'lib, yonma – yon yoki ketma – ket turgan ikki yoki undan ortiq narsa, safdosh, hamsafar degan ma'noni ifodalaydi¹. V.M. Jirmunskiy radifning xalq dostonlarida paydo bo'lishini mumtoz adabiyotning ta'siriga bog'laydi².Darhaqiqat, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining qo'lyozma variantlarida radifning ko'plab uchrashining ildizlari yana yozma adabiyotga borib taqaladi. Radif masralardagi ta'kid ottenkasini kuchaytirib, muayyan ohangdorlikni yuzaga keltirgan:

Ey sanam, majruh bo'libman yordin ayrilgana,

Bulbul i sho'ridaman gulzordin ayrilgana.

¹Madaev O. Xorazm dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nomzodlik diss..118 – bet.

¹Is'hoqov Y.So 'z san'atiso'zligi.T.: 2006, B.- 44.

²Жирмунский В.М.Ритмика – синтаксический параллелизм как основа древне тюркского эпического стиха.С.- 32.

Ul latofat gulshani g'amxordin ayrilgana,
To'ti – yu shirin suxan kaptardin ayrilgana,
Bo'lmagay hech kim besabab xudodin ayrilgana.
(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 39-bet.)

Yuqorida keltirilgan she'riy parchada sevgan yoridan ajralib, Shohabbosning haramiga keltirilgan ma'suma – Oyjamolning hijron, ayriliq iztiroblari "ayrilg'ana" (ayrilganga) radifi orqali ta'kidlanadi. Doston variantlarida "ayrim hollarda butun misralari radifga aylangan" he'riy parchalar ham mavjud. Bu baxshilarning an'anani qay darajada davom ettirganligini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, an'anaviy xususiyatlar 6408-inventar raqamli variantda ko'proq saqlanganligining guvohi bo'lamiz.

Doston variantlarida lirik kechinmalar bilan yo'g'rilgan **ritorik so'roqlar** ham uchraydi:

Kishini sevdigi bo'yla bo'lurmu,
Avval suyub, oxir ko'zdan qolurmu?!

Yorin bo'yla yig'latibin qo'yurmu,
Ko'ran bormu, bilan bormu yoronlar?!

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 41- bet)

Bunday badiiy barkamol misralar dostonning boshqa variantlarida ham uchraydi. Ammo 6408-inventar raqamli variantdagidek badiiy jihatdan pishiq ishlangan emas.

Inversiya so'zlovchining turli his – tuyg'usi, hayajoni, ichki kechinmalarini izhor qilish uchun emotsional – ekspessiv stilistik talabga ko'ra voqe bo'ladi. Baxshi doston kuylashi jarayonida voqea ichiga sho'ng'iydi. Voqea – hodisani tinglovchiga to'liq va aniq yetkazish maqsadida tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qiladi. Bunda gap, jumla tuzishning ahamiyati nihoyatda katta. Masalan, Bola baxshi dostonidagi voqea – hodisalarni bayon qilar ekan, doimo gapning bosh bo'laklarini yonma – yon qo'yib, ikkinchi darajali bo'laklarni ulardan keyin keltiradi: "G'aribjon aytdiki, taqsir, to'xtang, qattiq gapirmang. Siz oraga tushgannan bari man yetti yil maydonda yurganman". (Qo'lyozma, 23 – bet) Yoki: "Podsho hukm qildiki, buni olib borib, baland dorga chakinglar. Bu kal go'rganga go'z, eshitganga quloqbo'lib dursin!" (Qo'lyozma, 12 - bet). Keltirganimiz, birinchi jumlada o'zining haqiqiy oshiqligini ta'kidlash uchun to'yxonada

G'aribning podshoga murojaati tasvirlangan. Tinglovchi beixtiyor sevishganlar tortgan azob – uqubatlar barham topib, ularning bir – biriga tezroq yetishuvini istaydi. Ikkinchi misolda esa podshoning zolimligi o'z tilidan bo'rttiriladi.

Demak, bayondagi bu uslub voqealardagi ta'kid ohanglarini ifodalaydi, tinglovchilar diqqatini asosiy masalaga jalb qilishda juda katta rol o'ynaydi. Ammo Xudoybergan baxshi, Madraim baxshi, Qodir sozchi, Tursun baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ro'zimbek baxshi kuylagan doston variantlarining bayonlarida bu hol deyarli uchramaydi. Negaki, dostonlar nasri konkret baxshi ijro uslubi bilan bog'liq. She'riy qismlar sababli bu hodisadan tipologik xususiyatlarni axtarish, izlash unchalik to'g'ri emas. Biroq variantlar matnidagi she'riy qismlarda bu usulni turli shakllarda uchratish mumkin. Bular quyidagilar:

1. **Iltilimos va yolborish ohangini ta'kidlash.** Bu shaklni ko'proq achchiqlanib, bog'dan chiqib kelayotgan G'aribga qarata Shohsanam tilidan aytilgan she'riy parchada uchratamiz:

Kel, G'aribim, qayt endi,

Senga qurbon bo'lsin, jonim.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 28- bet)

Senga qurbon bo'lsin, jonim.

Kel, G'arib, qayt bu ahdingdan.

(1276 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 27- bet);

(695 – inventar raqamli variant, qo'lyozma, 36 – bet)

Kel, G'aribim, qayt emdi,

Senga satqo bo'lsin, bu shirin jonim.

(Xudoybergan baxshi varianti, qo'lyozma, 55 – bet).

2. **Yupatish ohangini ta'kidlash.** Bu yetti yilga va'dalashib ajralish epizodi tasviridagi G'aribning Shohsanamga qarata aytgani she'riy misralarda uchraydi:

Qodir Olloh g'ariblikka solmasin,

Yig'lama, Sanamjon, ketsam kelarman.

6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 31- bet)

Yo'ldoshim ketdi, deb hargiz yig'lama,

Yig'lama, Sanamjon, ketsam kelarman.

(695 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 45- bet)

Sevgan yori Aqchani axtarib chorboqqa kelgan
Azbarxo'janing aytgani Shohsanamga she'riy satrlarda ham
inversiyaning bu turi uchraydi:

Men yorimni axtarib keldim bu yerga,
Yig'lama, Sanamjon, kelur G'aribing.

(1276 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 46- bet)

3. **Buyruq ohangini ta'kidlash.** Vaqtincha chorbog'ni
tark etish haqidagi taklifni qabul qilmagan G'aribga qarata
Shohsanam tomonidan aytilgan she'riy parchada bu holat shunday
shaklda beriladi:

Emdi suhbat vaqti o'tdi,
Ket, G'aribim, turma bunda.

(6408 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 19- bet)

Shohsanam der, kechdim sendan,
Ket, G'aribjon, turma bunda.

(695 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 14- bet)

4. **Qat'iylik ohangini ifodalab, ta'kidlash.** Ushbu shakl
Aqchanning Shohsanam nomidan G'aribni Diyorbakirga qaytishini
iltimos qilishi tasvirida, G'arib tilidan javob tariqasida aytilgan
she'riy parchada uchraydi:

G'arib aytur, Diyorbakir ketmonam,
O'lguncha Sanamning otin tutmonam.

(695 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 26- bet)

5. **Tantanavorlik ohangini ifodalab ta'kidlash.** Bu
to'yxonaga kirib kelgan G'aribni uning ashulasi, ovozidan tanigan
Shohsanam tilidan aytilgan she'r tarkibida uchraydi:

Jon poyondozi bo'lsin hoki poyingga,
Xush kelding, savdigim, sabo kelibsana.

(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 18 - bet)

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni leksikasi juda
murakkab xususiyat kasb etadi. Doston so'z qatlamida arab va fors
tillariga oid so'zlar ko'plab uchraydi:

Bu notavon go'zzim ishqinda zori,
G'amzasi jon olar, shirin guftori.

Ko'nglima xush yoqar ajib raftori,

Tillodan shonasi bordur Sanamning.

(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 19 - bet.)

Keltirganimiz she'riy parchada 19 ta so'z ishlatilgan bo'lib,
shundan 9 tasi : **notavon, zor, jon, shirin, guftor, xush, raftor, shona, nam, ishq, g'amza, ajab** kabilar arab tiliga mansubdir.

Dostonning 6408 - inventar raqamli variantdagi ko'pgina
she'riy parchalarda qadimiy Xorazm lahjasining o'ziga xos
alamatlari saqlangan. Masalan:

Qotti kuch ayladi ko'ngul karvoni,
Ko'chanda iklonib, balki kelmonam.
Sendan o'zga yerda so'ron davroni.
So'ronda iklonib, balki kelmonam.

(6408 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 20 - bet)

Shohsanamdan achchiqlangan G'aribning unga qarata
aytgani yuqoridagi to'rtlikda: adabiy tildagi "**kelmasman**",
bo'lishsiz fe'li "**kelmonam**", "so'rganda", "ko'rganda" fe'llari
"so'ronda", "ko'ronda" shaklida saqlangan. Bunday xususiyatlar
1276, 695, 541- inventar raqamli variantlarda hamda baxshilar
og'zidan yozib olingan variantlar matnlarida ham mavjud.
Chunonchi:

Gechalar qon yig'lab, gunduz dinmisham,
Ichib ishqning sharobina qonmisham.
G'arib aytar, ishq o'tina yonmisham,
Jafolar chekmisham, yor manga naylar.

(Qodir sozchi varianti, qo'lyozma, 29 - bet)

Keltirganimiz variant matnidagi to'y epizodi tasvirida
G'aribning xalqqa qarata aytgani quyidagi to'rtlikda adabiy tildagi
"tinmadim" (to'xtamadim), "qonmadim", "yondim" so'zlari
"dinmisham", "yonmisham" tarzida qo'llanilgan. Qadimiylik va
mahalliy hududlarning tillaridagi o'ziga xosliklar affiksarlarda : "- t"
o'rniga "- d", "- ga" o'rniga "- ka, - qa" o'rnida "- na/ - a, - ma"
qo'lga /qo'la/ , o'ziga / o'zina, ellarga/ ellara, holimga/ holima
tarzida. Shuningdek, quyidagi:

Man G'aribni shogirdiyam,
Oltin - kumushni gardiyam.

Sanamjon qizni dardiyam,

Momo, san g'arib, man G'arib.

(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 6 - bet.)

Keltirilgan to'rtlikda "-man" o'rniga " -yam" shaklida qo'llanilganki, "-yam" fors- tojik tili qo'shimchasi bo'lib, "- man" tuslovchi qo'shimchasini anglatadi. Demak, "shogirdiman, gardiman, dardiman" deyilyapti.

Darvoqe, dostonning qo'lyozma variantlari matnida: "yuroykon", "ketmal", "olmanam"... kabi fe'l shakllari ko'plab uchraydiki, ular Xorazm shevasiga xos bo'lib, shubhasiz, o'zbek tilshunosligi uchun munosib ilmiy tadqiqot manbai bo'lishi mumkin.

Doston variantlari matni leksik qatlamidagi bunday murakkablikning sababi, albatta, oldingi bobda ta'kidlaganimiz, uzoq tarix bag'ridadir. Negaki, dostonlarning tili xalq tarixi, uning ijtimoiy hayoti, yashash tarzi, jug'rofik muhiti bilan chambarchas bog'langan.

Dostonning qo'lyozma variantlari, asosan, Janubiy Xorazm bilan bog'langan. Chunonchi, 6408 - inventar raqamli variantning so'z qatlami tarkibida ozarbayjon, turkman tillari uchun umumiy bo'lgan umumo'g'uz leksikasiga oid: *boji, balo, bale - bale, gurbon, o'lam, do'na - do'na, do'ndi...* kabi ko'plab so'zlar bor. Ushbu so'zlar Xorazm dostonchilik maktabi vakillari - Xudoybergan baxshi, Tursun baxshi, Madraim baxshi hamda samarqandlik Fozil Yo'ldosh o'g'li, toshkentlik Ro'zimbek baxshi variantlarida juda kam qo'llanilgan. Buning ildizlari ham qadimiy etnogenetik jarayonlarga borib taqaladi. Ozarbayjon, turkman tillariga xos so'zlarning mavjudligini ham o'sha aloqalar mahsuli, deb qarash lozim.

Binobarin, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni so'z qatlami murakkab xususiyatga ega. Doston tili, ifoda vositalari ko'p xalq baxshilari ijodi, iqtidorining asrlar osha sayqallangan, ishlangan tafakkur durdonalaridir.

Asrlar davomida og'zaki ijod yozma adabiyotga samarali ta'sir ko'rsatib kelar ekan, xalq ijodiyotining o'zi ham yozma adabiyotning ta'siridan bebahra qolmaydi. Bu ta'sir xalq she'riyati bilan aruz munosabatida ko'rinadi.

Aruz she'riy tizimi Xorazm dostonlarida, jumladan, "Oshiq G'arib va Shohsanam" eposida respublikamizning boshqa viloyatlarida tarqalgan dostonlardagiga qaraganda ko'proq

qo'llanilgan. Professor S.Ro'zimboyevning fikriga ko'ra, yozma adabiyotdan xabardor kotiblar dostonni kitobat qilish jarayonida uning tarkibiga o'zlarining ayrim muxammaslari va g'azallarini ham kiritib yuborganlar¹.

Shuningdek, mumtoz adabiyot she'riy shakllarini savodli shoir - baxshilar ham dostonga olib kirganlar. Xorazm dostonlaridagi har bir she'riy parcha maxsus nomlangan kuy bilan ijro etiladi. Ana shu an'ana ham doston tarkibida aruz vaznidagi she'rlarning bo'lishini taqozo etadi.

Doston variantlari matnida muxammas, g'azal, murabba' kabi mumtoz she'riyat shakllari uchraydi. Dostonning 695, 1449 - inventar raqamli variantlaridan boshqa nusxalarida mavjud - Shohsanamning mullaga iltijo qilib aytgani qo'shig'i muxammas shaklida:

Bulbuli sho'ridaman, gul ishqida faryod qil,
Tinmayin shom - u saharlar dod ila bedod qil.
Oshig'i sargashta bo'lsang, uyquni barbod qil,
Bir imorat sol kelib, ishq uyini obod qil,
Jon mullam, bir zamon shu yorimni ozod qil...
(Bola baxshi varianti, qo'lyozma, 3 - bet;
Qodir sozchu varianti, qo'lyozma, 8 - bet;
Xudoybergan baxshi variant, qo'lyozma, 7 - bet;
Ro'zimbek baxshi varianti, 8 - bet.)

Ko'rinadiki, muxammas ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilotun) bahrida yaratilgan.

Dostonning 6408, 1276, L, 710, L. 3686 - inventar raqamli va Ro'zimbek baxshi variantlarida mavjud - O'jamolning Shohsanamga qarata aytgani:

Ey, Sanam, majruh bo'libman yordin ayrig'ana,
Bulbul/i/ sho'ridaman gulzordin ayrilg'ana,
Ul latofat gulshani g'amxordin ayrilg'ana,
To'ti/i/ shirin suxan, kaptardin ayrilg'ana,
Bo'lmag'ay hech bir ish besabab xudodin ayrilg'ana.
(6408 - inventar raqamli variant, qo'lyozma, 37 - bet.)

¹Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlarining spetsifikatsiya, tipologiyasi va poetikasi. Doktorlik diss. T.: 1990, B.- 351.

Keltirganimiz, ushbu muxammas ham ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilotun, foilun) bahrida yaratilgan.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi she'riy parchalar, asosan, 8 va 11 hijoli misralardan iborat:

Endi yora ketar chog'im, (8)

Qo'zg'olib otashim, dog'im. (8)

Mehnatli solgan chorvog'im, (8)

Imoratlar, xush qol endi (8)

(Ro'zimbek baxshi variant, qo'lyozma, 14-bet).

Qabo falak ming elidin, (8)

Yuragimda dog'lar qoldi. (8)

Bulbul ayrildi gulidin, (8)

Binafshali bog'lar qoldi (8)

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 14-bet).

Qoshing mehrobiga boshim qo'ymisham (11)

Mastona chashmingga qurbon o'lmisham. (11)

Qaqnus kabi ishq o'tina yonmisham, (11)

Kel emdi, rom ayla xuvla, sevgilim. (11)

(6408- inventar raqamli variant, qo'lyozma, 13-bet.)

Dostonda, asosan, murabba', ya'ni to'rtlik shaklidagi she'riy parchalar yetakchi va salmoqli o'rin egallaydi. Barcha Xorazm dostonlaridagi singari "Oshiq G'arib va Shohsanam" dagi she'riy parchalar "a b a b", "v v v g"..... tarzida qofiyalanadi. Har bir she'riy parcha o'zining boshlanmasiga ega bo'lgandek tuyiladi. Ya'ni "a b a b" tarzida qofiyalanar ekan, keyinchalik juft misralarning oxirgi so'zlari, ayrim hollarda butun misralar radifga aylanadi. G'aribni bog'dan axtarib, topolmay qiynalgan Shohsanam tilidan Aqcha kanizga aytilgan she'riy parcha bu fikrning isboti bo'la oladi.

Aqcha kaniz, g'amsiz boshim,

G'amxona bo'ldi, naylayin.

Bir so'z bilan oshno yorim,

Begona bo'ldi naylayin.

Men keldim yorni so'roqlab,

Yuragimni o'tda dog'lab.

Yor qochdi mendin uzoqlab,

Gumon bo'ldi, naylayin.

(6408-inventar raqamli variant, qo'lyozma, 8-bet).

Bunday qofiyalanishning doimiy ravishda takrorlanishi sababini yana dostonning yozma adabiyotga bog'liqligidan izlash to'g'riroqdir.

Folklorshunos O.Madayev "dostonda 8 hijoli misra o'rniga 9 hijoli bo'lishi Xorazm dostonlaridagi she'riy parchaning buzilganligidan darak beradi", deb o'z fikrini isbotlash maqsadida yig'ma variantda mavjud - Guljamolning akasini Bog'dodga kuzatayotgan paytda aytgani quyidagi she'riy parchani kelturadi:

Oradan bir so'z kechmayin, (8)

Og'ajonim, qayga borursan? (9)

Mening ko'nglimni ochmayin, (8)

Og'ajonim, qayga borursan? (9)

Keltirilgan parchadagi "Og'ajonim, qayga borursan?" misrasidagi "-im" egalik qo'shimchasi ortiqchalik qiladi, deb ko'rsatadi. Holbuki, tahlil qilinayotgan doston variantlarining barchasida mavjud:

Oradan bir so'z o'tmayin, (8)

Og'ajon qayga borarsan? (8)

Mani gulim ochilmayin, (8)

Og'ajon qayga borarsan? (8)

Keltirganimiz, she'riy parchaning bir misrasi ko'rayotganimizdek, 8 hijoga ega. Ya'ni O.Madayev ko'rsatganidek, "she'riy parcha buzilgan" emas. Bu o'rinda O.Madayev 1956-yilda nashr qilingan dostonning yig'ma variantiga asoslanib, bir yoqlama xulosa chiqargan, ko'tinadi. (Negadir, yig'ma variantdagi o'sha she'riy parcha bu olim ko'rsatganidek berilgan.)

Respublikamizning boshqa joylarida tarqalgan dostonlar she'riy parchadagi misralarning uzun-qisqaligi mazmun bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Xorazm dostonlari shu jumladan, "Oshiq G'arib va Shohsanamda" da esa misraning uzun-qisqaligi, turoqlarning bir va turlicha bo'lishi o'sha o'rindagi mazmunga ma'lum darajada bog'liq. Ammo misralar qisqa bo'lgani holda alamli iztiroblar tasvirlangan o'rinlar ham doston variantlari matnida mavjud:

Sanam aytur: Ey, mehribon,

Qayg'uli bo'ldi shirin jon.

Raqiblar kelib shu zamon,

Zindon bo'ldi jahon menga.

(Ro'zimbek baxshi varianti, qo'lyozma, 48-bet.)

Dostonning 11 hijoli misralarida turoqlar tizimi ancha murakkab tuzilishga ega. Bunday misralarda eng ko'p uchraydigan turoqlar tizimi: 4+4+3 dir:

Quloq sol // eshit mening// arzimni,

Kundan-kunga // battar bo'ldim// dardingdan.

Nalar chekdim// froqingdan// hajringdan,

Qonlar yig'lab // o'tar bo'ldim// dardingdan.

(6408- inventar raqamli variant, qo'lyozma. 7-bet)

Ayrim hollarda "4+4+3" tizimi boshqa tizimlar bilan o'rin almashishlar ham kuzatiladi:

G'ariblikda // bir kelmading// qoshima, 4+4+3

Rahiming kelmas // ko'zdan oqqan // yoshima. 4+4+3

Ajal // yostu // g'ini qo'yib // boshima, 2+2+4+3

Endi // man dod // etar bo'ldim // dardingdan. 2+2+4+3

(6408- inventar raqamli variant, qo'lyozma. 8-bet)

Demak, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi she'riy vazn, misradagi hijolar soni, hatto turoqlarning joylashtirilishi jihatidan ham boshqa hudud dostonlaridan farq qiladi. She'riy parchalar, asosan, murabba' janrida bo'lib, ularda barmoq vazni yetakchi hisoblanadi.

Xorazm vohasida ilgaridan professional san'atining taraqqiy yetishi dostonlardagi she'riy parchalarning musiqaga mos tuzilishini taqozo etgan. Natijada dostonlar, jumladan, tekshirayotganimiz doston tarkibidagi she'rlar ritmik jihatdan ancha mukammal she'riy matn shakliga kirgan.

Binobarin, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining asosiy mazmunini sevgi-muhabbat sarguzashtlar tashkil etadi. Bu voqealar ixcham kompozitsiyada o'z ifodasini topgan.

Dostonda nasriy qism muayyan qisqalikka ega, she'riy qism esa, salmoq jihatdan ancha katta. Nasriy parchalar asar fabulasini rivojlantirishda asosiy omil sifatida kamroq ishtirok qiladi. Voqealar rivoji ko'pincha siqiq tarzda bayon qilinadi. Shu sababli

obrazlar talqini, ularning ruhiy kechinmalari, asosan, she'riy parchalarga singdirib yuboriladi.

Doston variantlaridagi tabiat tasviri personajlarning ma'naviy, axloqiy kayfiyatlarini ochishga yo'naltirilgani holda xalq ijodkorlarining estetik qarashlarini ham o'zida mujassamlashtiradi.

Dostonda dialog va monologlar ham asar qahramonlarining xarakteri, ichki kechinmalarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi: ularda dramatik psixologizm yuqori darajada ifodalanadi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni obrazlarning ishqiysarguzasht girdobi ichida harakat qilishi asarda tabiiydek tuyuladigan darajada tasvirlanadi. G'arib va Shohsanam obrazlari orqali xalq o'zining sevgi, sadoqat haqidagi tushunchalarini umumlashtirishga harakat qilgan.

Doston ham o'g'uz ham qipchoq lahjalarida, shuningdek, qo'lyozma nusxalar qiroatxon-qissaxonlar tomonidan ijro qilinganligi sababli badiiy til jihatdan murakkab xarakter kasb etadi. Ammo doston leksikasida o'g'uz lahjasining ta'siri salmoqlidir.

Ushbu dostonda mahalliy dialektga xos leksik ifodalar, vohaga xos oronim va gidronimlar, etnik atamalar, ozarbayjon va turkman tillari bilan mushtarak iboralar ko'plab uchraydi.

XULOSA

"Oshiq" turkumiga kiruvchi dostonlar turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, obraz tizimi, voqealarni tasvirlash usuli va asosan, ishqiy -sarguzasht mazmuniga egaligi jihatdan alohida guruhni tashkil etadi. Ushbu turkumga kiruvchi xalq dahosining nodir yodgorligi sifatida asrlar osha yashab kelayotgan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni o'zining shakllanish davridan boshlab, hozirgacha xalqimizning ma'naviy olamini munavvar qilishda muhim ahamiyat kasb etgan epik asarlar sirasiga kiradi.

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining o'zbeklar orasida tarqalish areali kengdir. Ya'ni bu asar Xorazm viloyati, Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlari, Turkmaniston respublikasining Turkmanobod (Chorjo'u) va Toshovuz (Dosho'g'uz) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston respublikasi hududida yashovchi o'zbeklar orasida tarqalgan. Doston qo'lyozma, toshbosma usulida yozilgan va baxshilar, qissaxon-qiroatxonlar, xalfalar repertuaridan munosib joy olgan.

Doston variantlarini alohida-alohida tavsiflash shuni ko'rsatadiki:

Variantlarning hammasida dostonning asosiy syujeti saqlanadi; umumiy g'oyaviy yo'nalish bir xil. Farqlar ayrim epizodlarning qo'shilishi, tushirib qoldirilishi va variant matnining badiiylilik darajasi hamda motivlarning ishlanishida yaqqol ko'rinadi. Qadimiy an'anaga yaqinligi, matnga ijodiy yondashganligi, matnning g'oyaviy-badiiy afzalligi, epizodlarning ishlanish jihatidan 6408 - inventar raqamli variant barcha variantlar ichida eng yetugi hisoblanadi;

Dostonning barcha variantlarida uning asosiy motivlari xalqchil. Ular monogam oilaviy munosabat - bir ayolni sevis, birgina ayol bilan yashash g'oyasini har jihatdan sifatlab beradi. Variantlarda bir motivning turlicha shakllari aks etganligiga, har xil talqin qilinganligiga qaramay, ularning mazmuni umumiy va yagonadir;

Tarixiy-ijtimoiy va iqtisodiy-maishiy munosabatlar natijasida doston syujetini tashkil etuvchi motivlar silsilasi hamisha rivojlanib, takomillashib, ba'zan esa arzim uzvlarni yo'qotib, yangilanib

borgan. Ya'ni ko'pchilik variantlarda mavjud - hukmdorlarning oldidan bo'g'oz jonivorlarning chiqishi, G'aribning oldiga Shayton alayhila'naning chiqishi kabi motivlar bevosiya xalq ertaklaridan o'tgan;

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonini avloddan - avlodga yetkazishda baxshilar kabi ijodkor dostonchi-xalfalar, ijrochi-sozanda va qiroatxon-qissaxon xalfalar ham katta rol o'ynaganlar. Xalfa ijrochiligidan iidizlari juda qadimiy bo'lib, "Avesto" talqinlari bilan bog'liq aqidalarni tarqatuvchilar tomonidan diniy ruhdagi dostonlarning xalq yig'inlarida o'qilishi qiroatxon-qissaxon xalfalar ijrochiligi an'anasini yuzaga keltirgan;

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni bobosyujeti milodning IX asrlarida Sirdaryo bo'ylarida paydo bo'lgan. O'g'uz turklarining Xorazm vohasiga kelib o'rnamishi natijasida doston syujeti ham ko'chgan va XIII asrning oxirlarida to'la-to'kis shakllangan. Migratsion jarayonlar tufayli doston syujeti XIV asrda Ozarbayjon hududiga ko'chgan;

Nasriy qismning kamayishi hisobiga she'riy parchalar salmog'ining oshishi, musiqa taqozosi bilan she'riy parchalarning qat'iy poetik shakllari asosiga qurilganligi, obrazlarning ruhiy kechinmalari, asosan, she'riy parchalarga singdirilib yuborilganligi "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni kompozitsiyasining soddalashuvi va ixchamlashuviga olib kelgan.

Doston kompozitsiyasining takomillashuviga, hozirgi ixcham holiga kelishida, g'oyaviy barkamollik kasb etishida ko'plab baxshilar avlodlarining hamda xalfalarning ulkan xizmatlari bor;

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining obrazlar tizimi murakkab bo'lmay, nisbatan sodda tuzilishga ega. Unda obrazlar soni ham unchalik ko'p emas. Dostonning bosh qahramoni sozanda-oshiq sifatida gavdalanadi. Sevgi-muhabbat poklik, rostgo'ylik, xalqparvarlik, insonparvarlik unga nisbatan xalq muhabbatini, mehrini vujudga keltirgan fazilatlaridir. Obraz yaratishda haqqoniylikka intilish, ularning qator xatti-harakatlarini dalillashga urinish ushbu dostonning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi;

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi badiiy ifoda vositalari asrlar osha o'g'uz qabilalari tili negizida shakllangan. Shu sababli

dostonda mavjud ifoda vositalari ko'pincha turkman va ozarbayjon versiyalaridagi bunday ifoda vositalariga o'xshash keladi;

"Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi har bir she'riy parchaning maxsus nomlangan kuy bilan ijro qilinishi uning tarkibida aruz vaznidagi she'rlarning nisbatan ko'proq bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, yozma adabiyotdan xabardor bo'lgan kotiblar ham dostonni kitobat qilish davomida matnga o'zlarining ayrim g'azal va muxammaslarini kiritib yuborganlar. Shu tufayli aruz she'riy tizimi "Oshiq G'arib v Shohsanam" da boshqa dostonlarga qaraganda ko'proq qo'llaniladigan;

Dostonning ravon tili, uning tarkibidagi xalqning yuksak estetik dididan darak beruvchi badiiy bo'yoqdorlik asrlar osha silliqlanib, sayqallanib yetuklik darajasiga o'sib chiqqan. Shu boisdan doston matnidagi ko'plab she'riy parchalar voha xalqi orasida qo'shiq sifatida keng tarqalgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Istiqbolli loyihalar xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda. // Xalq so'zi. – Toshkent, 2018-yil, 23 - yanvar
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947 - sonli Farmoni // <http://lex.uz/pages/getpage>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi // [http://uzo.uz/o'z/documents/kitob-mahsulotlarini chop etish va yaratish tizimini rivojlantirish 12-01-2017](http://uzo.uz/o'z/documents/kitob-mahsulotlarini-chop-etish-va-yaratish-tizimini-rivojlantirish-12-01-2017).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora - tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ - 3271- sonli Qarori // lex.uz/docs/3338600.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 4320 - sonli Qarori
6. Abdullayev H. Xalq dostonlari va ularning variantlari. Toshkent: "O'qituvchi", 1984. - 123 b.
7. Abdullayev H. O'zbek va qoraqalpoq xalq dostonlarining o'zaro aloqalari va tipologik xususiyatlari. Filolog.fan. dokt diss. Toshkent: 1988. 303 b.
8. Abduraxmonova M. Ramz tasnifi xususida // Adabiy meros. 2023- yil, 2 - son (8) 38-43 b.
9. Abdullayev F. Xorazm shevalari. Toshkent: "Fan", 1961. 346 b.

10. Abulgo'ziy B. Shajarai turk. Toshkent: 1992. "Cho'lpon", 192 b.
11. Акимов М. Азербайджанское ашигское творчество. АДД. – Тошкент: 1985. С.31.
12. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. СПб, Санкт – Петербург: 1887. С.182.
13. Шарбатов Г.Ш. Арабско – русский учебный словарь, Москва: Издательство «Русский язык», 1981. С. 1196.
14. Aristotel. Poetika. Toshkent: "Adabiyot va san'at", 1980. 150 b.
15. Beruniy A. Tanlangan asarlar. I tom. Toshkent: "Fan", 1968. 486 b.
16. Бартольд В.В. Хорезм // Сочинения, Том III, Москва: Издат. АН. 1965. С. 544.
17. Буниятов – В.М. Государство Хорезмшахов-ануштегинидов. Москва: «Наука», 1986. С.248.
18. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. Toshkent:, "O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi". 2008. 425 b.
19. Задыкина К.Л. Узбеки дельты Амудары. // Материалы Хорезмской археолого – этнографической экспедиции. Москва: «Наука», 1952. С.343.
20. Zarifov H.T. "Alpomish" eposining asosiy motivlari. // "Alpomish" – o'zbek xalq qahramonlik eposi. Toshkent: "Fan", 1999. 128 b.
21. Гарриев С.А. Туркман эпосы, дессанлары ве гундогар халкларынын эпика доредижилиги. Ашгабат: "Ылым" 1982. С. 129.
22. Hasanov Sh.A. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek dostonlari poetikasi. Nomzodl. diss. avtoref. Toshkent: 2004. 47 b.
23. Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. Ленинград, Издательство российской академия наук; 1925, С.24.
24. Shasanam – Garip. Ashgabat: "Hayka", 1955. 172 b..
25. Zufarov S. Shohsanam va G'arib. // Adabiy meros. 1981, 2 (18) – son. 67 – 68 b.

26. Жирмунский В.М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. Москва: ГИХЛ. 1947, С. 520.
27. Жирмунский В.М. Сказание об Алпамыше и богатырская сказка. Москва: Издательство восточной литературы. 1960 С. 335.
28. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Ленинград: "Наука", 1974. С. 628.
29. Жирмунский В.М. Огузский героический эпос "Книга Коркута" // "Книга моего деда Коркута. Москва-Ленинград: "Наука", 1962. С. 246.
30. Жирмунский В.М. Ритмика – синтаксический параллелизм как основа древне тюркского эпического стиха. // Вопросы языкознания. Москва: «Наука», 1968. №1. С.3 – 32.
31. Jumanazarov U. Tarix haqiqati va xalq ijodi badiiyati. – Toshkent: "Elmu spressmediya". 2007. 104 b.
32. Jo'rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. Toshkent: "Fan", 1991. 184 b.
33. Jo'rayev M., O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. Toshkent: "Fan", 1991. 153 b.
34. Devanova I. "Hurliqo va Hamro" dostoni variantlarining qiyosiy tahlili va badiiyati. Fil. fanl. nomzodi. diss. avtoref. – Toshkent: 1999. 25 b.
35. Ishayev A. Shohsanamning vatani qayer? // Fan va turmush, 1971, 2- son, 26 -27 b.
36. Ибрагимов Н. Арабский народный роман. Москва: "Наука", 1984. С.256.
37. Кыдырбаева Р.З. Генезис эпоса «Манас». Фрунзе: "Илим", 1980. С.280.
38. Madayev O. Xorazm dostonlarida obraz yaratishning ayrim xususiyatlari haqida. // Hayot va adabiyot. ToshDU ilmiy ishlari, 1 –chi qish. Toshkent: 1968. 64- b.
39. Игнатьева Е.А. Формирование и развитие жанров чувашской эпической поэзии. Автореферат дисс. Кан. фил. наук. – Чебоксары: 2003. С. 21.
40. Madayev O. Xorazm dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Fil. fanl. nomzodi. diss. Toshkent: 1973. 132 b.

41. Maksetov K.M. Qoraqalpoq xalq qahramonlik dostonlarining poetikasi. Fil.fanl. dok.diss. Nukus, 1965. 134 b.
42. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том II. Москва-Ленинград: «Наука», 1939. С.617.
43. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent: "Fan", 1979. 152 b.
44. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. Toshkent: "Fan", 2008. С.410.
45. Mirzayev T. O'zbek adabiyotida qofiya. // O'TA. 1972, 5-son, 82-90 b.
46. Mirzayev T., Sarimsoqov B. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti. // O'zbek folklorining epik janrlari. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1981. 174 b.
47. Mirzayeva S. O'zbek xalq romantik dostonlari poetikasi. Toshkent: "Fan", 2004. 192 b.
48. Муравьев Н.В. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 - 1820 годах. - Москва: В типографии Августа Семена. 1822. С. 85.
49. Murod O'roz. Turk asotirlari. // "Sirli olam", Toshkent: 991 yil, 3 - son, 18 - b.
50. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма. // Культура и искусство древнего Хорезма. Москва: «Наука», 1981. С. 227.
51. Неразик Е.Е. Об этнических процессах в ранне средневековом и средневековом Хорезме. // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. Тошкент: "Fan", 1986. С. 223.
52. Якубова С. Азербайджанское народное сказание «Ашик Гариб», Баку: Издательство А.Н. Азербайджанской республики. 1968. С. 198.
53. Вайнберг В.И. Скотоведческие племена в древнем Хорезме. // Культура и искусство древнего Хорезма. Москва: «Наука», 1981. С. 126.
54. Веселовский А.И. Историческая поэтика. Москва: «Высшая школа». 1989. С. 406.
55. Ojiza. Toshkent, 2003. 122 b.

56. Ollaberganova S.H. Xalfalar ijodining o'zbek folkloridagi o'rni. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, Toshkent: 2006. 22 b.
57. Ollaberganova S.H. Xalfalar ijodining o'zbek folkloridagi o'rni. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent: 2006. 135 b.
58. Олденбург С.Ф. Предисловие к книге Ариолда «Свет Азии» СПб. 1906. С.20.
59. Oshiq G'arib va Shohsanam. Toshkent: 1956.
60. Oshiqnoma, 1- kitob, Urganch: "Xorazm", 2006. 135 b.
61. Oshiqnoma, II- kitob, Urganch, "Xorazm", 2006. 348 b.
62. Oshiqnoma, III- kitob, Urganch, "Xorazm", 2008. 340 b.
63. Rasulov X. O'zbek epik she'riyatida xalqchillik. Toshkent: "Fan", 1973. 148 b.
64. Rahmonov B. O'zbek xalq epik she'r tuzilishi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: 1983. 18 b.
65. Рапопорт Ю.А. Раскопки городища Шахсенем в 1952 г. // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Том II, Москва: «Наука», 1958. С. 533.
66. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari. Toshkent: "Fan", 1985. 74 b.
67. Ro'zimboyev S. "Oshiq" turkumi dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari (o'quv qo'llanma). Toshkent: "O'qituvchi", 1987. 62 b.
68. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi. Filolog. fanl. dokt.diss. Toshkent: 1990. 374 b.
69. Ro'zimboyev S. Специфика, типология и поэтика Хорезмских дастанов. АДД, Toshkent: 1990. С.29.
70. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonchiligi epik an'analari. Urganch, "Universitet", 2008. 58 b.
71. Ro'zimboyev S., Ro'zmetov H. Folklor atamallari izohli lug'ati. Urganch: "Universitet", 2007. 56 b.
72. Saidov M. O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat. Toshkent: "Fan", 1969. 263 b.

73. Saidov M.O'zbek xalq dostonlarida vazn masalalari. // O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1959 3 –son, 37 - b.
74. Sarimsoqov B.Badiylik asoslari va mezonlari. Toshkent: "Fan", 2004. 204 b.
75. Sarimsoqov B.O'zbek adabiyotida sa'. Toshkent: 1978, 128 b.
76. Sarimsoqov B. Qofiya va she'r sistemasi haqida.// O'zbek tili va adabiyoti.- Toshkent: 1975, 6 –son, 36 - 41b.
77. Sobirova N. Xorazm "oshiq" turkumi dostonlari syujeti, yetakchi motivlari va obrazlar tizimining mifologik asoslari.Filolog. fanl. nomzodi. diss. avtoreferati .Toshkent: 2004. 22 b.
78. Sobirova S.Xorazmning "Lazgisi" // Yoshlik, 1990. 4 – son, B.- 66.
79. Solijonov Y.Nutq va uslub. Toshkent: «Cho'lpon»,2002. 128 b.
80. СнесаревТ.Д. Объяснительная записка к карте населения узбеков на территории Хорезмской области (конец XIX нач. XX век). // Хозяйственно – культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. Москва: 1915.
81. Самойлович А. Н. Очерки по истории туркменской литературы. Туркменистан, Том I. 1928. С.-131.
82. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верования и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: «Наука», 1969. С. 336.
83. Сазонова В.М. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. Ленинград: "Наука", 1978 . С.98.
84. Карриев Б.А.Эпические сказания о Корогли и тюркоязычных народов. Москва: «Наука», 1968. С.260.
85. Книга моего деда Коркута. Москва - Ленинград. «Наука», 1962. С.299.
86. Korqut ota kitobi. Koni Bo'rabek o'g'li Bamsi Bayraq dostonini bayon etar xonimey, hikoyati. // Yoshlik.1988. 5 – son, 47 – 53 b.
87. Короглы Х.Г.Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. Москва: «Наука», 1983. С. 336.
88. Короглы Х.Г. «Шахсенем и Гарып» - народный дастан. АКД, Москва : 1965.С.28.

89. Иванов М.С. Очерки истории Ирана. Москва "Гос. Полит.издат", 1952. С. 468
90. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. Tamaddun",Toshkent: 2006.128 b.
91. Тахмасиб М.Г.Азербайджанские народные дастаны .АДД, Баку, 1965. С.28.
92. Толстов С.Р. Древности верхнего Хорезма // Вестник древней истории. Москва: Издательство АН 1941, № 1. С. 155 - 184.
93. Толстов С.П. Древний Хорезм. Москва, Изд. МГУ,1948.С.352.
94. Толстов С.П. По следам древнехорезмской цивилизации. Москва, - Ленинград: Издательство АН.1948. С.328.
95. Толстов.С.П. Материалы Хорезмской археолого – этнографической экспедиции. Москва: Издательство АН. 1945 – 1948, 1952. С.- 810.
96. Толстова Л.С. Вопросы ранней этнической истории народов Приаралья. Нукус, 1984. С 248
97. Turdimov Sh. Xalq qo'shiqlarida ramz. – Toshkent: "Fan", 2020. 192 b.
98. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li " dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. Toshkent: "Fan", 2011. 148 b.
99. Turdimov Sh. Etnos va epos. Toshkent: O'zbekiston, 2012. 96 b.
100. Xorazm xalq qo'shiqlari. Toshkent: 1965, 96 b.
101. O'zbek folklori masalalari. Toshkent: "Fan",1970. 239 b.
102. O'zbek folklorining epik janrlari.Toshkent: "Fan", 1981. B.- 158.
103. O'zbekiston tarixi, I tom. Toshkent: 1979. "O'zbekiston", 278 b.
104. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 12- jild, Тошкент: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. С.712 b.
105. O'zbek tilining izohli lug'ati.Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 1981. 322 b.

106. Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.Й., Этнографические очерки материалы культуры узбеков. Тошкент: "Fan", 1983. С.126.

107. Shasanam – Garip. Ashgabat, 1955. С. 172.

108. Чичерев В.В. Вопросы изучения эпоса народов СССР (В книге // Вопросы теории и истории народного творчества. Москва: "Наука" 1959. С. 246.

109. Hazrati Ali haqida hikoyalar. Toshkent: 1992.

110. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. Toshkent: "Sharq". 1998. 222 b.

111. Юсуп и Зулейха. Москва: "Наука". 1991. С. 339

112. Еремеев Д.С. Этногенез турок. Москва: "Наука", 1976. С.274.

113. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. Qarshi. "Nasaf", 1999. 169 b.

114. Eshonqul J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. Toshkent: "Fan". 2011. 116.

115. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. Toshkent: "Fan", 2006. 121 b.

116. Eshchanova G. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida xotin-qizlar obrazi tasviri. Xorazm davlat muallimlar tayyorlash oliy bilimgo'hi prof.-o'qituvchilari an'anaviy ilmiy anjumani materiallari. Urganch, 1991. 12- 13 b.

117. Eshchanova G. Go'zallik timsoli. // Guliston, Toshkent: 1992- yil, 5 – son, 21-b.

118. Eshchanova G. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining qo'lyozma varianti. Respublika yosh adabiyotshunoslarining an'anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. Toshkent: 1993, 60 – 61 b.

119. Eshchanova G. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining Qodir baxshi varianti. // O'zbek tili va adabiyoti, Toshkent: 1993- yil, 2 – son, 53- 59 b.

120. Eshchanova G. Xorazm xalfalari. // Adabiy meros, Toshkent: 1993 – yil, 3 – son, 39 – 41b.

121. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining badiiy tili haqida. Xorazm folklori, 1- tom, Urganch, 1998, 6- 10 b.

122. Eshchanova G. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni to'g'risida. Tafakkur ziyosi. (Ilmiy – uslubiy to'plam). Urganch, 2019. 36- 39 b.

123. Эшчанова Г. "Ошик Гариб ва Шохсанам"- древнейший народный дастан. Вестник. 2000. Нукус. № 6-7. С.98 – 100.

124. Эшчанова Г., Рузимбоев С. Тюркские версии дастана «Ашык Гариб» Вестник. Нукус. 2002. С.110- 112.

125. Eshchanova G. Ko'rqu ota kitobi va uning "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoniga munosabati. Xorazm folklori (Ilmiy to'plam). Urganch, 2003. 41-44 b.

126. Eshchanova G. Xorazm dostonlari va aruz she'riy tizimi haqida. Xorazm folklori (Ilmiy to'plam). Urganch, 2003. 39 – 41b.

127. Эшчанова Г. К вопросу композиция Хорезмских дастанах. Вестник, №5, Нукус, 2003 С.56-58.

128. Eshchanova G. Xalfachilik – qadimiy ayollar san'ati. "Ayol va jamiyat" mavzusidagi ilmiy – amaliy anjuman materiallari. Urganch, 2003. 24-b.

129. Eshchanova G. Xorazm dostonlarida epitetlarning qo'llanish doirasi. Филологические исследование. Урганч, 2003. С.55- 57;

130. Eshchanova G. Ramzlar va ularning Xorazm dostonlarida qo'llanilishi. Ilm sarchashmalari. Urganch, 2004. 65- b.

131. Eshchanova G. Xorazm dostonlarida Xizr obrazi haqida. Филологические исследование. 8- том. Урганч, 2004. С.8- 10;

132. Эшчанова Г. Своеобразие портретной характеристики образов дастанов. Вестник. Нукус. 2005, №3. С.168 – 169.

ARXIV MATERIALLARI:

I. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (sobiq) A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti huzuridagi H. Zarif nomli Folklor arxivida saqlanayotgan doston variantlari:

1. Oshiq G'arib va Shohsanam. 6408 – inventar raqamli qo'lyozma.

2. Bola baxshi Abdullayev varianti, qo'lyozma, inv.N 597;

- 3.Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, qo'lyozma, inv.N 1497;
 4. Xudoybergan baxshi varianti, qo'lyozma, inv.N 1501;
 II.H.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar institutida
 saqlanayotgan doston variantlari:
 1.Ro'zimbek Murodov varianti, qo'yozma, inv.N.7237.

- III. Shaxsiy arxivlarda saqlanayotgan doston variantlari:
 1. S.Ro'zimboyevning shaxsiy arxivida: Qodir sozchi varianti,
 qo'lyozma.
 2. G.Eshchanovanning shaxsiy arxivida: Tursun baxshi varianti,
 qo'lyozma.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Doston variantlari tavsifi, yetakchi motivlari va genezisi.....	9
I.1.Doston variantlari tavsifi.....	9
I.2.Doston ijrochiligida xalfalarning tutgan o'rni.....	15
I.3.Doston motivlarinig qiyosiy tahlili.....	19
I.4. Doston genezisi masalasi.....	28
II bob. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining badiiyati.....	38
II.1.Doston kompozitsiyasi va obrazlar tizimi... ..	38
II.2.Dostonning badiiy vositalari va tili.....	61
Xulosa.....	88
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	91

ESHCHANOVA GAVHAR

**"OSHIQ G'ARIB VA SHOHSANAM"
DOSTONING VARIANTLARI VA BADIYYATI**

Monografiya

Toshkent - "INNOVATSIYA ZIYO" - 2024

Muharrir: Xolsaidov F.B.

Bosishga 17.04.2024.da ruxsat etildi.

Bichimi 60x90. "Cambria" garnituras.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 7. Nashr bosma tabog'i 6,5.

Adadi 100 nusxa.

*"METHODIST NASHRIYOTI" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli 2-vagon tor ko'chasi, 1-uy.*



+99893 552-11-21

Nashriyot roziligisiz chop etish ta'qiqlanadi

ISBN 978-9910-745-64-5



9 789910 745645